



ISBN 978-83-66216-90-7

Eshatov Ikrom Qo`Ziyevich

**O`ZBEKISTON  
VILOYATLARI MARKAZLARIDA  
SAVDO-MAISHIY XIZMAT  
KO`RSATISH MAJMUALARINI  
ARXITEKTURA-LOYIHAVIY  
SHAKLLANTIRISH XUSUSIYATLARI**

Monografiya

 iScience

Warsaw, Poland - 2024

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
ARXITEKTURA-QURILISH  
UNIVERSITETI

**ESHATOV IKROM QO`ZIYEVICH**

**O`ZBEKISTON VILOYATLARI  
MARKAZLARIDA SAVDO-MAISHIY  
XIZMAT KO`RSATISH MAJMULARINI  
ARXITEKTURA-LOYIHAVIY  
SHAKLLANTIRISH XUSUSIYATLARI**

Monografiya

**Warszawa - 2024**

*UDK: 734:711,553:711,7*

*Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti Ilmiy kengashining qarori bilan (№1-2 son bayonnomma, 26-oktabr 2023 y.) nashrga tavsija etilgan.*

**Taqrizchilar:**

**K. Dj. Raximov – arxitektura fanlari doktori professor,**  
**B. I. Inog`omov – arxitektura nomzodi, dotsent.**

**I.Q. Eshatov** O`zbekiston viloyatlari markazlarida savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini arxitektura-loyihaviy shakllantirish xususiyatlari. Monografiya. / arxitektura fanlari nomzodi, dotsent. Xidirov Muxsin Mixaylovich tahriri ostida. – Warszawa: iScience Sp. z.o.o. – 2024. – 166 s.

Monografiyada savdo va maishiy xizmat binolari yechimlarining holati va arxitekturaviy xususiyatlari shuningdek O`zbekiston viloyatlararo magistral yo`llarda shakillangan aglomeratsiya darajasidagi savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini tabiiy-iqlimi sharoitlarga mos ravishda, uni me`moriy va shaharsozlik jihatdan qo`llashning asosiy tamoyillari ishlab chiqilgan. Monografiya O`zbekiston Respublikasidagi barcha loyiha tashkilotlarda faoliyat yuritib kelayotgan loyihachi arxitektorlar hamda mazkur sohaning barcha qiziquvchilariga mo`ljallangan.

В монографии разработаны основные принципы архитектурно-градостроительного применения решений зданий торгово-бытового обслуживания, исходя из состояния и архитектурных особенностей их происхождения, истории формирования, стилистических направлений взаимоотношений между архитектурой, а также адаптации к природно-климатическим условиям комплексов торгово-бытового обслуживания на уровне агломерации, образующихся на межрегиональных магистралях Узбекистана. Монография предназначена для архитекторов-проектировщиков, работающих во всех проектных организациях Республики Узбекистан, и всех интересующихся данной сферой.

The monograph develops the basic principles of architectural and urban planning application of solutions for commercial and consumer service buildings, based on the state and architectural features of their origin, history of formation, stylistic directions of the relationship between architecture, as well as adaptation to natural and climatic conditions of commercial and consumer service complexes at the agglomeration level formed on interregional highways of Uzbekistan. The monograph is intended for architects and designers working in all design organizations of the Republic of Uzbekistan, and all those interested in this field.

**ISBN 978-83-66216-90-7**

© Eshatov I.Q., 2024  
© iScience Sp. z o. o.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH .....</b>	<b>10</b>
<b>I BOB.</b>	
<b>O'ZBEKISTON VILOYAT MARKAZLARIDA SAVDO VA MAISHIY XIZMAT KO`RSATISH MAJMUALARINING SHAKLLANISHIDAGI OMILLAR VA SHAROITLAR .....</b>	<b>14</b>
1.1.§ Viloyatlarda aglomeratsion savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari shakllanishida ijtimoiy-iqtisodiy va shaharsozlik omillari .....	15
1.2.§ Savdo va maishiy xizmat ko`rsatish majmualarinining tarixiy shakllanishi .....	25
1.3.§ O'zbekistonda savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari shakllanishida tabiiy – iqlimiylar sharoitlar .....	35
I bob xulosasi .....	43
<b>II BOB.</b>	
<b>SAVDO VA MAISHIY XIZMAT KO`RSATISH MAJMUALARI BINOLARINING ARXITEKTURAVIY YECHIMLARI TAHLILI .....</b>	<b>45</b>
2.1.§ Sovet Ittifoqi davri savdo va maishiy xizmat binolari yechimlarining holati va arxitekturaviy xususiyatlari .....	46
2.2.§ Chet el davlatlarida savdo markazlari yechimlarining holati va arxitekturaviy xususiyatlari .....	60
2.3.§ Savdo va maishiy xizmat ko`rsatish majmualari binolarining shakllanishida shaharsozlik va tabiiy-iqlimiylar sharoitlarning tahlili .....	66
II bob xulosasi .....	70
<b>III BOB.</b>	
<b>VILOYATLARDA AGLOMERATSION SAVDO VA MAISHIY XIZMAT KO`RSATISH MAJMUALARINI TAKOMIL-LASHTIRISH VA ULARNING ARXITEKTURA-LOYIHAVIY YECHIMLARI BO`YICHA TAVSIYA VA TAKLIFLAR .....</b>	<b>72</b>
3.1. § Viloyat markazlarida savdo va maishiy xizmat ko`rsatish majmualari shakllanishining zamonaviy yo`nalishlari .....	73
3.2. § Viloyatlar markazlarida aglomeratsion savdo va maishiy xizmat ko`rsatish obyektlarini shakllantirishga mahalliy omillarning ta`siri ..	81
3.3. § Viloyatlar markazlarida aglomeratsion savdo va maishiy xizmat ko`rsatish majmualarini arxitektura - loyihaviy tashkil etish bo`yicha taklif va tavsiyalar .....	88
III bob xulosasi .....	97
<b>XULOSA .....</b>	<b>99</b>
<b>GLOSSARI .....</b>	<b>101</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI .....</b>	<b>103</b>
<b>MONOGRAFIYANING TAQDIMOT MATERIALLARI .....</b>	<b>113</b>

## ОГЛАВЛЕНИЕ

<b>ВВЕДЕНИЕ .....</b>	<b>10</b>
<b>I ГЛАВА.</b>	
<b>ФАКТОРЫ И УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЛЕКСОВ ТОРГОВЛИ И БЫТОВОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В ОБЛАСТНЫХ ЦЕНТРАХ УЗБЕКИСТАНА.....</b>	<b>14</b>
1.1.§    Социально-экономические и градостроительные факторы формирования агломерационных комплексов торговли и бытового обслуживания в регионах .....	15
1.2.§    Историческое формирование комплексов коммерческого и бытового обслуживания .....	25
1.3.§    Природно-климатические условия при формировании комплексов коммерческого и бытового обслуживания в Узбекистане .....	35
Глава I заключение.....	43
<b>II ГЛАВА.</b>	
<b>АНАЛИЗ АРХИТЕКТУРНЫХ РЕШЕНИЙ ЗДАНИЙ КОМПЛЕКСОВ КОММЕРЧЕСКОГО И БЫТОВОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ.....</b>	<b>45</b>
2.1.§    Состояние и архитектурные особенности решений зданий торговли и бытового обслуживания периода Советского Союза	46
2.2.§    Статус и архитектурные особенности решений торговых центров в зарубежных странах.....	60
2.3.§    Анализ градостроительных и природно-климатических условий при формировании зданий комплексов коммерческого и бытового обслуживания .....	66
Глава II заключение .....	70
<b>III ГЛАВА.</b>	
<b>РЕКОМЕНДАЦИИ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ ПО ЭВОЛЮЦИИ АГЛОМЕРАЦИОННЫХ КОМПЛЕКСОВ ТОРГОВЛИ И БЫТОВОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В РЕГИОНАХ И ИХ АРХИТЕКТУРНЫМ И ДИЗАЙНЕРСКИМ РЕШЕНИЯМ .....</b>	<b>72</b>
3.1. §    Современные направления формирования комплексов торговли и бытового обслуживания в областных центрах .....	73
3.2. §    Влияние местных факторов на формирование агломерационных объектов торговли и бытового обслуживания в центрах регионов.....	81
3.3.§    Предложения и рекомендации по архитектурно-дизайнерской организации агломерационных комплексов торговли и бытового обслуживания в центрах регионов .....	88
Глава III заключение .....	97
<b>ЗАКЛЮЧЕНИЕ .....</b>	<b>99</b>
<b>ГЛОССАРИЙ .....</b>	<b>101</b>
<b>СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ .....</b>	<b>103</b>
<b>ПРЕЗЕНТАЦИОННЫЕ МАТЕРИАЛЫ МОНОГРАФИИ .....</b>	<b>113</b>

## CONTENTS

<b>INTRODUCTION .....</b>	<b>10</b>
<b>CHAPTER I.</b>	
<b>FACTORS AND CONDITIONS IN THE FORMATION OF TRADE AND HOUSEHOLD SERVICE COMPLEXES IN THE REGIONAL CENTERS OF UZBEKISTAN .....</b>	<b>14</b>
1.1.§ Socio-economic and urban planning factors in the formation of agglomeration trade and household service complexes in the regions.....	15
1.2.§ Historical formation of commercial and domestic service complexes .....	25
1.3.§ Natural and climatic conditions in the formation of commercial and domestic service complexes in Uzbekistan .....	35
Chapter I conclusion .....	43
<b>CHAPTER II.</b>	
<b>ANALYSIS OF ARCHITECTURAL SOLUTIONS OF BUILDINGS OF COMMERCIAL AND DOMESTIC SERVICE COMPLEXES .....</b>	<b>45</b>
2.1.§ State and architectural features of solutions of trade and household service buildings of the Soviet Union period.....	46
2.2.§ Status and architectural features of shopping center solutions in foreign countries .....	60
2.3.§ Analysis of urban planning and natural-climatic conditions in the formation of buildings of commercial and domestic service conclusion .....	66
Chapter II summary.....	70
<b>CHAPTER III.</b>	
<b>RECOMMENDATIONS AND PROPOSALS ON THE EVOLUTION OF AGGLOMERATION TRADE AND DOMESTIC SERVICE COMPLEXES IN THE REGIONS AND THEIR ARCHITECTURAL AND DESIGN SOLUTIONS .....</b>	<b>72</b>
3.1. § Modern directions of the formation of trade and household service complexes in regional centers .....	73
3.2. § Influence of local factors on the formation of agglomeration trade and household service facilities in the Centers of Regions.....	81
3.3.§ Proposals and recommendations for the architectural and Design Organization of agglomeration trade and household service complexes in the Centers of the regions .....	88
Chapter III conclusion .....	97
<b>CONCLUSION .....</b>	<b>99</b>
<b>GLOSSARY .....</b>	<b>101</b>
<b>LIST OF USED LITERATURE .....</b>	<b>103</b>
<b>PRESENTATION MATERIALS OF THE MONOGRAPH .....</b>	<b>113</b>

## **SO‘ZBOSHI**

Jahonda aglomeratsiya darajasida ijtimoiy infrastruktura va savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini rivojlantirish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy va iqtisodiy aloqalarни tobora faollashtirish va bu sohada mavjud aglomerasiya ahamiyatidagi yo`llardan foydalanish choralar izlanmoqda. Ana shunday dunyoviy talablar asosida yuzaga kelgan aglomeratsion savdo majmularini magistral yo`llar bilan bog`langan holda shakllantirish borasida keng qamrovli loyihalarни amalga oshirish, savdo majmularini tabiiy ehtiyojlar sababli qayta qurishga alohida itibor paydo bo`lmoqda.

Jahonda savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularining magistral yo`llaridagi infrastruktura obyektlaridan oqilona foydalanish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda, shahar markazlari va shahardan tashqarida savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularining arxitekturaviy yechimlari, savdo obyektlarni shaharsozlik nuqtai nazaridan to`g`ri joylashtirish yo`llarini takomillashtirish, loyiha tashkilotlari uchun loyihalash me`yorlarining ishlab chiqilishiga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo`nalishda, rivojlangan davlatlardan AQShda, Detroyt - siti mintaqasidagi yirik Yestland savdo majmuasi, Istanbuldagi Grand Bazaar (Turkiya) tahlil va o`rganilishi yuzasidan yangi sahifalarini ochib berdi. Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini yangi, zamonaviy turlarini arxitektura-loyihaviy shakllantirish xususiyatlari bo`yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda.

Respublikamizning savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularining viloyat va shaharlar o`rtasidagi magistral yo`llaridagi infrastruktura obyektlaridan oqilona foydalanish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni amaliyatga tatbiq etish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Mazkur vazifalarini amalga oshirishda va shahar markazlari va shahardan tashqarida savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularining arxitekturaviy yechimlari, savdo obyektlarni to`g`ri joylashtirish yo`llarini takomillashtirish, loyiha tashkilotlari uchun loyihalash me`yorlarining ishlab chiqilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, jahon hamjamiyati xalqaro aloqalarни tobora faollashtirish va bu sohada mavjud magistral yo`llardan foydalanish choralar izlamoqda. 2022-yil Samarqand shahrida bo`lib o`tgan Shanxay hamkorlik tashkiloti “sammitida” (xalqaro forumi) ham bu sohaning zarurligini ko`rsatib berishda mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot

strategiyasi to`g`risida”gi, 2020-yil 13-martdagি PF-5963-son<sup>1</sup> “O`zbekiston Respublikasining Qurilish sohasida islohatlarni chuqurlashtirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi Farmonlari, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-martdagи PQ-2853-son “2017-2019 yil davrida dehqon bozorlarini rekonstruksiya qilish va ularning hududida zamonaviy savdo majmualari qurish dasturini tasdiqlash to`g`risida”gi qarori, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 28-avgustdagи 253-son “Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini tartibga solishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me`yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertasiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Ushbu kitobni tayyorlashda, o`zlarining qimmatli maslahatlari va ko`maklarini ayamagan taniqli tadqiqotchi olimlar, arxitektura fanlari doktori professor Kamol Djalolovich Raximov, arxitektura fanlari doktori; Axtam Sindarovich Uralov arxitektura nomzodlari dotsent Muradxon Saidmaxmudovich Usmanov va Baxtiyor Ismailovich Inog`omov hamda sahifalovchi Mahliyo Mustafoyeva Zarifovnaga o`z minnatdorchiligimni izhor etaman.

---

<sup>1</sup> O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to`g`risida”gi, 2020-yil 13-martdagи PF-5963-son

## MUHARRIR TAQRIZI

O'zbekiston shahar markazlari rivojlanishi va savdo majmualari shakllanishi keyingi yillarda ko'p mamlakatlarning shaharsozlik amaliyotida keng muhokama qilinmoqda. Bu hodisa zamonaviy sharoitlarda shaharlar markazlari strukturasi va me'moriy qiyofasiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Shaharlarning savdo-maishiy xizmat ko'rsatish majmua markazlari me'moriy shakllanish muammolari murakkab shaharsozlik jarayonlarini kompleks tarzda ko'rib chiqishni taqozo etadi. Shahar markazini ijtimoiy-iqtisodiy madaniy sifatida rivojlantirilish aglomeratsiya funksiyalarini kuchaytirishni talab qiladi.

Monografiyada savdo va maishiy xizmat binolari yechimlarining holati va arxitekturaviy xususiyatlaridan kelib chiqishi, shakllanish tarixi, shuningdek O'zbekiston viloyatlararo magistral yo'llarda shakillangan aglomeratsiya darajasidagi savdo-maishiy xizmat ko'rsatish majmularini tabiiy-iqlimiylar sharoitlarga mos ravishda, uni me'moriy va shaharsozlik jihatdan qo'llashning asosiy tamoyillari ishlab chiqilgan. Monografiya O'zbekiston Respublikasidagi barcha loyiha tashkilotlarida faoliyat yuritib kelayotgan loyihami arxitektorlar hamda mazkur sohaning barcha qiziquvchilariga mo'ljallangan.

Yurtimizda qurilayotgan zamonaviy arxitektura va savdo majmua ob'yeqtlarida aglomeratsion savdo majmularining kamligi, ularning qiyosiy o'rganilmaganligi, loyihalashda zamonaviy innovatsion yunalishlarning qariyb qullanilmaganligi, mavzuning kam ilmiy tahlil etilganligi va ayni paytda, unga bulgan zamonaviy ehtiyojlar shular jumlasiga kiradiki, bularning barchasi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mazkur kitob muallifi tanlagan "O'zbekiston viloyatlari markazlarida savdo-maishiy xizmat ko'rsatish majmularini arxitektura-loyihami shakllantirish xususiyatlari" mavzusining O'zbekistonda nisbatan kam tadqiq etilganligini alohida qayd etmoq lozim.

Aynan shu holat, ishning dolzarbligini belgilab bergen va ishonchim komilki, mazkur mavzu arxitektorlar uchun hamma vaqt qiziqarli bo'lib kelgan.

Shunga ko'ra, arxitektura sohalarining ijtimoiy va iqtisodiy aloqalarni tobora faollashtirish va bu sohada mavjud jihatlarini tadqiq etish borasidagi ushbu mavzuning naqadar murakkab mehnat talab bo'lishiga qaramasdan, muallif sa'y-harakatlar, izlanishlar qilib, lozim darajada ma'lumotlar to'play olgan. Eng muhimmi, ularni maqsadga muvofiq tarzda joy-joyiga qo'yib ishlata olgan, ya'ni, monografiya talabi asosida, O'zbekiston sharoitiga moslab tahlil eta olgan.

Hozirgi sharoitda shaharsozlik tizimidagi o'zgarishlari yirik shaharlardagi aholi joylashuvini hisobga olgan holda savdo-maishiy xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish, davriy va epizodik savdo-maishiy

xizmat ko'rsatish majmularini taqdim etadigan savdo markazlarini tashkil qilishni asoslab bergen. Shaharlarda savdo majmularini shahar aholisi harakatining asosiy transport markazlari yaqinida joylashganligi hisobga olgan holda tashkillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Savdomaishiy xizmat ko'rsatish majmularini tashkil etish misolida landshaft arxitekturasi va umuman olganda shaharsozlikda o'z yo'nalishini belgilab olgan.

Muallifning mavzuga ijodiy yondashgani, tartibli va ishonchli xronologik jadvallarni tuzgani, O'zbekiston viloyatlariiga oid bir qator loyihibiy tavsiyalar bera olgani fikrimizga isbot bo'la oladi. Kitobning kirish qismida aglomeratsiya darajasida ijtimoiy-iqtisodiy infrastruktura va savdo majmularini rivojlantirish masalalari tarixi, sohalardagi yaratilish qonuniyatları, aglomeratsiyani qo'llanilish sohalari, tasniflanishi va ularning istiqbollari, xulosalar hamda ilova qilingan rasmlardan iborat.

Kitobning kirish qismida uning dolzarbliji va zaruriyati tushuntirilgan. Muallif mazkur kitobda qiziqarli qiyosiy izlanishlar olib borgan bo'lib, xususan, O'zbekistonda dunyoning boshqa mamlakatlaridagi kabi aholi joylarining guruhi tizimlari jadal shakllanmoqda.

AJGT yoki "aglomeratsiyalar" shakllanishida shahar va qishloq aholi joylarining o'zaro aloqalari rivojlanishi, aholining mingratsion jarayonlarining keng tarqalishi, aholi joylari tarmog'inining kompleks rivojlanishi va shaharsozligi sohasidagi fazoviy konsepsiyalarining rivojlanishi kabi omillar asosiy hisoblanadi.

Vaholanki, O'zbekistondagi alohida aglomeratsiyalarga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarda respublikamiz shaharlarining o'zining tevarak-atrofidagi hudud bilan aloqasini o'rganishda uning o'ziga xos xususiyatlariga alohida e'tibor berilgan.

Shuni e'tiborga olib, viloyat shaharlarining transport serqatnov, aholi gavjum bo'lgan, piyodalar va sayyoohlар harakati uzlaksiz davom etadigan hududlarda piyodalar uchun zamonaviy savdo majmua obektlar shaharsozlik tuqtaiy nazaridan taklif qilingan va bu ayni muddaodir.

Bugun arxitekturada, ilm-fan, san'at va madaniyatning boshqa sohalarida bo'lgani kabi, hozirgi davrimizning jadal rivojlanishini aks ettiruvchi yangi shakl va tamoyillarni faol izlash harakatlari olib borilmoqda. Bu kabi loyihibar arxitektura, va shaharsozlik sohasida yangi sahifalarni ochib berishiga ishonchimiz komil.

Uni o'rganish, talqin etish, amalga oshirishning dastlabki bosqichlarida arxitektura fanlari bo'yicha falsafa doktori Ikrom Eshatov tomonidan bajarilgan mazkur izlanishlarni, tayyorlangan monografiyani katta qoniqish bilan e'tirof etganim holda, mazkur ishni O'zbekiston arxitektura va shaharsozlik fani, arxitektura va boshqa sohalarda katta yangilik deb hisoblayman.

## KIRISH

**Monografiyaning maqsadi** O`zbekiston viloyatlarida savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini shakllantirishda me`moriy-rejaviy tashkillashtirish bo`yicha tavsiya va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

### **Monografiyaning vazifalari:**

savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularining viloyat markazlarida zamonaviy sharoitlarda vujudga kelish asoslarini aniqlash;

viloyat va shahar ahamiyatidagi yo`llarda zamonaviy savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini aglomeratsiya maqsadlarida foydalanish takliflarini ishlab chiqish;

savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini shakllantirish va joylashtirish hususiyatlarini oshib berish;

viloyat ahamiyatidagi shaharlarning kirish yo`llarda savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini infrastrukturasining yangi me`moriy va shaharsozlik yechimlarini shakllantirish hamda takomillashtirish;

savdo majmularini viloyat ahamiyatidagi shaharlarga kirish yo`llarda qo`llash bo`yicha eksperimental loyihibaviy tavsiya va takliflar ishlab chiqish.

**Muammoning o`rganilganlik darajasi.** Hozirgi davrda mamlakat Prezidentining shaharsozlik va me`morchilikka oid farmonlari, qarorlari va ko`rsatmalari asosida shahar va shaharlararo magistral yo`llari va ularni xizmat ko`rsatish komplekslarining ilmiy asoslangan bosh reja loyihalari hayotga tadbiq etilmoqda.

Dunyo va yurtimizning yetuk olimlari: L.Yu. Mankovskaya<sup>2</sup>, N.F. Borodina, O.G. Bolshakov<sup>3</sup>, R.M. Valiyev<sup>4</sup>, A. Esenov<sup>5</sup>, M.K. Mirzayev<sup>6</sup>, X.K. Tursunov<sup>7</sup>, R.L. Voronina<sup>8</sup>, X.Sh. Pulatov<sup>9</sup>,

---

<sup>2</sup> Маньковская Л.Ю. Типологические основы зодчества Средней Азии (IX начало XX) в.).- Т: 1980. Стр.51.

<sup>3</sup> Болшаков О.Г. Город в конце VIII в. – В кн.: Средневековой город Средней Азии. – Л: 1973. Стр. 229.

<sup>4</sup> Валиев Р.М. Традиции размещения объектов обслуживания в исторических городах Средней Азии. // Строительство и архитектура Узбекистана. 1975, N 12, с. 12 -15.

<sup>5</sup> Эсенов А. Ландшафтно-климатические основы градостроительства в Средней Азии. – м.: ЦНТИ, 1971. – 37.

<sup>6</sup> Мирзаев М.К. Проблемы регионального расселения в Узбекистане, связанные с развитием аридных территорий // Архитектура и строительство Узбекистана 1986, № 12.- с 9,10

<sup>7</sup> Турсунов Х.К. Прогнозирование развития систем населенных мест Узбекистана. – Тошкент: УЗНИИП градостроительства, 1978. – 133 с.

<sup>8</sup> Воронина Р.Л. Народные традиции Узбекистана. - М.Стройиздат. Архитектура и градостроительство, 1951. Стр.-167.

<sup>9</sup>

A.S. Uralov<sup>10</sup>, Sh.J. Askarov<sup>11</sup>, X.M. Ubaydullayev, M.M. Inogomava<sup>12</sup>, R.T. Toshtemirov<sup>13</sup>, M.M. Xidirov<sup>14</sup>, M.B. Xudoyerova<sup>15</sup>, M.K. Mirzayev<sup>16</sup>, X.K. Tursunov<sup>17</sup>, A.A. Ziyayev,<sup>18</sup> A.O. Xasanov<sup>19</sup> va boshqalar tomonidan ko`plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bu boradagi ba`zi takliflar va tavsiyalar M.K. Axmedov, D.A. Nozilov, M.S. Usmanov, B.I. Inog`amov, A.A. Saidov, P.Sh. Zoxidov, T.Sh. Mamatmusayev M.A. Yusupova, O.M. Salimov, T.F. Qodirova, I.S. Baydjanov, Sh. Yunusov, va boshqa mualliflar tomonidan tadqiq qilingan.

Ushbu mavzuga oid ilk tadqiqotchilar sifatida izlanishlar va ilmiy tadqiqotlar chet el va xamdo`stlik mamlakatlari olimlari bo`lgan V. Gryun,- L. Cmit<sup>20</sup>, N.B. Beddington<sup>21</sup>, V. Meytlend<sup>22</sup>, V. Yejov<sup>23</sup>, M. Lavrov<sup>24</sup>, M.A. Orlov - I.R. Fedoseyeva<sup>25</sup>, A.I. Urbax<sup>26</sup>, A.N. Rimsha<sup>27</sup>,

---

<sup>10</sup> Uralov A., Yusupov R. O`rta Osiyoning o`tmishdag`i jamoat binolari arxitekturasi.– Samarqand, 2007.

<sup>11</sup> Аскаров Ш.Д. Регион – пространство – город. – М.: Стройиздат, 1988. – 201 с.

<sup>12</sup> Ubaydullayev X.M., Inogomava M.M. Turar joy va jamoat binolarining tipologik asoslari. Т. 2009 у.

<sup>13</sup> Тоштемиров Р.Т. Сохранить народное зодчество Узбекистана. - Декоративное искусство СССР, 1976, № 7, стр. 43-45.

<sup>14</sup> Бобобеков Б.К., Хидиров М.М. Жилищно-торговые (производственные комплексы) для Узбекистана. // Архитектура регионального жилища. Киев ЗНИИЭП. Киев, 1991. с. 99-108.

<sup>15</sup> Xudoyerova M.B. Aholi punktlari jamoat markazlari. – Samarqand, 2019

<sup>16</sup> Мирзаев М.К. Пути совершенствования планировочной структуры систем расселения Узбекистана // Архитектура и строительство Узбекистана, 1991, № 1. – с 25-27

<sup>17</sup> Турсунов X.К. Пространственно-планировочная организация расселения на территории Узбекистана, 2012.

<sup>18</sup> Зияев А.А. Базары Ташкента. В прошлом и настоящем. Второе издание с изменениями. Ташкент. Изд-во “Санъат”, 2012, с.139. (18.00.00.№5) ISBN 978 9943 322 35-6

<sup>19</sup> Xasanov A.O. O`zbek milliy avtomagistralida yo`l bo`yi servis majmularini me`moriy shakllantirish (PhD) dissertasiysi

<sup>20</sup> Грюн В., Смит Л. Торговые центры США. М., Стройиздат. 1966. 3-8 бет

<sup>21</sup> Беддингтон Н. Строительство торговых центров, Москва Стройиздат 1986

<sup>22</sup> Мейтленд, Б. Пешеходные торгово-общественные пространства. Мейтленд Б.пер. с англ. - М.: Стройиздат, 1989. - 206 с.

<sup>23</sup> Ежов В.И. Архитектура общественных зданий массового строительства. М. Стройиздат.1983. – 217 с.

<sup>24</sup> Лавров В.А. Градостроительная культура Средней Азии. М. Госиздат архитектура и градостроительство. 1950.

<sup>25</sup> Орлов М.А., Федосеева И.Р. и др. Проектирование сети предприятий торгово-бытового обслуживания в городах. М., Стройиздат, 1975

<sup>26</sup> Урбах А.И. Общественно-торговые центры. М., ЦНТИ по строительству и архитектуре, 1972.

<sup>27</sup> Римша А.Н. "Город и жаркий климат" Краткий обзор урбанизации территорий жаркого климата (Азия, Африка, Лотинская Америка и 4-й строительно-климатический пояс СССР)" Москва стройиздат 1975.

A.V. Surovenkov<sup>28</sup>, V.A. Cherepanov<sup>29</sup>, A.B. Varshaver<sup>30</sup>, G.M. Lappo, P.M. Polyanlarning<sup>31</sup> I.Q. Eshatov asarlarida yoritilgan va boshqalarning ilmiy izlanishlarida ham o`z aksini topgan. Ammo ko`plab olib borilgan lmiy tadqiqot ishlariga qaramasdan, O`zbekiston viloyat markazlarida savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari tarixiy shakllanishing taraqqiyot bosqichlari va istiqboldagi rivojlanish muammolari, savdo-maishiy xizmat ko`rsatish obyektlarini majmualar tarzida shakllantirish masalalari kompleks tarzda yetarlicha tadqiq qilinmagan.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida viloyat markazlari hisoblangan shaharlarda savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularining aglomeratsiya darajasidagi obyektlari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** O`zbekiston viloyatlararo magistral yo`llarda shakillangan aglomeratsiya darajasidagi savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini tabiiy-iqlimi sharoitlarga mos ravishda, uni me`moriy va shaharsozlik jihatdan qo`llashning nazariy va amaliy asoslarini o`rganish yechimi va qonuniyatlarini tashkil etadi.

**Tadqiqodning usullari:** Monografiya ishida statistik, qiyosi, loyihibiy va me`moriy loyihalarni tahlil qilish, savdo majmulariga doir arxitektura obyektlaridagi tarixiy tajribalarni, yutuq va kamchiliklarini o`rganish va umumlashtirish, kuzatuv hamda loyihibiy takliflar ishlab chiqish usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

O`zbekiston viloyatlarida piyodalar va transport harakatini ratsional tashkil qilish, tirbandliklarning oldini olish hamda vaqt sarfini tejash maqsadida markaziy shaharlarga kirish va chiqish yo`llarida zamонави savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini kompleks tarzda shakllantirish samaradorligi asoslangan;

aglomeratsiya doirasida savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini eng yaqin (shahar yoki tuman hududlaridan chiqish joylarida), oraliq (shaharlарaro yoki tumanlararo) hamda mintaqaviy (viloyatlararo) hududlarda rejalashtirish taklifi ishlab chiqilgan;

viloyatlarning tabiiy-geografik jihatdan turli mintaqalarda joylashganligi, ko`proq quruq va jazirama issiq iqlimning barcha mintaqalarga xos ekanligiga ko`ra savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini loyihalashda ochiq (Jizzax shahri), yarim ochiq (Qarshi shahri)

<sup>28</sup> Суровенков А.В Архитектура торговых центров крупнейшего города: На примере Санкт-Петербурга: Автореф. дис.канд.наук.-Санкт-Петербург, 2005. - 20 с.

<sup>29</sup> Черепанов В.А. Транспорт в планировке городов М., Стройиздат, 1981

<sup>30</sup> Варшавер А.Б. Торговий центр города Навои. // Архитектура СССР. - 1979, N 1, с. 46-47.

<sup>31</sup> Лаппо Г. М., Полян П. М., Селиванова Т. И. Городские агломерации России // Демоскоп. № 407-408.

va yopiq (Urganch shahri) turdag'i arxitektura-fazoviy yechimlardan foydalanish zarurati asoslab berilgan;

Qarshi, Jizzax va Urganch shaharlarida savdo-maishiy xizmat ko'rsatish majmularini hududlarning o'ziga xos shaharsozlik talablari (hududiy joylashuvi, iqlimi, rejaviy tuzilishi) asosida funksional-rejaviy (jamoat, shaxsiy, xo`jalik, transport) jihatdan samarali sxema zonasi asoslab berilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

viloyat markazlarida aglomeratsion savdo-maishiy xizmat ko'rsatish majmularining shaharlarga kirish qismlari va ular atrofida yangi hududiy rivojlanishi va ularning mazmuni, savdo-majmularining, arxitekturaviy loyihalash me`yorlari takomillashtirilgan;

aglomeratsion savdo markazlarining shaharsozlik nuqtai nazardan xizmat ko'rsatish mavquyi (darajasi)ga ko`ra tasnif tizimi ishlab chiqilgan;

savdo-maishiy xizmat ko'rsatish majmularidan zamonaviy maqsadlarda foydalanish takliflari ishlab chiqilgan;

shahar markaziy ko`chalarida savdo-maishiy xizmat ko'rsatish majmularini shakllantirishda transport sig'imi optimallashtirish loyihaviy takliflari yaratilgan.


**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati zamonaviy arxitektura amaliyatida bilimlarni kengaytirish va boyitish bilan birga oliv ta`lim muassasalarida arxitektura va shaharsozlik fanlarini o`qitishda, loyiha tashkilotlari amaliy faoliyatini samarali rivojlanirishda katta ahamiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O`zbekiston viloyat markazlari bo`ylab savdo obyektlarini loyihalash amaliyatida, arxitektura va qurilish tashkilotlari faoliyatida hamda oliv ta`lim muassasalarida arxitektura va shaharsozlik sohasidagi fanlarni o`qitishda hamda arxitekturaga doir tushunchalar bilan to`ldirishga xizmat qiladi.



I BOB.

O`ZBEKISTON VILOYAT  
MARKAZLARIDA SAVDO  
VA MAISHIY XIZMAT  
KO`RSATISH  
MAJMULARINING  
SHAKLLANISHIDAGI  
OMILLAR VA  
SHAROITLAR



## **1.1. Viloyatlarda Aglomeratsiya savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari shakllanishida ijtimoiy-iqtisodiy va shaharsozlik omillari**

“Aglomeratsiya” atamasi ilk bor Fransiyada aholi joylari guruhiba nisbatan ishlataligani. 1973 yilda Fransuz olimi M.Ruj “aglomeratsiya shahar faoliyatining konsentrasiyasi sifatida shahar ma`muriy chegaralaridan tashqariga chiqadi va qo`shni aholi punktlariga tarqaladi” deb aytgan edi [36]. XX asrda aglomeratsiyalar, tuzilishiga qarab, monisentrik va polisentrik turiga bo`linadi. Bir necha yadro atrofida rivojlangan aglomeratsiya polisentrik tur hisoblanadi.

Oxirgi yillarda respublikamiz olimlari ilmiy adabiyotida shahar aglomeratsiyalariga bag`ishlangan qator maqlolar chop qilindi. Bu, albatta, ijobiy holat, chunki shahar aglomeratsiyalarini hozirgi zamon urbanizatsiya jarayonining mahsuli va ularning tashkil topishi va rivojlanishini o`rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Lekin shahar aglomeratsiyalariga bag`ishlangan maqlolarni o`rganib shunday fikrga kelish mumkinki, ba`zi mualliflar O`zbekistonda urbanizatsiya jarayonining o`ziga xos xususiyatlariga e`tibor bermasdan industrial rivojlangan mamlakatlar bilan bir qolipda ko`rishayotganga o`xshaydi [36, 55].

O`zbekistonda dunyoning boshqa mamlakatlaridagi kabi aholi joylarining guruhi tizimlari jadal shakllanmoqda. AJGT (aholi joylarining guruhi tizimlari) ma`lum omillar asosida shakllanadi.

AJGT yoki “aglomeratsiyalar” shakllanishida shahar va qishloq aholi joylarining o`zaro aloqalari rivojlanishi, aholining mingratsion jarayonlarining keng tarqalishi, aholi joylari tarmog`ining kompleks rivojlanishi va shaharsozligi sohasidagi fazoviy konsepsiyanining rivojlanishi kabi omillar asosiy hisoblanadi [76].

Vaholanki, O`zbekistondagi alohida aglomeratsiyalarga bag`ishlangan ilmiy tadqiqotlarda respublikamiz shaharlарining o`zining tevarak-atrofidagi hudud bilan aloqasini o`rganishda uning o`ziga xos xususiyatlariga alohida e`tibor berilgan. O`zbekistonda shahar aglomeratsiyalarini tashkil topishi va rivojlanishiga bag`ishlangan birinchi ilmiy tadqiqotchi O. Ota-Mirzayevning Farg`ona - Marg`ilon aglomeratsiyasiga bag`ishlangan ishidir.

Shundan keyin Toshkent, Samarqand aglomeratsiyalari o`rganildi va boshqa shaharlarning o`zining atrofi bilan birgalikda tashkil qilayotgan aglomeratsiyalashuv jarayoni o`rganilmoqda. Qashqadaryo, Xorazm, va Jizzax aglomeratsiyalari hozirda shakllanish bosqichini amalga oshirmoqda.

Bu aglomeratsiyalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, transport tiziminining rivojlanishi va madaniy-maishiy xizmatlarni tashkil qilinishi bo'yicha bir-biriga yaqin hisoblanadi. Aglomeratsiyalar markazlari aholisi 200 mingga yaqinlashib, yaqin kelajakda yirik shaharlar qatoriga o'tishi kutilmoqda. Shaharlarning statusi va aglomeratsiyada tutgan ahamiyati o'sib borishi bilan bir qatorda aholiga savdo-maishiy xizmat ko'rsatish qamrovi va zamonaviy talab darajasiga yetkazilishi zarurdir.

O'zbekistonda shahar aglomeratsiyalariga bag`ishlangan ba`zi ilmiy maqolalarda shunday xulosa ko`zga tashlanadiki, mualliflar shahar aglomeratsiyasi deganda yirik shahar va uning atrofidagi kichik shaharlar yoki shaharchalarni tushinishadi. Masalan, bir ilmiy maqolada O'zbekistondagi shahar aglomeratsiyalari aholisining 68,6 foizi markaziy shaharlarga, 34,1 foizi yo`ldosh shaharlarga to`g`ri keladi deb aytilgan.

Nahotki O'zbekistondagi aglomeratsiyalar xududida qishloq aholisi bo`lmasa? O'zbekistondagi barcha shaharlar qishloq aholi joylari bilan o'ralganki, markaziy shahardan yo`ldosh shahargacha bo`lgan maydonlar bo`sh joylar emas, balki qishloqlar ketma-ket joylashgan hudud. Shuning uchun ham shahar aglomeratsiyalari tarkibida qishloq aholisi hissasi ko`rsatilishi maqsadga muvofiq bo`lar edi. Shulardan kelib chiqqan holda va ilmiy to`plamlarimizni talabalar, magistrantlar, yosh tadqiqotchilar o`qishini hisobga olib shahar aglomeratsiyalari to`g`risida umumiy fikrlarni aytishni lozim topdik [113].

Avvalo ko`pchilikka ma`lum bo`lsada, shahar aglomeratsiyasi tushunchasi - aholi joylashuvi to`g`risida bunday tizimlarining nomlanishi butun dunyoda bir xil emas. Shahar aglomeratsiyasi iborasi bilan birgalikda ba`zi mamlakatlarda konurbasiya va boshqa iboralar qo`llaniladi. Lekin, ko`pchilik mamlakatlarda, shu jumladan MDH mamlakatlari va O'zbekistonda ham shahar aglomeratsiyasi iborasini qo`llash qabul qilingan.

Aglomeratsiya so`zi lotincha Agglomerare-qo'shib olmoq (prisoyedinyat, pribavlyat) iborasidan olingan bo`lib, uning mohiyati to`g`risida, ya`ni qanday hududlar shahar aglomeratsiyalari qatoriga qo'shilishi to`g`risida bir xil fikr yo`q. Biroq hozirgi vaqtda ko`pchilik tadqiqotchilar shahar aglomeratsiyalariga taxminan quyidagicha ta`rif beradilar:

- shahar aglomeratsiyalari bir markaziy shaharning o`zining tevarak-atrofidagi aholi joylari bilan o`zaro intensiv mehnat, madaniy-maishiy rekreasiya va boshqa aloqalar orqali bir xil hayotga kirishib ketishidir.

E`tibor beramiz, o`zining tevarak-atrofidagi aholi joylari bilan (faqatgina yo`ldosh shaharlar bilan emas). U yoki bu shaharning tevarak-atrofi bilan intensiv aloqasini o`rganish esa umumiy emas, balki xususiy

(individual) taddiqot o`tkazishni talab qiladi, chunki har bir shahar aglomeratsiyasi delematisiyasini alohida, umumiy "shablon"larsiz amalga oshirish lozim. Butun dunyoda shahar aglomeratsiyalari chegaralarini aniqlashda "izoxron" uslubi (metodi)dan foydalaniлади [44].

Shundagina har bir hududning o`ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda shahar aglomeratsiyalarining tashqi chegaralarini belgilash va chegara ichidagi intensiv aloqalarni o`rganib, shahar aglomeratsiyasining holatiga baho berish mumkin. Shuning uchun alohida shahar aglomeratsiyalarining radiusi bir xil emas. Nyu-York aglomeratsiyasi radiusi bir mil, Moskva aglomeratsiyasi radiusi 100-120 km, Toshkent aglomeratsiyasi radiusi 70-80 km bo`lsa, Samarqand aglomeratsiyasi radiusi 35-45 km va h.k. Albatta, bitta maqola doirasida shahar aglomeratsiyalarining iqtisodiy-geografik shaharsozlik xususiyatlarini to`liq yoritish qiyin, o`ylaymizki, bu muammolarga qiziquvchi yoshlаримиз, muhtaram olimларимиз A.S. Soliyev, O.B. Ota-Mirzayev, T.I. Raimov va boshqalarning ilmiy ishlariga murojaat qiladilar.

Shaharlarda jamoat markazlarining tizimini shakllantirish taqoza etiladi. Bu jamoat markazlari umumshahar markazini, rejaga kiruvchi tumanlar markazlarini, yashash va sanoat rayonlarining, dam olish zonalarini, har kuni foydalaniладиган savdo-maishiy xizmat ko`rsatish markazlarini, hamda ixtisoslashган (tibbiy, o`quv, sport) markazlarni o`z ichiga oladi va bu jamoat markazlari shahar atrofidagi zonalardan qatnash uchun ham qulay bo`lmog`i lozimdir.

Jamoat markazlarining soni, tarkibi va joylashtirilishi shaharning kattaligini, (shahar hududining katta yoki kichikligi), uning joylashtirish tizimidagi rolini va hududning funksional-rejaviy tashkil etilganligini hisobga olgan holda qabul qilinadi, katta va yirik shaharlarda, hamda shahardagi strukturali qismrlarga ajratilgan umumshahar markaziga ega bo`lgan shaharlarda, shahar ahamiyatidagi markazlar bilan to`ldiriladi. Kichik shaharlar va qishloqlardagi aholi yashaydigan joylarda jamoat markazlari shakllantiriladi va ularni yashash joylari ko`ndalik foydalaniладиган obyektlar bilan to`ldiriladi. Umum shahar markazida uning o`lchamlariga va loyihibav tashkillantirishga ko`ra o`zarо bog`langan jamoat muhitlari (bosh ko`chalar, maydonlar, piyodalar zonaları) ning sistemasini shakllantirish taqoza etiladi, ular umum shahar markazining yadrosini tashkil etadi. Tarixiy shaharlarda umumshahar markazining yadrosini tarixiy qurilish zonasida to`liq va qisman shakllantirishga yo`l qo`yiladi, lekin bunda tarixiy tarzda tashkil topgan muhitning bus-butunligini ta`minlash shartining to`liq bajarilishi talab etiladi [28].

Aglomeratsion savdo majmularining arxitekturaviy yechimi, uning obyektlarini shaharsozlik nuqtai nazaridan to`g`ri joylashtirish yo`llarini takomillashtirish dolzarb hisoblanandi. O`zbekiston viloyat markazlarida Aglomeratsiya savdo majmularini asosiy yo`llarda joylashtirilishini hisobga oladigan bo`lsak, viloyatlararo o`zaro aloqlarda uning naqadar muhimligi yuzaga chiqadi.

O`zbekiston viloyatlarda Aglomeratsiya savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularining shakllanishida ijtimoiy - iqtisodiy va shaharsozlik omillarining ta`siri:

Savdo majmularini shakllantirishdagi ijtimoiy-iqtisodiy va shaharsozlik omillari qo`yidagicha turlarga bo`linadi:

- viloyat va shahar aholisi sonining o`sishi;
- aholi punktlari aloqalarining rivojlanishi;
- transport tizimining rivojlanishi;
- savdo-maishiy xizmat ko`rsatish korxonalarining rivojlanishi;
- shaharsozlik tizimlarining o`zgarishi.

Tabiiy-iqlimi omillarga qo`yidagilar:

- hudud landshafti;
- iqlimi sharoitlar;
- shamol esish sharoitlar;
- havo namligi sharoitlar.

Savdo texnologik omillar qo`yidagicha:

- savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualarning turlari;
- savdo tizimidagi korxonalarni zamonaviy takomillashtirish;
- savdo tizimi omillarini markazlashtirish.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillarga:

- aholining o`sishi;
- aholi talablarining oshishi;
- aholi daromadlarining o`sishi;
- savdo-maishiy xizmat ko`rsatish korxonalarining rivojlanishi.

Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmua binolarini shakllantiruvchi omillar:

Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish binolari va inshootlari arxitekturasi ijtimoiy-iqtisodiy, shaharsozlik, ekologik, funksional, hajmli-rejaviy, kompozision-badiy omillarning o`zoro va birgalikda ta`siri ostida shakllanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy o`zgarishlar savdo-maishiy xizmat ko`rsatish binolarini me`moriy loyihalanishiga qanchalik tez ta`sir qilishini tarix yaqqol namoyish qilib bergen. Bu davr savdo majmularining u yoki bu turiga

bo`lgan ehtiyojni, shuningdek har bir tur ichidagi tarixiy davr va iqtisodiy tuzulma uchun mos bo`lgan aniq xususiyatlarni belgilab beradi.

Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish binolarini loyihalashtirishga yondashish natijasida shakllanib ulgurgan viloyat shahar markazlarini qabul qila olishi mumkin bo`lgan miqdorda ko`proq dominantalar yaratilishiga olib keladi [23, 28]. Shaharsozlik boshqaruvida ahamiyatli mavqyega ega yirik savdo majmular qurishga bo`lgan talab va buyurtmalar hajmi kun sayin ortib borishi kuzatiladi.

Shaharsozlik nuqtai nazarida ko`rib chiqilsa bu holat ikki tendensiya sifatida aks ettiriladi:

- funksiya kooperatsiyasi va ixtisoslashuvi viloyat shaharlar markazida savdo majmuasi joylashgan ko`p qavatli kompleks bo`lishini talab qiladi;

- funksiyaning qismlari ajratilishi shahar markazidan uzoqda joylashgan kam qavatli savdo majmular binolari qurishni taqozo qiladi.

Shu joizdan Qashqadaryo, Jizzax, va Xorazm viloyatlari uchun davlat ahamiyatidagi yo`llarda Aglomeratsiya savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmuasi taklif va tavsiyalari berildi.

Bu kabi yondoshuvilar viloyatlardagi mintaqaviy iqlim sharoitlari, qurilishning mahalliy xususiyatlari, uzoq muddatga xizmat qiladigan savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini ko`lamini kengaytirilishiga asoslanadi [23].

Shunday qilib, yangi zamonaviy savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualarni mintaqalarda sifatlari rivojanishi zarur. Ekologik qurish, birinchi navbatda, mintaqaviy farqlashlarga ega va ularni hisobga olgan holdagina savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini yaratish mumkin.

Ayniqsa Qarshi, Urganch, va Jizzax viloyat shaharlari aholi punktlaridagi istiqomat hududlarining rejali tuzilmasini savdo markazlari, imoratlari, ko`cha-yo`l tarmog`i, umumiy foydalanishdagi ko`kalamzorlashtirilgan hududlarning o`zaro bog`lanishini va, shu bilan birga, umuman, aholi punktining maydoni va hududining tabiiy sharoitlariga bog`liq bo`lgan rejali tuzilmasini inobatga olgan holda savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini loyihalashtirish lozim.

Biz ko`rib chiqayotgan viloyat va shaharlarda o`z zonalari, dam olish zonalari, kundalik ehtiyojlar uchun savdo-maishiy xizmat ko`rsatish markazlari, shuningdek shahar yaqinida, magistral yo`llar bilan joylashtirilishi mumkin bo`lgan savdo markazlar mavjud bo`lgan tizimini shakllantirish lozim.

Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini rejalashtirilishiga bog`liq ravishda, viloyat shahar yadrosini tashkil etuvchi o`zaro bog`langan (bosh ko`chalar, maydonlar, piyoda zonalari) va imkoniyati cheklanganlar uchun tizimlarini tashkil etish lozim.

Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish tizimini shakllantirishning shaharsozlik konsepsiysi ishlab chiqilgan bo`lib, unga muvofiq har bir shaharsozlik tuzilmasi uchun muayyan xizmat ko`rsatish bosqichi mos kelishi kerak:

- shaharga - epizodik xizmat ko`rsatish,
- turar-joy tumaniga-davriy xizmat ko`rsatish,
- mikrotumanga - kundalik xizmat ko`rsatish [23, 87].

Bu holat shahar aholi punktlarining boshqa aholi punktlari bilan aloqasi, ish joylarining tarqalishi, mehnatning mavsumiyligi va ayrim turdag'i shahar aholi punktlarida yashovchi aholining mavsumiy ish bilan ta'minlanganligi kabi xususiyatlari bilan bog`liq.

Shu munosabat bilan Aglomeratsiya savdo va maishiy xizmat ko`rsatish markazlarining tashkillashtirish aholi punktlarining shakllanishi va tarkibi, shahar hududlarini kengayishi va aholi punktlari tizimlarining bir qismi sifatida aholi punktlariaro xizmat ko`rsatish markazlari tarkibidagi o'rni va roliga bog`liq.

Aholi punktlaridagi savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari tizimining ichki tashkil etilishi har bir aholi punktining mustaqil funksional ahamiyatini va alohida aholi punktlarining bir-biri bilan va shaharlarda joylashgan savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari bilan bog`lanishini o`z ichiga oladi. Shaharlararo savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari tizimini, shuningdek, har bir aholi punkti turar-joylararo tizim tarkibidagi o'rni va rolini belgilashda aholi punktlari o'rtasidagi madaniy-maishiy aloqalar murakkab ekanligini hisobga olish kerak.

Aglomeratsiya savdo va maishiy xizmat ko`rsatish majmularining shakllanishiga quyidagilar ta'sir qiladi:

- joylashuv-joyning tabiat;
- hududdan foydalamanish xususiyatlari va uning ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish darajasi;
- transport tarmog`ining zichligi va transport vositalarining tabiat [1, 22].

Shu munosabat bilan viloyat aholisiga savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualarini tashkil etish va shahar aholi punktlari markazlarini shakllantirishdagi asosiy fundamental farqlarni birinchi navbatda mintaqaviy farqlarga mos ravishda kuzatish mumkin:

Aholi punktlariaro savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari tizimida aholi punktlari tipologiyasini va ularning elementlarini yig`indisini belgilaydigan o`xshash sharoitlarga ega bo`lgan hududlarni aniqlashning asosiy farqlovchi belgilari quyidagilardan iborat:

- yuqori darajadagi markazlarning transportdan foydalanish imkoniyati (transport mavjudligi daqiqalarida);
- hududning urbanizatsiya darajasi (shahar aholi punktlari tarmog`ining zichligi, shahar aholisining zichligi);
- shahar aholi punktlari tarmog`ining tuzilishi (aholi punktlari tarmog`ining funksional turlari, o`lchamlari, zichligi);
- qishloq aholi punktlarining o`zaro bog`liqlik darajasi (funksional aloqa, yo`l tarmog`ini rivojlanish);
- hududning xalq xo`jaligiga ixtisoslashuvi va uning ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish darajasi;
- tabiiy-iqlimiylar hisobga olish.

O`rganilayotgan viloyatlarda aholi punktlari asosan uchta past darajadagi markaz sifatida ishlaydi [8, 36, 55]. Ushbu turdagি tumanlar ichidagi mahalliy farqlar hududlardan foydalanishning funksional xususiyatlariga va aholi punktlari tarmog`ining rivojlanishiga qarab markazlar turli xil qurilishi tufayli yuzaga keladi (konchilik zonalarida, rivojlangan sanoat aholi punktlari tarmog`i, rekreasjon hududlar va boshqalar).

Xizmat ko`rsatish muassasalarining standart darajasiga erishilgan hududlarda shahar aholi punktlari markazlarini shakllantirishda aholi punktlariaro xizmat ko`rsatish markazlarini oqilona tashkil etish va mavjud jamoat binolari fondining muhim qismini almashtirish asosiy vazifalar hisoblanadi [95].

Shaharsozlik omillari va undagi transport tarmoqlarinining rivojlanganligi (joylashuvi) Aglomeratsiya savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualariga keluvchilarining soniga ta`sir ko`rsatib, aholini xaridorlik imkoniyatlari asosida savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari joylashuvini to`g`ri tanlanishi maqsadga muvofiqdir.

Bunday savdo - maishiy xizmat ko`rsatish majmualariga bo`lgan talab kundan kunga ortib bormoqda. Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualarining alohida-alohida joylashgan do`konlar va boshqa xizmat ko`rsatish obyektlariga nisbatan aholi uchun bir qancha qulayliklar ta`minlashi aniqlandi:

- xaridor bir joyning o`zida kam kuch va vaqt sarflab, kerakli xaridlar qilish imkonи mavjud;

- umumiy ovqatlanish savdo-maishiy xizmat ko`rsatishdan foydalanish imkoniga ega;

- butun bir oila yoki guruh a`zolari bo`sh vaqtlarini, bir joyda, barcha qulaylik va keng imkoniyatdan foydalangan holda dam olishlariga qo`shib savdo qilishlari mumkin.

Quyidagini ta`kidlash joizki, viloyatlar markazlari bo`lgan yirik shaharlarda aglomeratsiya savdo-maishiy xizmati ko`rsatish tizimi umuman tashkil qilinmagan. Aglomeratsiya savdo-maishiy xizmati ko`rsatish tizimi mavjud transport yo`llari bilan bog`liq holda tashkil qilinadi, natijada jamoat transportidan foydalanish samarali bo`ladi.

O`rganilayotgan viloyatlardan Qashqadaryo, Xorazm va Jizzax shahar markazlarida aholining talablarini oshishi bilan savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini tashkil etish alohida korxonalarining kontsentsratsiyasiga asoslanmagani va yagona me`moriy rejalashtirish tuzilishiga ega bo`lmaganligi ko`zga tashlanadi. Bu shuni anglatadiki, shahar tuzilishi nafaqat savdo-maishiy xizmat ko`rsatish obyektlari joylashgan shahar hududining, balki yagona funksional obyektlar majmuasi bo`lgan shahar hududining zonasini hisoblanadi.

Mayjud savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularining yirik shaharlarda savdo va maishiy xizmat ko`rsatish tizimi vertikal tuzilish tamoyiliga asoslanadi. Tizimning bunday holati har doim ham maqsadlarning to`laqonligini ta`minlamaydi, shuningdek shahar aholisi va tashrif buyuruvchilar miqdori hisobga olinmaydi.

Shuni ta`kidlash kerakki, mavjud sharoitlarda shahar markazlari yuqori funksional rivojlanishiga erishadilar va shuning uchun tortishish zonasini va chetki zonalardan kelganlar ehtiyojlarini to`liq qondirish imkoniyatiga ega emaslar (yuqori sifatlari darajasini ta`minlamaydilar) [105].

Kichik funksional salohiyati tufayli shaharlarning o`rta hududida va chetroq hududlarida joylashgan savdo va maishiy xizmat ko`rsatish majmualari tashqi transport kommunikasiyalaridan uzoqda joylashgan va shahar markazi bilan (olis) bog`lanish imkoniyati cheklangan.

Hozirgi sharoitda shaharsozlik tizimining o`zgarish omillari yirik shahar aholisining rejalashtirish tizimlarini hisobga olgan holda savdo-maishiy xizmat ko`rsatish tizimini takomillashtirish, davriy va epizodik xizmatlarni taqdim etadigan shaharda joylashgan savdo markazlarini tashkil qilish muhimdir [21]. Shahar savdo markazlarini shahar aholisi harakatining asosiy transport markazlari yaqinida joylashtirishni hisobga olgan holda tashkillashtirish talab etiladi.

Ularni joylashtirishning asosiy talabi - transportning qulayligini ta`minlashdan iborat. Shuning uchun shaharni loyihalashda savdo-maishiy

xizmat ko`rsatish korxonalari – katta do`konlar, ixtisoslashtirilgan do`konlar, ovqatlanish muassasalari quyidagicha joylashtirish talab qilinadi:

- savdo - maishiy xizmat ko`rsatish korxonalari;
- uy sharoitida xizmat ko`rsatish korxonalari;
- mamlakat aholisining eng katta konsentrasiyasi va shaharga avtomobil yo`llari tizimi, shahar va tashqi transportning katta tugunlari [14, 35, 96] bilan birgalikda joylashtiriladi.

Aglomeratsiya savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularining mijozlari uchun, nafaqat xizmat ko`rsatishning to`laligi va vaqt sarfini tejash mumkinligi balki, ilg`or xizmat ko`rsatish shaklini keng qo`llash, zamonaviy mexanizasiya vositalarini ishlatalish va rasional jihozlash natijasida xizmat ko`rsatish sifatini keskin oshirish imkonini ochib beradi [72].

Shaharning asosiy ta`sir zonasidan aholi kelishini, shuningdek, ular uchun davriy va epizodik xizmatlarning tashkil etish ham muhim masala hisoblanadi. Shahar markazidagi kunlik aholining yuqori konsentrasiyasi, davriy va epizodik muassasalarining belgilangan tizimini yaxshilash, shahar o`rta zonasida va tashqi transport vositalari bilan bog`liq chetdagi zonalarda savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari tashkil etish dolzarbdir [76].

Tarixning guvohligi shuni ko`rsatadiki, urbanizatsiyaning rivojlanish jarayonida bo`ladigan ijtimoiy-iqtisodiy va shaharsozlik o`zgarishlar o`sha davr imoratlarning arxitekturaviy yechimi va loyihalariiga keskin o`zgartirishlar kiritib boradi. Vaqtning o`tishi jamoat binolarining biron bir turi uchun hamda ushbu tarixiy davr taqozosni bilan iqtisodiy jarayon uchun xarakterli bo`lgan aniq xususiyatlarga oid talablar qo`yadi.

Shaharsozlik omili asosida savdo-maishiy xizmat ko`rsatish markazlarini aglomeratsiya strukturasining muhim nuqtasida joylashishini talab qiladi [45].

Shahar hududi asosan, funksional foydalanishni e`tiborga olgan holda seliteb, ishlab chiqarish va landshaft-rekreasion qismlarga ajratiladi. Seliteb hududda turar-joy fondi, jamoat bino va inshootlari joylashtiriladi. Jamoat binolarining soni, tarkibi va joylashtirishni shahar kattaligiga, hudud funksional-rejaviy tashkillashtirilishiga va uning aholini joylashtirish sistemasidagi roliga qarab qabul qilish maqsadga muvofiqdir [87].

Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari uchun tanlangan maydon, unga kirish va chiqish joylarning qulayligi hamda jamoat va individual transport tugunini yechish uchun to`xtash joyi bilan ta`minlashi nuqtai nazaridan tanlanadi [62].

Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualarini tashkillashtirilishiga va rejalashtirilishga bog`liq ravishda o`zining o`lchamlari bilan

aglomeratsiya markazining yadrosini tashkil etuvchi o`zaro bog`langan jamoat fazosi (shoh ko`chalar, maydonlar, piyoda yurishiga mo`ljallangan zonalar)ning sistemasini rivojlanishiga bog`liq bo`lib qoladi. Bugungi kunda, savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularining turlari orasidagi aniq chegaralar yo`qolib, asosiy ta`sir etuvchi omillarga bog`langan holda o`zaro kirishgan yoki qo`shilgan, tarqoq holdagi ko`rinishlarda shakllanganligi aniqlangan [1, 29, 49].

Arxitektura va shaharsozlikda menejment usul va uslublarining kirib kelishi natijasida shahar rivojlanish ehtiyojlari qarama-qarshi kelish holatlari ham uchrab turishi mumkin ekanligi, bu masalaga alohida e`tibor qaratish zarurligini ta`kidlamoqda [29]. Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari (markazlari) savdo va maishiy xizmat ko`rsatish zanjirida muhim rol o`ynab, savdo, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmat ko`rsatish faoliyatlarini birlashtiradi va aholi uchun zarur bo`lgan mahsulot (buyum) va turlicha xizmatlarning keng tanlovini yaratadi.

Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari (markazlarining) mijozlari uchun, nafaqat xizmat ko`rsatishning to`laligi va vaqt sarfini tejash mumkinligi, balki ilg`or xizmat ko`rsatish shaklini keng qo'llash, zamonaviy shaharsozlik, mexanizasiya va texnik vositalarni ishlatish va rasional jihozlash natijasida xizmat ko`rsatish sifatini keskin oshirish imkonini ochib beradi. Korxonalarning yiriklashtirilishi, kooperasiyalashtirilishi va savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari (markazlarning) bino va uning xonalaridan ko`p maqsadli faoliyat uchun ishlatilishi, qurilishga va ularni ekspluatasiyasiga sarflanadigan harajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi. Natijada, shaharsozlik va arxitekturaviy-rejaviy (badiiy) masalalarni yechish uchun keng imkoniyatlar tug`diradi hamda shahar qurilishida arxitekturaviy-kompozision jihatlar oson yechiladi [108].

Bugungi kunda, savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari (markazlari) uchun aniq bir ta`rif va to`xtam berilmaganligining asosiy sababi, uning ixtiyorida qanday funksiyalar bajarilishi va kompleks xizmatlar to`plami qanday ko`rinishda, hamda bog`lanishda bo`lishi kerakligini aniqlash juda murakkab bo`lib qolmoqda. Shunga qaramay, savdo-maishiy xizmat ko`rsatish markazlari katta shuhrat qozonib dunyo amaliyotida keng ommalashmoqda .

Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari (markazining) mohiyatini ochish uchun, bu so`z birikmasini ikkiga bo`lib, ya`ni savdo (majmua) markazlarini alohida o`rganish maqsadga muvofiq.

Savdo maishiy xizmat ko`rsatish majmualari - umumiy qabul qilingan ma`noda turli xildagi mahsulot va buyumlarni xarid qilish mumkin bo`lgan joy deb qaralmoqda.

Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari (markazlari) kecha-kunduz ishlashi zarur. Bunda, asosiy va turli xildagi xizmatlarni taqdim qilinishi va ularga qo`yiladigan talablar ham turlicha bo`lganligi sababli madaniy va savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini (markazlarini) bir qatorga qo`yib bo`lmaydi [29, 62].

Ko`p soha mutaxassislarining birligida qilgan xulosalari natijalariga e`tibor bersak, xarid qilish bilan dam olishni birligida olib borilgan hollarda, tashrif buyuruvchilar xaridlaridan ko`proq xursand bo`lishib, charchashmaydi va savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmuasida (markazida) xarid mablag`idan tashqari, ortiqcha (o`z) mablag`larini shu maskanda qoldirib ketishadi. Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularining ommabopligi va mashhurligi ham shunda.

Shu sabab, bozorning bu segmenti tez rivojlanmoqda. Birinchi savdo markazlarining paydo bo`lishi, endigina ellik yil to`lgan bo`lsa ham, investisiyalar miqdori yildan-yilga oshib bormoqda [29, 62].

Albatta, o`rganilayotgan viloyatlarda savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari foyda keltirishi va kiritilgan sarf-harajatlar o`zini oqlashi uchun bunday inshootlarni chuqur o`ylangan konsepsiya asosida loyihalash shart. Konsepsiya - iste`molchilar bozori tahlili asosida xaridorlarni jalb qilish usullari, savdo-maishiy majmua markazlarini bo`lim-bo`lmalarda foydali maydonlarning joylashuvni hamda uzvyi bog`liqligiga qo`shib, savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmulariga beriladigan sayqal, uning bezalishi va jihozlanishi kabi ko`pgina omillarni qamrab oladi [29,61,62].

Bunday ommabop Aglomeratsiya savdo-maishiy xizmat ko`rsatish maskanlarga bo`lgan talab, kundan kunga, ortib bormoqda.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari uchun aniq bir ta`rif va to`xtam berilmaganligining asosiy sababi, uning ixtiyororida qanday shaharsozlik funksiyalar bajarilishi va kompleks xizmatlar to`plami qanday ko`rinishda hamda bog`lanishda bo`lishi kerakligini aniqlash juda murakkab bo`lib qolmoqda.

## **1.2. Savdo va maishiy xizmat ko`rsatish majmularining tarixiy shakllanishi**

O`zbekiston viloyat markazlarida savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari arxitekturasining shakllanishidagi tarixiy an`analarini tadqiq qilish va aniqlash asosida ulardan zamonaviy me`morchilikda foydalananish bo`yicha takliflar ishlab chiqish muximdir.

O`zbekiston tarixiy shaharlarda qurilib bizgacha saqlangan va saqlanmagan an`naviy bozorlar va savdo inshootlari (timlar, toqlar, chorsular va rastalar) hamda ular asosida qurilgan zamonaviy savdo va maishiy xizmat bino va inshootlari majmualari quylgan masalalarning xal qilinishida muxim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti esa ushbu binolar va inshootlarning tipologiyasi va arxitekturasini o`rganish va shu asosda savdo va maishiy xizmat obyektlari majmualarini shakllantirishning samarali yo`llarini aniqlashdan iboratdir.

Sharq bozorlarining shakllanish ibtidosi, aftidan juda qadimgi zamonlardan boshlangan. Qadimgi “Avesto” kitobida “Chavrusuk” so`zi keltirilib, u mutaxassislarning fikricha, to`rt tomonli bozor, ya`ni hozirgi chorraha bozori yoki chorsu ma`nolarini anglatgan. Bunda esa chorsuning dastlab savdo inshooti emas, balki chorrahada joylashgan bozor bo`lganligini va keyinchalik ushbu bozorda qurilgan binoga chorsu nomi o`tganligini anglash mumkin [53, 54]. Chorsu so`zidagi “su” qo`shimchasi esa qadimgi sug`dlarning “suk” so`zidan kelib chiqib bozor degan ma`noni bildirgan.

Milodgacha VII-V asrlarda Turonning iqtisodiy taraqqiyoti yuqori darajaga erishildi. Hiyla keng quloch yozgan sug`orish tartibiga asoslangan dehqonchilik rivojlanadi, birinchi yirik shaharlar (Afrosiyob, Yerqurg`on va Uzunqir) paydo bo`ladi [37].

Hunarmandchilik taraqqiy etadi. Ahmoniyalar hukmronligining o`rnatalishi bu yerda qulchilik munosabatlарining taraqqiyotini jadallashtiradi. Bu munosabatlар Iskandar Zulqarnayn va selevkidlar davrida yanada keng tarqaldi. (Iskandar Zulqarnayn Nuh payg`ambar avlodidan bo`lgani uchun adolat va haqiqat o`rnatgan donishmand fotih sifatida Sharq-musulmon adabiyotida ijobji siymo sifatida ko`rsatiladi) [77]. Boshqa yozma manbalar va me` moriy yodgorliklar ham O`rta Osiyoda bozorlarning islom davrigacha shakllanganligidan dalolat beradi.

Jumladan, Qadimgi Panjikent shahrida o`tkazilgan qazishmalarda VII asr oxiri va VIII asrning boshida qurilgan ikkita bozor majmuasining xarobalari topilgan. Ulardan biri aynan shahar chorrahaside joylashgan bo`lib, bir nechta kichik savdo va hunarmandchilik xonalaridan tuzilgan. Ikkinci bozor esa shahar bosh ko`chalaridan biriga tutashib, bu yerdagi maydon atrofida joylashgan savdo do`konlari va hunarmandchilik ustaxonalaridan shakllangan.

Qadimgi Panjikentda ushbu bozorlardan tashqari shahar ko`chalarini bo`ylab joylashgan rastalar ko`rinishidagi savdo do`konlari ham bo`lgan. Xom g`ishtdan qurilgan bu savdo imoratlari ko`pincha jamoat va turarjoy binolariiga tutashgan bir qavatli va bir xonali do`konlarni tashkil qilgan.

Panjikentda ikki xonalik savdo yacheykalari ham qurilib, ularning devorlari yupqa, tomlari esa tekis ishlangan [39, 54].

Ilk o`rta asr shaharlarida bozorlar, asosan, shahriston ichidagi chorrahaldarda, ark-qal`alar darvozalar oldidagi maydonlarda va ko`chalarda joylashib, bu davrda hali alohida qurilgan mahobatli savdo inshootlari shakllanmagan. Ushbu davr savdo inshootlarining turlariga ko`chalar bo`ylab joylashgan savdo rastalari, do`konlar va hunarmandchilik ustoxonalari kirgan xolos.

X-XI asrlardan boshlab esa O`rta Osiyodagi bozorlar ijtimoiy-siyosiy sharoitlarning yaxshilanishi bilan shaharlarning asosiy savdo jamaa markazlariga aylana boradi. IX-X asrlarda O`rta Osiyoda shahar madaniyati, hunarmandchilik va iqtisodiyot gullab-yashnaydi. Bu davrda nafaqat mahallalar, balki shaharlar ham turli xil hunarmandchilik mollarini ishlab chiqarish va savdo markazlariga aylana boradi [51].

Bu esa shaharlarning hududiy kengayishiga, ya`ni shahriston devorlari ortida joylashgan “rabot” deb ataluvchi alohida hudud-shahar hunarmandchilik savdo qismining shakllanishiga sabab bo`ladi. Rabotda asosan hunar ahli, ayniqsa, olov bilan ishlovchilar va boy savdogarlar yashashgan. Hunarmandlar, asosan, o`zlarining uy-ustaxonalarida ishlashib, shaharlardagi hunarmandchilik uyushmalariga birlashgan va guzarlar hamda rabot bozorlarida savdo qilishgan [39].

Ana shunday bozorlardan biri XI asr Samarcand Sug`d bozori bo`lib, u Afrosiyob shaharchasidan janub tomondagi rabotda, hozirgi Registondan taxminan Siyob bozorigacha bo`lgan hududda joylashgan<sup>35</sup>. Bozordagi markaziy o`rinni usti yopiq maxsus bozor inshooti Chorsu egallab, unda rabot darvozalaridan o`tuvchi ko`chalar kelib tutashgan. Ushbu chorsu bilan Afrosiyobning Kesh darvozasi orasida savdo ko`chasi joylashib, u o`sha Samarcand Sug`d bozoriga to`g`ri kelgan. Chorsudan boshlanuvchi ko`chalarda va yerdagi kichik maydonchalarda ixtisoslashgan savdo rastalari, hunarmandlar do`konlari va karvonsaroylar joylashgan.

Savdo ko`chasi bo`ylab joylashgan rastalar qatori “ras-at-toq” deb atalgan. Bu nomdagagi “toq” so`zidan anglashiladiki, ushbu rastalar qatorining usti gumbazlar bilan yopilgan [109].

Chorsular, rastalar, toqlar va timlar; “Chorsu” gumbazlari bilan yopilgan savdo inshootlari tarzida adabiyotlardan bizga XI asrdan ma`lum. Chunonchi, tarixchi at-Tartusiyning ma`lum qilinishicha, O`rta Osiyoning ba`zi ilk o`rta asr shaharlarida chorsudan tashqari “tim” deb ataluvchi savdo inshootlari ham bo`lgan. Jumladan, shunday timlar Buxoro, Ispijob, Ushturkat, Chog`oniyon, Amul va boshqa shaharlarda qurilgan [39, 51].

“Tim” so`zi dastlab “bozordagi rastalar ustida qurilgan tom” ma`nosini anglatib, keyinchalik istalgan me`moriy berk, ya`ni usti va atrofi yopiq savdo binosiga, alohida qurilgan bozor inshooti, ixtisoslashgan usti berk savdo hunarmandchilik ko`chasi va usti yopiq savdo rastalariga nisbatan ham birday qo`llangan. Tarixchi al-Muqaddasiy “tim” so`zini hatto ko`tara savdo va xorijiy savdogorlarga mo`ljallangan karvonsaroylarga nisbatan ham ishlatgan. Qisqasi, ilk o`rta asrlarda savdo bilan bog`liq istalgan usti yopiq bino, ko`cha yoki inshootning “tim” deb atalishi mumkin bo`lgan [23, 77].

Ta`kidlash zarurki, tim binosining nafaqat usti, balki atroflari ham yopiq bo`lgan. Bunday savdo binolarida yozning jazirama issig`ida, qishu kuzning sovug`i, qor-yomg`irlarda ham bemalol himoyalangan holda savdo qilish mumkin bo`lgan.

XI asrga kelib O`rta Osiyoda savdo va tovar pul munosbatlari kredit veksel (chek) ko`rinishiga o`ta boshlaydi. Bu, o`z navbatida, bozorlarda kreditlashgan yangi moliyaviy xizmat turi pul almashtiruvchilar, ya`ni sarroflar tashkilotini shakllantiradi. Buxorodagi “Toqi Sarrofon” binosi aynan shu maqsadda qurilgan maxsus bozor inshootidir.

Ma`lumki, XIV asr oxiri va XV asr O`rta Osiyo fuqaro me`morchilik tarixiga, shu jumladan, bozorlar, savdo inshootlari va hunarmandchilik ustaxonalarining qurilish tarixiga yorqin harflar bilan yoziladi. Bu davr Amir Temur va temuriylar hukumronligiga to`g`ri kelib, unda Buyuk Ipak yo`lining asosiy harakatlantiruvchi kuchlari va katta qismining egalari turonliklar hisoblangan. Samarqand esa bu davrda ushbu yo`Ining markaziy savdo va tranzit shahri bo`libgina qolmay, balki ilm-fan, san`at, madaniyat, me`morchilik va hunarmandchilikning ham yuksak darajada rivojlangan markaziga aylanadi [10, 39].

Samarqand ustalari va hunarmandlari ishlab chiqargan paxta gazlamalar, teridan tikilgan oyoq kiyimlari, ipakda tayyorlangan ustiboshlar, misdan yasalgan idish tavoqlar, otning egar-jabduqlari, chodir va o`tovlar, ajoyib va nafis qog`ozlar butun Sharqu-G`arbda mashhur edi. Shaharga savdo-sotiqni rivojlantirish uchun bozorlar, rastalar, timlar, karvon saroylar, sarroflar, do`konlar, hunarmandchilik ustaxonalari kerak edi. Amir Temur davrida dastlab hozirgi Registon maydonida qator ochiq savdo rastalaridan tashqari bosh kiyimlarini sotishga mo`ljallangan maxsus savdo “Timi kulox furushon” (Bosh kiyim sotuvchilar timi) bunyod etildi. Bu davrda Samarqand bozorlari shunchalik serob ediki, turli tuman mollarni issiq iqlim sharoitida sotish uchun savdogarlar va xaridorlarga qulay bo`lgan usti yopiq katta bozor qurishga zaruriyat tug`iladi. Shu sababli Temur butun shaharni Registondagi Tim orqali kesib o`tadigan usti yopiq, savdo ko`chasini qurishga farmoyish beradi [53].

1936–1939 yillarda Samarqandda tadqiqot olib borgan olim Sh.Ye. Ratiyaning ma`lumotiga ko`ra, ushbu savdo ko`chasi Amir Temurning jome masjidi (hozirgi Bibixonim) va saqlanmagan Saroy Mulkxonim madrasasasi binolari orasidagi maydonning janubiy qismida joylashgan timdan boshlanib, to Registon maydonigacha yetkazilgan. Boshqa ma`lumotlarga ko`ra, ushbu savdo ko`chasi shaharning janubiy-g`arbiy darvozalaridan biri “Chorsu”gacha davom ettirilgan. Shuni ta`kidlash kerakki, butunlay usti yopiq va keng savdo ko`chasi Temur davriga qadar nafaqat Samarqanda, balki butun Mavarounnaxr va Xurosonda ham yo`q edi [78, 79].

Shu bois bunday usti yopiq bozor ko`chasin o`sha davr O`rta Osiyo me`morchilik va shaharsozlik san`atining chinakam yangiliklaridan biri deb qarash mumkin edi. Ana shunday usti yopiq bozor ko`chalari keyinchalik Xirot, Isfaxon, Urgench, Xiva, Buxoro va O`shda ham bunyod etiladi. Ispan elchisi Klavixoning xabar berishicha, Amir Temur davrida Samarqanda nafaqat kunduz, balki kechalari ham savdo qiladigan bozorlar mavjud bo`lgan [4, 39, 53].

Asosiy ko`chalar kesishgan joylarda chorrahadagi shahar bozorlaridan tashqari mahallalar markazlarida guzar bozorlari ham ishlab turgan. Bunday bozorlar, odatda bir necha rastalar, ustaxonalar yoki do`konlardan iborat bo`lgan. Bozorlar nafaqat shahriston ichida, balki unga yondoshgan rabodlar hududida ham ko`p bo`lgan .

Rabod bozorlari asosan shahristonga kiriladigan darvozalar va ko`chalar atrofida hamda rabod chorrahalarida joylashgan. Shaharlardagi bunday bozorlar tizimidan tashqari, Buyuk Ipak yo`li bo`ylab shaharlararo “yarmarka” bozorlari ham tashkil yetilgan. Bunday bozorlar, odatda, karvon yo`llarida, ular to`xtaydigan rabotlar va karvonsaroylar yonida shakllangan.

Mashxur musulmon sayyohi ibn Batutaning dalolat berishicha, XIV asrning birinchi yarmida Xorazmning poytaxti Urganch yirik iqtisodiy va madaniy markaz edi. Ayniqsa, u Xorazmning bozorlarini diqqat bilan kuzatadi. «Tig`izlik shu darajada ediki, oqibatda, men na orqaga, na oldinga surila olardim», -deb yozadi.

Yozda Jayxunda ko`plab kema qatnovi bo`ladi. Ular Termizdan arpa va so`li olib keladi. Sayyoh mashhur Xorazm qovunlarining mazasini maroq bilan tasvirlaydi. Qovun qoqini tayyorlash usulini ham ko`rsatib o`tadi. «Buxoro va undan keyin Isfaxon qovunlarini hisobga olmaganda, jahonning na Sharqida, na G`arbida Xorazmnikidek qovunlar yo`q. Qiziq, uni tilim-tilim qilib kesib, quyoshda quritadilar, keyin xaltalarga solib Xorazmdan Hindiston va Xitoyning uzoq shaharlariga olib ketadilar» [14].

XVI-XVII asrlarda O`rta Osiyo bozorlarida qurilgan savdo inshootlari toq, tim, chorsu, yopiq savdo ko`chalari va karvon-saroylar o`zlarining mahobatli me`moriy yechimlari bilan ilk o`rta asrlar davridagi bozorlar va savdo hunarmandchilik imoratlaridan keskin farq qilgan [53, 54].

Jumladan, XVII asrda Buxoro shahrining asosiy chorrahalarida Toqi Ordfurushon, Toqi Zargaron, Toqi Telpakfurushon, Toqi Sarrafon qurilgan. Toqi shaklida ko`p gumbazli beshta usti yopiq savdo inshootlari bunyod etiladi. Bulardan birinchisi va oxirgisi bizgacha saqlanmagan, qolganlari esa bugungi kunda ham foydalanib kelinmoqda. “Toq” so`zi bu yerda ham gumbaz ma`nosini anglatadi.

O`rta Osiyo tarixiy shaharlarida bozorlar va savdo inshootlarining shakllanish evolyusiyasi. A.S. Uralov ishlab chiqqan model:

Toqlar asosiy savdo zali-miyonsaroy, qator savdo rastalari va hunarmandchilik ustaxonalaridan iborat bo`lib, ular usti yopiq bozorlar tarzida shaharlar markazi, chorraha va chorsularda bunyod yetilgan. Toqi Zargaronning tarhi kvadrat shaklida bo`lib, uning ustini yopuvchi ulkan gumbaz o`rtada 8 ta arka ustiga o`rnatilgan. Ko`p qirrali gardishdagi 46 ta darchadan imorat ichiga yorug`lik tushib turadi. Dastlab bino ichida 30 dan ortiq zargarlik do`konlari va ustaxonalari joylashgan [39, 53].

Toqi Telpakfurushon tarhda olti qirrali bo`lib, binoning bosh markaziy gumbazi “miyonsaroy” ustida o`rnatilgan. Atrofdagi kichik do`konlar esa gumbazchalar bilan yopilgan. Toq ichida bosh kiyimdan tashqari kitob sotuvchilar va muqovasoz ustalarning do`koni bo`lgan. Shu bois ushbu bino ilgarilari “Toqi Kitobfurushon” deb ham nomlangan.

Toqi Zargaronga ulangan savdo ko`chasi bo`ylab unga yaqin joyda Abdullaxon timi qurilgan bo`lib, uning ham me`moriy yechimlari fazoviy berk, o`ta mahobatli va tektonik hajmli ko`rinishida ishlangan. Ichida 55 ta savdo ravvoqi bo`lgan ushbu yopiq bozor-tim kamyob va qimmatbaho gazmollar savdosiga mo`ljallangan. Toq va tim binolarining shakllanishi shaharlarda savdo madaniyatining oshib borishi, kamyob va qimmatbaho mollarni chang va yoginlardan holi bo`lgan usti yopiq soyabon, doimiy kulay va ishchonchli savdo do`konlarida sotish ehtiyojlaridan kelib chiqqan. Bunday me`moriy berk, yopiq savdo inshootlarini qurishda mahalliy issiq va quruq iqlim sharoitlari hamda shaharlar bozorlarining shakllanish evolyusiyasi ham e`tiborga olingan (**1 bob 10-ilovada**).

Toq va tim binolarining shakllanishi shaharlarda savdo madaniyatining oshib borishi, kamyob va qimmatbaho mollarning chang va yog`inlaridan holi bo`lgan usti yopiq soyabon, doimiy kulay va ishchonchli savdo do`konlarida sotish ehtiyojlaridan kelib chiqqan. Bunday me`moriy

berk, yopiq savdo inshootlarini qurishda maxalliy issiq va quruq iqlim sharoitlari ham e'tiborga olingan [78].

Bozorlar nafaqat savdo, balki hunarmandchilik markazi ham bo`lgan. Toshkentning "Chorsu" bozori har xildagi mollar bilan savdo qiluvchi ochiq ko`rinishiga ega bo`lgan bozorgox maydonlar, ayvon va do`kon ko`rinishidagi hunarmandchilik rastalaridan iborat bo`lgan.

Eronning Tabriz shahrida shakllangan tarixiy bozorlar. Bosh bozorning reshethkasimon me`moriy to`qimasi (Sh.D. Asqarov bo`yicha). 1-ochiq maydonlar; 2-yarim ochiq maydonlar; 3-piq maydonlar; 4-masjidlar, madrasalar, maqbaralar.

Bozorlarning rivojlanishi shahrlar o'sishiga mos tarzda nuqta va chiziq konsepsiyasida o`z aksini topadi: markaz, ya`ni nuqta makonda va zamonda harakatlanib chiziqn, ya`ni bozorning chiziqli shaklini yaratgan [5]. Bu konsepsiya bozorlarning uchta ajralib chiqqan tiplari orqali quyidagicha belgilanadi: bozor nuqtasi-bu ochiq maydoncha, tugun yoki ixcham panjaraga, vaqt o`tishi bilan esa bu nuqta rivojlanib chiziqqa, ya`ni savdo ko`chasi yoki cho`zilgan bozor panjarasi-me`moriy to`qimasiga aylanadi.

Quyida biz tarixiy bozorlar va savdo inshootlarining shakllanish va rivojlanish evolyusiyasini XVI-XIX asrlardagi Isfaxon, Tabriz vaa Xaleb shaharlari tajribasida qarab chiqamiz (**1 bob 8-ilovada**).

Usti yopiq savdo ko`chasi shahar tuzilishida bozor nuqtaning o'rta hisobda 250 metrga ko`chishi orqali shakllanadi va bu, odatda, bozor gumbazlarining (Buxorodagi Toqi Zargaron va Toqi-Telpak furushon gumbazlarining orasidagi masofa ham shunday) yoki boshqa yirik savdo majmularining joylashgan o'rni bilan belgilanadi (Eronning Isfaxon, Tabriz va Koshon shahri bozorlari). Juda uzun bozor ko`chalari ham, har 200-250 metr narida joylashgan ko`chalar ham bozorlar funksiyasini bajaradi. Bundayin standart masofa doirasining bozor ko`chasidagi harakat maromi bosh ko`chaga yon tutashgan va boshi berk ko`chachalar orqali jamoat binolari hovlilariga ulanadi; yon tomonlar va gumbazlardan tushayotgan yorug`liklar, imoratlarning fasadlari, oraliq devorlari bozor uchun umumiy bir modul to`riga me`moriy to`qimaga aylanib ketadi [2].

XX asr boshlarida ushbu bozorda jami qirqga yaqin savdo maydonlari va rastalar bo`lgan. Gallabozor, Arabbozor, Gilambozor, Kiygizbozor, Ko`rpabozor, Tovukbozor, Kulolbozor, Mevabozor va Sabzavot kabi bozorcha maydonlari hamda Bazzozlik, Zargarlik, Sabzavot kabi bozorcha-maydonlar hamda Bazzozlik, Zargarlik, Kunchilik,

Sovungarlik, Etikdo`zlik, Misgarlik kabi rastalar shular jumlasiga kirgan [77].

Bozorlar aholi uchun xordiq chiqaradigan joy vazifasini ham bajargan. Maddox, masxaraboz, polvon, dorboz kabilari o`z san`atlarini asosan bozorlarda namoyish qilishgan. Bozor choyxonalarida xonandalar, sozandalar, shoirlar tuplanishib turishgan, askiyabozlar esa hazil mutoyiba qilishgan. Amazon oylarida bozor kechalari ham davom etgan. Bunday savdo bozorlar “bozori sha`b” deb atalgan.

Keyingi XVIII-XIX asrlar va XX asr boshlarida O`rta Osiyo shaharlarida qurilgan savdo bozor inshootlarining turlari, tizimi va arxitekturasida deyarli o`zgarishlar sezilmaydi. Bu davrda faqat karvon-saroy va tim hamda tim va darvozaxona binolarini yaxlit savdo majmualiga aylantirishdek ijobiy tajribalarni kuzatish mumkin. Xivadagi Olloqulixon karvon-saroyi va timi, Polvondarvoza timi va darvozasining kuriishi bunga misoldir.

Xivadagi Ollaqulixon karvonsaroyi va timining tashqi va ichki ko`rinishlar tektonik ko`rinishga ega [10, 14, 52].

Karvonsaroy va tim, tim va darvozaxonaning bunday yopiq bozor majmuasi ko`rinishida qurilishi Xivaning mahalliy issiq iqlim sharoitidan kelib chiqqan. Issiq va quruq, chang va to`zonli iqlim shaharning eng gavjum joyi hisoblangan bozorni aynan shunday, ya`ni hajmiy yopiq va berk, me`moriy yaxlit uslubda qo`rishini taqozo yetgan. Olloqulixon karvonsaroyiga tim orqali kiriladi [4, 53].

Timning uzunligi 74 metr, eni 26,5 metr bo`lib, u nafaqt yopiq savdo ko`chasi, balki Ichan qal`ani tashqi Dishon qal`a bilan bog`lovchi usti uch qator gumbazlar bilan yopilgan dalon hamdir. Uning o`rtasida katta gumbazli zal (Miyon saroy) bo`lib, undan karvon-saroya o`tiladi. Tim ichki va tashqi tomonidan peshtoq bilan tugallangan. Ushbu majmuuning ichi yozda doimo salqin, qishda esa iliq va yorug` muhitga ega.

Polvondarvoza Ichan qal`adagi bozor maydoniga o`tishdagi yopiq savdo ko`chasi (tim) bilan qo`shilib yagona me`moriy majmuani tashkil qilgan Xivadagi Polvondarvozaga tutash yopiq, savdo ko`chasingin arxitekturasi tektonik yechimiga ega. Majmua ichidagi savdo ravoqlari ko`cha betlari bo`ylab qator joylashgan. O`rtadagi dalon hamda chetki ravoqlar usti gumbazlar bilan yopilgan [10, 37].

Xiva ob havosi yozda shunchalik issiqki, hatto bundan ko`cha do`konlari, karvon-saroylar va madrasalarning tashqi devorlari yoki kursilari ichiga taxmon ko`rinishida ishlangan qator va chuqur o`yik ravoqlik yopiq savdo ayvonlari shaklini olgan.

O`rta Osiyoning issiq va quruq iqlimi sharoitidagi davomli yoz faslida havoning yuqori harorati va kuchli quyosh radiasiysi tufayli insonning soya va salqin muhitga bo`lgan ehtiyoji ortib boradi. Bu holat insonning kundalik turmush sharoitini va shahar ijtimoiy hayotini me` moriy tashkil qilishda ham sezilib turadi [78].

O`rta Osiyo iqlimi bilan bog`lik ushbu qonuniyat fuqaro me` morchiligi va shaharsozlik yechimlarida ham o`z aksini topgan.

Jumladan, u issiq iqlim sharoitida bozor muhitini soya salqin tashkil qilish va shunga mos tarzda savdo inshootlarini shakllantirishi taqozo yetgan. Samarqand va Shahrisabzda qurilib bizgacha saqlangan o`rta asr chorsulari, Buxoro va Xivadagi toq va timlar, Samarqandda Amir Temur davrida qurilgan bozor (yopiq savdo ko`chasi), Ko`xna Urgench, O`sh va Markazi Osiyoning boshqa tarixiy shaharlarida qurilgan yopiq bozorlar fikrimizning dalilidir [4, 59, 77].

Xususan yopiq savdo hunarmandlar ko`chagini tashkil qilgan O`sh bozorining uzunligi 800 metr bo`lib, usti yog`och ustunlar va to`sınlar ustiga tashlangan qamishlar bilan yopilgan. Ayrim savdo ko`chalari esa yogoch ustunlar va xarilar ustiga tortilgan qator buyralar yoki loy bostirmalari ko`rinishida bo`lgan. Umuman tashqi me` moriy hajmiy ko`rinishi berk, yopiq tarzda qurilgan bozorlarga dastlab chorsular, so`ngra tim va toqlar kirgan.

Buxoro va Xiva shaharlaridagi tarixiy bozor va savdo inshootlarining me` moriy yechimlari: a-Buxoro shahri XVII asr savdo inshootlarining joylashuvi; b-Buxorodagi Sarrofon toqi; v-Xivadagi Polvondarvoza timi;

Chorsu va timlarning tashqi ko`rinishiga tarhda o`rtada joylashgan katta gumbaz va uning atrofidagi mayda gumbazlar xos bo`lsa, timda savdo ko`chasi yoki bo`ylama o`qli muhitli kompozisiyani tashkil qiladi .

Amir Temurning Samarqandda, Shohruk Mirzoning Hirotda qurgan yopiq savdo ko`chalari, Buxoro, Toshkent, O`sh va Xiva shaharlarining bozorlari ana shunday yopiq muhitli Tim ko`rinishida qurilgan. Bu bozorlarda yozning issiq yoki kuzning yog`in kunlari ham bemalol savdo qilish imkoniyati bo`lgan.

Bozorlarda choyxonalar, karvon-saroylar, hunarmandlarning ustaxonalari, omborlari, hammomlar va masjidlar ham bo`lgan.

XVIII asrda Xo`jantda “Payshanba bozor” deb nomlangan yirik savdo hunarmandchilik markazi shakllanib, har haftaning payshanba kuni bu yerda katta savdo bozor bo`lgan. Savdo bozor shaharning asosiy to`rt gavjum ko`chalari kesishgan chorrahada joylashgan. Chorraha va unga tutash

ko`chalarning ayrim qismlari yog`och ustun va to`slnlarga o`rnatilgan tekis tomlar bilan yopilgan [39, 53].

O`rta Osiyo sharoitida hajmiy yopiq kurligan bunday savdo bozorlardan tashqari yarim yopiq savdo inshootlari-“Kappon”lar, oldi ayvonli va soyabonli savdo do`konlari va hunarmandchilik rastalari ham shakllangan. “Kappon”larning usti yopiq, atroflari esa ochiq bo`lib, asosan don mahsulotlarini sotishga mo`ljallangan.

Katta maydon talab qiluvchi va shahar hududini ifloslantiruvchi mollar: mol-hollar, ulov, o`tin, yog`och materiallari, xashak va shu kabilar uchun alohida savdo bozorlar bo`lib, ular shahardan tashqarida, shahar darvozalariga tutashgan yo`llar va ochiq maydonlarda joylashgan. Xaridor o`ziga kerakli molni oson topishi uchun savdo bozorlarda har bir sotiladigan mol turiga alohida joy ajratilgan.

Yoz va kuz paytlari shaharlarda savdo maydonlarini kengaytirishga zarurat tug`ilib, yopiq va yarim yopiq savdo inshootlaridan tashqari mavsumiy faoliyat ko`rsatuvchi usti ochiq savdo maydonlari-“bozorgoh”lar ham tashkil qilingan. Bunday bozorgohlarning aksariyati asosan yoz paytlari faoliyat ko`rsatgan [4, 14, 39, 53].

Shahar ichidagi chorrahalar, chorsular, shahriston ko`chalari, registonlar, rabodlar hududi, mahalla va guzarlarda hamda shahar darvozalari kirishida joylashgan tashqi bozorlar shahar ko`chalari, maydonlar va darvozalar orqali birikib ko`p tarmoqli bozorlar tizimini tashkil qilgan. Bu tizim shahar rejasida turli-tuman savdo inshootlari: chorsular, timlar, toqlar, kapponlar, rastalar, do`konlar, hunarmandchilik ustaxonalari va karvon saroylardan, shuningdek, bozorgoh va rastagohlardan tarkib topgan.

Shahar ichki va tashqi bozorlaridan tashqari yarmarkalar uslubida ishlovchi tumanlararo va xalqaro bozorlar ham bo`lganki, ular tashqi bozorlar tizimini tashkil qilgan. Ta`kidlash joizki, o`rta asrlardagi Markaziy Osiyo mamlakatlari xos ushbu bozorlar va savdo inshootlari tizimi xozirgi kunda ham yashovchi va o`zining sharqona milliy an`analarini yo`qotmay ishlab kelmokda.

Sharq savdo bozorlarining shakllanishi, mutaxassislarining fikricha, Avesto davridan boshlangan. Bunga asosiy sabab Buyuk ipak yo`lining hal qiluvchi qismi Sharq mamlakatlari hududidan o`tishi bo`lgan. Qadimiy Panjikent shahrida VIII asrning boshida qurilgan ikkita savdo bozor majmuasi xarobalarining topilishi Markaziy Osiyoda savdo bozorlarning islom davrigacha shakllanganligidan dalolat beradi [77].

Ilk o`rta asr savdo bozorlari asosan shahristondagi chorrahalarda, ark-qal`alar qoshida, savdo rastalari, do`konlar va hunarmandchilik ustaxonalari ko`rinishida bo`lgan.

### **1.3. O`zbekistonda savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari shakllanishida tabiiy - iqlimi sharoitlar**

Bugungi kunda, O`zbekiston viloyat markazlarida qurilayotgan savdo va maishiy xizmat ko`rsatuvchi majmualari bino va inshootlarining arxitekturaviy-rejaviy yechimlari zamонавиј талабларга то`лик javob beradi deb ayta olmaymiz.

Inson azal-azaldan hududning iqlim sharoitini hisobga olgan holda maskan qurban. Davrlar o`tib, yangi texnologiyalar paydo bo`ldi. Texnologik taraqqiyotning rivojlanishi bilan nafaqat yangi materiallar va tuzilmalarni oldik, balki arxitekturani uning atrof-muhiti bilan bog`lashni yo`qotdik. Zamонавиј техник имкониятлар binolarni tashqi muhit sharoitiga bog`liq bo`lmagan avtonom mikroiqlim bilan ta`minlaydi [20, 98].

Muhandislik tizimlarini saqlashga katta energiya xarajatlari sarflanadi. Ishlab chiqarish chiqindilari tufayli atrof-muhit ifloslanadi. Aholining faol o`sishi va shahar qurilishi oshishi muhit va inson tomondan qurilgan tuzilmalari o`rtasidagi muvozanatni buzadi. Atrof-muhitimizning biologik tarkibini soddalashtirib, uni noqulay va kam yashovchan qilamiz. Iqlim elementlari quydagilardan iborat:

- harorat, namlik, shamol, quyosh radiasiysi, yog`ingarchilik [61].
- Uch omil:
  - harorat, nisbiy namlik va shamolning birikishini hisobga olib, hudud (shahar)ning iqlimi xarakteristikasini yaratish mumkin.

Iqlimning o`ziga xos xususiyatlari, qulay sharoitlardan chetga chiqishi, iqlim omillarining kritik qiymatlari va ularning funksional munosabatlari ko`rsatkichlari bilan belgilanadi. Ana shu ekologik omillarni hisobga olgan holda savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmua binolarni loyihalashda hisobga olinadigan talablar majmuuni shakllantirish lozim.

Arxitekturaning shakllanishi uchun tabiiy iqlim omillaridan bo`lgan geografik sharoitlar ham juda muhimdir [26].

Ularni to`rtta umumlashtiruvchi guruhga ajratish mumkin:

- hududning iqlim sharoiti;
- topografik sharoit;
- geologik sharoit;
- biologik resurslarning mavjudligi omili [67].

Inshootlar quyosh radiasiyasidan himoyalanishi uchun ko`p qatlamlı izolyasiya va tabiiy ventilyasiyaning oddiy tizimi bilan qurilgan. Inson quyligini saqlashning muhim omili - bu ko`kalamzorlashtirish va atrofdagi joylarda suv havzalaridan (sovutish uchun) foydalanishdir. Issiq iqlimda

rejalashtirish yechimlarining turli konfigurasiyasi mumkin. Janubiy tomonda ochiq derazalar uchun quyoshdan himoya qilish qurilmalari talab qilinadi.

Sovuq xududlarda tashqi devorlarning eng kichik perimetri bo`lgan ixcham tartibidan foydalaniladi. Oqilona muhit yaratish, ekologik toza materiallardan foydalanish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish tabiat va inson yaxlitligini buzmaydi [26, 67].

Amaliy qurilish iqlimshunoslik fanining sezilarli rivojlanishi nafaqat tegishli me`yoriy xujjalarda, balki barcha turar-joy va jamoat binolarini va shaharsozlikda tipizasiyalashtirish masalalarini yechishda tabiiy-iqlim shartlarini baholash uslublarini ishlab chiqish, hamda rayonlashtirish uslublarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlarda ham o`z aksini topgan [12, 16].

Shunday qilib, O`zbekiston viloyat markazlaridagi sharoitda Qarshi, Jizzax va Urganch shaharlarini o`rganishlardan kelib chiqib savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmua binolari arxitekturasida bir qator tabiiy-iqlimi, muhit komplekslarining o`zaro ta`siri hisobga olinishini kompleks iqlimshunoslik (meteorologiya, aktinometriya va boshqalar) o`rganishlar ochib beradi [67, 88].

ShNQ 2.08.01 – 2019 ga muvofiq Qarshi va Urganch shaharlari tabiiy – iqlim sharoitlari bo`yicha I chi mintaqaga ta`luqli bo`lib saxro iqlimi ta`sirida bo`lgan, o`ta nokulay yozgi sharoitga ega xududlardan iborat.

Urganch sharoiti uchun yil davomida jang tuzonli kunlar 20 dan oshiq

I mintaqada ayniqsa yuqori davomli jazirama davrli I A va I B osti mintaqalar, xavosi yuqori darajada changli I A, I B va I G osti mintaqalar ajratilgan, I G osti mintaqaga sovuq qishi bilan ajralib turadi.

Jizzax shahri II mintaqqa – tog`oldi voxada joylashgan bo`lib , tabiiy-iqlimi va landshaft sharoitlari nisbatan yaxshi bo`lgan vodiylar va yassi tog`li tumanlarga qarashli [26, 65] (**1 bob 13-ilovada**).

O`zbekistonda tabiiy-iqlimi zonalar bo`yicha savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini qo`yidagicha ko`rib chiqildi:

Tog` oldi vodiylar uchun (Jizzax) viloyati;

Tekis vodiylar uchun (Qarshi)

Cho`l vohalariga (Urganch)

O`rganishlar natijasida O`zbekistonda tabiiy iqlim farq qilishi bo`yicha zonalarga bo`lib chiqilgan;

1- Cho`llar; 2- qayta o`zlashtirilayotgan yerlar; 3- sahro bilan o`ralgan voholar; 4- tog` yetagidagi vodiylar; 5- adirlar; 6- tog`lar (**1 bob 11-ilovada**).

O`zbekiston iqlimi keskin o`zgaruvchan kontinental iqlimdir. Mintaqadagi kunduzgi va tungi, yozgi va qishki havo harorati keskin

farqlidir. Yillik havo harorati farqi sezilarli darajada yuqori. Yanvar oyi harorati ba`zi kunlari minimal xarorat minus 30-35° gacha tushadi iyul oyida havo harorati + 50 gacha ko`tariladi.

Past tekislik hududlarida yillik yog`ingarchilik miqdori -120-200 mm., cho`l hududlarida -1000 mm. gacha yetadi. Yog`ingarchilik miqdori kam bo`lgani sababli, qishloq xo`jaligi va ko`kalamzorlashtirish sun`iy sug`orish tizimiga bog`liqdir[65].

Issiq, quruq iqlimdagagi zamonaviy savdo va maishiy xizmat ko`rsatish binolari yuqori harorat bilan ajralib turadigan o`z issiqlik va shamol rejimini yaratadi. Qulay sharoitlarga erishish uchun keng ko`lamli masalalar bo`yicha kompleks tadqiqotlar o`tkazilgan va bir qator ilmiy va amaliy vazifalar tavsija qilingan [107].

- zamonaviy jamoat binolarining issiqlik va shamol rejimini shakllantirish modellari ishlab chiqilgan;

- sanitariya va gigiyena talablarini hisobga olgan holda jamoat binolarni issiqlik-shamol rejimi baholash mezonlari ishlab chiqilgan;

- jamoat binolari muhitining issiqlik va shamol rejimini shakllantirish bo`yicha nazariy va eksperimental tadqiqotlari uchun uslubiy asoslar ishlab chiqilgan;

- noqulay mikroiqlim sharoitlarini tuzatishga hissa qo`shishi mumkin bo`lgan geometrik parametrlar uchun jamoat binolari issiqlik-shamol rejimi analitik bog`liqliklari aniqlangan;

- taklif usullari samaradorligini texnik-iqtisodiy asoslash va shaharsozlik amalyotida qo`llash ishlab chiqilgan;

- loyihalarni ishlab chiqishda zamonaviy jamoat binolarida atrof-muhitning issiqlik-shamol rejimini shakllantirishning uslubiy yo`nalishlari ishlab chiqilgan [67, 107]

Yuqoridagi ishlanmalardan foydalanib biz sahro hududida joylashgan Qarshi va Urganch shaharlari uchun yopiq va yarim ochiq turdagи savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularidan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Jizzax shahrining tog` oldi hududida joylashganligi va tabiiy iqlimi sharoiti mu`tadil bo`lgani sababli ochiq turdagи savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularidan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

An`anaviy jamoat binolari mikroiqlimi tahlili u yopiq hovli va yarim ochiq ayvon shaklida bo`lganligida shamollatishni kuchaytirish vositalari turli me`moriy rejalashtirish va kompozision texnika orqali (“inversiya ta`siri”, “gilam tartibi”) va binolar zichligiga bog`liq holda mahalliy shamollatishni kuchaytirish mumkin [88]. An`anaviy savdo-maishiy xizmat

ko`rsatish binolarining qizib ketishiga qarshi kurashning asosiy tamoyili - hovli maydoni strukturasingin hudud bilan dinamik munosabati va binolarining qabul qilingan qavatlari sonidan iborat.

An`anaviy shaharsozlikda turli balanliklardagi jamoat binolari joylashgan hududlarda mikroiqlim ko`rsatkichlari qulay darajada yaqin bo`lishi aniqlangan [107]. O`tmishdagи turar-joy va jamoat binolarini shaharsozlik usullari va texnikasi tahlili turar-joy va jamoat binolarida yashash uchun qulay muhit yaratishga hissa qo`shadigan bir qator xarakterli me`moriy-rejalshtirish yechimlari, tabiiy vositalar va tadbirlarni aniqlash imkonini beradi.

Bularga quyidagi metod va usullar kiradi:

- binolar tomonidan ihota qilingan hajmlar va tashqi fazolarni o`z ichiga olgan yopiq fazo kompozisiyalarini yaratish. Har bir shaharsozlik elementi hovlili tarkibga asoslangan. Tor ko`chalar va kichik maydonlarni tashkillashtirish, ko`kalamzorlashtirilgan va sug`orilgan hovlilar va tom ustidagi bog`lar;
- savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari binolarini tabiiy iqlim omillariga muvofiq loyihalash va joylashtirish;
- quyosh nuri va issiq shamollardan himoya qilish uchun turli xil qurilmalarni o`rnatish, qulay havo oqimlarini foydalanish va uni sovutish;
- eng oddiy o`zgaruvchan qurilmalardan foydalanish;
- issiqlik nurlanishini to`plashdan ko`ra, aks ettiradigan materiallardan uylar va tomlarning tuzilmalarini qo`llash;
- o`simliklar yordamida binolar yoki uning qismlarini quyosh nurlanishidan himoya qilish;
- suv resurslarining mavjudligi va sug`orish ishlari ko`lamiga bog`liqligi, shuning uchun o`tmishda sug`orish va ko`kalamzorlashtirish tizimi shaharning rejalshtirish tuzilmasida bir tekis taqsimlangan yoki uning hududlar balansidagi ulushi umumiy maydonning 7-12% ni tashkil etgan [7, 87].

Tabiiy va iqlim xususiyatlari tufayli an`anaviy qurilishda ilg`or rejalshtirish va kompozision texnikani va konstruktiv chora-tadbirlarni aniqlash, shuningdek shahar rejalshtirish loyihasi talablari nuqtai nazaridan issiq quruq iqlim tasnifi va jamoat binolarida qulay sharoitlarini yaratish uchun tadqiqot va qidiruv ishlarini olib borish uchun zarur bo`lgan yo`nalishini tashkil etish imkonini berdi [7, 67].

Bunday uslub asosan O'zbekiston shaharlarini Aglomeratsiya tarkibida joylashuvi nuqtai nazaridan, quruq issiq iqlim sharoitida jamoat imoratlari qurilishi, shaharsozlikni tashkil etishni to`laligicha loyihalash uchun zarur bo`lgan o`ta aniq tipologik va shaharsozlik talablarini aniklanishi

mumkin bo`lib, shaharlar xududida va respublikaning barcha me`moriy-qurilish rayonlarining lokal xususiyatlari aniqlanadi.

Bularning hammasi savdo markazlari binolarining umumiy rejalshtirishda turlarini, hamda ularning o`rnini aniqlaydi. O`z navbatida mahalliy tabiiy - iqlim shartlari spesifikasiysi binoning hajmiy-rejaviy strukturasini va shaharsozlik tipologiyasini ham aniqlab beradi [70].

Bunday uslub asosan quruq issiq iqlim sharoitida imoratlar kурilishi va shaharsozlikni tashkil etishni to`laligicha, loyixalash uchun zarur bo`lgan o`ta aniq tipologik va shaharsozlik shartlari o`rnatalishi mumkinligini ko`rsatib, qishloq va shahar hududida va respublikaning alohida me`moriy-qurilish rayonlarida lokal xususiyatlari aniqlanadi.

R. Toshtemirovning kandidadlik Dissertatsiyasiga muvofiq [71] rayonlashtirish quyidagi strukturaga ega:

«zona, rayon, mikrorayon». Rayonlashtirishning birinchi stadiyasida zona chegaralari aniqlanadi, ikkinchidan rayon chegaralari, uchinchidan shahar va aholi punkti joylari mikrorayonlashtiriladi. Rayonlashtirishning bunday strukturasi- butun shahar fazoviy kompozisiyasini shakllantirish va me`moriy loyihalashda tabiiy iqlim tipologiyasi asoslarini aniqlash va o`rnatish imkonini beradi [71].

Respublika hududining iqlim xususiyatlari uning ichki qif`aviy joylashishi va atmosfera namligini bu yerga yetkazib beruvchi asosiy manba hisoblangan okeanlardan uzoqligi bilan aniqlanadi.

O`zbekistonning  $37^{\circ}$ - $45^{\circ}$  s shimaliy kenglikda joylashishi, unga quyoshning nisbatan katta balandlikdaligi bo`lib, iqlimning umumiy xarakteristikasini belgilaydi. O`zbekistonning iqlimi Orol dengizi, Qizilqum va Qorakum cho`llari va Tyanshan va Pomir-Oltoy tog` tizmalarining murakkab relyeflari ta`siridan o`z ko`rinishini ko`p martalab quruk subtropikdan to normal subtropikgacha tog` bag`ri va tog` oldi o`zgarib turadi [65].

Respublika shimoli-sharqidagi Tyan Shan to`sig`i shimol va shimoli-sharqdan janubga sovuq quruq kontinental havoning kirib kelishiga qarshilik ko`rsatadi. Odatda sovuq massalar katta quvvatga ega emas. Shuning uchun hatto nisbatan baland bo`lмаган Qoratog` cho`qqisi va respublika markazida joylashgan Nurota chuqqisi iqlim bo`luvchi bo`lib xizmat qiladi [70, 71].

O`zbekistonning turlicha iqlimi, turli fizik-geografik sharoitlar va iqlimni yaratuvchi faktorlar ta`siridan yig`ilgan bo`lib, quyidagi guruhlarga bo`linishi mumkin:

- tekis hududlar,
- tog` tizmaları,

- tog`bag`ri va tog` oraligi vodiylari iqlim yaratuvchi faktorlar sifatida ko`rib chiqiladi [61, 62].

1. Tekis xududlar, Respublikaning g`arbiy va markaziy qismlari tekisliklardan iborat bo`lib, u yerda Ustyurt platosi, Qizilqum cho`li va Orol dengizlari joylashgan. Respublikaning tekis xududlari iqlim tashkil etuvchi faktorlari - Orol dengizi, Ustyurt platosi, Qizilkum, Qorakum va cho`llar orasidagi vodiylar hisoblanadi.

Urganch shahri joylashgan bu yerda iqlim keskin-kontinental bo`lib shimol va janubi-g`arbdan global siklon va antisiklololar ishtirokida hosil bo`ladi va shuning natijasida bu hududda qishda kuchli shamollar g`arbdan esib quruq sovuq (yanvarda -4°) yozda esa (28-30°S gacha) chang shamolli bo`ronlar kuzatiladi.

2. Tog` etaklari va oraliq chuqurliklari, O`zbekiston tog` tizimlariga tog` etaklari va oraliq vodiylari to`g`ridan to`g`ri ulanib ketadi. Ulardan eng yiriklari quyidagilar:

- shimolda Chirchiq-Angren va Mirzacho`l tog` etaklari chuqurligi Tyan-Shan tog` tarmoqlari orasida joylashgan, janubda Turkiston, Malguzor, Nurota tizmalari. Farg`ona xavzası Respublikaning sharq qismida Tyan-Shan va Pomir - Oloy tog` tizmaları oralig`ida joylashgan.

Sangzor-Nurota chuqurligi nisbatan ingichka tasma ko`rinishida Malguzor va Nurota tizmalardan janubroqda cho`zilgan bo`lib, janubda Chukmartov va Oqtov tog`lari bilan chegaralangan [65,70]. Jizzax shahri ham shu mintaqada joylashganligi ko`rib chiqildi.

Zarafshon janubdan Zarafshon tizmasi va shimoli-g`arbda Chukmartov va Oqtov tog`lari bilan chegaralangan. Qashqadaryo tog` oldi uchburghach shaklida bo`lib Zarafshon va Hisor tizmaları tarmoqlari oralig`ida joylashgan. Undan sharqda nisbatan katta bo`Imagan Kitob Shaxrisabz havzası bo`lib g`arbdan asosiy chuqurlik asta-sekin keng qumli cho`l tekisligiga aylanadi, Qarshi shahri esa shu mintaqaga qarashli.

O`zbekiston hududining chetki junabi-sharqiy holatini egallagan. G`arba u Hisor tizmasi (Surxontov) tarmoqlari bilan, sharqda esa Bobotog` tizmasi bilan chegaralangan.

3. Tog`li hududlar, Respublikaning tog`li rayonlari Tyan-Shan va Pomir-Oloyning turli tizimlariga qarashli bo`lib, O`zbekiston hududdiga ularning etaklari kirib kelgan xalos. Ularning dengiz satxidan 5-6 ming bo`lgan yuqori nuqtalari Respublikadan tashqarida joylashgan. Qiya tok etaklari ba`zan eni 100 va ortiq kilometrdagi tekis tasmalar hosil qiladi. Tog` etaklari va oraliqlari chuqurliklarida asosiy iqlim yaratuvchi faktorlar sifatida boshqa rayonlardagi kabi quyosh radiasiysi va o`rtacha kengliklar tarmog`i siklonli faoliyatni hisoblanadi [71].

Yuqorida keltirilgan iqlim yaratuvchi faktorlar asosida rayonlashtirilgan Respublika hududi fizik-geografik shartlar va vertikal belbog` bo`yicha quyidagi mintaqalarga bo`lingan:

- Ustyurt, Quyiamudaryo, Qizilqum, Quyizarashon, O`rtazarafshon, Mirzacho`l, Chirchiq-Angren, Farg`ona, Qashqadaryo, Surxondaryo mintaqalarga bo`linadi.

Bizning tadqiqot bilan bog`liq savdo markazlari Quyiamudaryo mintaqasidagi Urganch, Qashqadaryo mintaqasidagi Qarshi va Mirzacho`l mintaqasidagi Jizzax shaharlarida joylashgan [38, 70].

Shamol rejimini baholash ancha murakkab, chunki respublika hududi bo`yicha kunduzgi va kechasi shamol tezligining taqsimlanishi o`ziga xos xususiyatga ega.

Havo rejimini baholash asosida quyidagi ko`rsatgichlar yotishi kerak:

- yillik va sutkalik havo yo`nalishi qaytarilishi (shamol guli, shamol ustunligi, shamol tezliklari turli gradasiyalar ehtimoli va uzlucksizligi); shamol yo`nalishi va tezligining boshqa meteorolog elementlar bilan ayniqsa havo harorati bilan birgalikda qaytarilishi mumkinligi.

TashZNIIEP instituti tomonidan Respublika hududining iyul oyi kechasining o`rtacha shamol tezligi va (chang-shamol rejimi bo`yicha) rayonlashtirish xaritasi tuzilgan bo`lib, unda chang bo`ronlari tarqalishi, atmosferaning yuqori changligi, hamda xavf keltiruvchi shamollar zonalari ajratib ko`rsatilgan [73].

Respublikaning g`arbiy va markaziy qismlari, jumladan Qashqadaryo viloyati uchun qish vaqtining eng xarakterli shamoli bulib tezligi  $5\text{--}6,5 \text{ m/s}$  bulgan shimoliy va shimoliy-sharqiylar shamollar, ho`dudning sharqiylar va janubiy qismlarda esa tezligl  $4\text{--}4,5 \text{ m/s}$  bulgan shimoli-sharkiy shamollar hisoblanadi [73].

Yoz davrining eng ko`p esadigan shamollari turlicha yunalishda bo`ladi:

- Ustyurt regioni shimoli-g`arbiy hududida va Quyiamudaryo hududida -shimoliy yo`nalishdan, Qashqadaryo vohasida shimoli-g`arbiy yo`nalishdan aksariyat shamollar ta`siri ma`lum [96].

Respublikaning g`arbiy va markaziy qismlarida, shu jumladan Qashqadaryo va Xorazm vohasida yiliqa 40-50 kunni tashkil etuvchi chang bo`ronlari kuzatiladi. Bu hududlarda havo tarkibidagi chang miqdori yuqori. Shamol xarakteri tabiiy-iqlim sharotlari, yil fasli va region bilan bog`likligini o`rganish va tahsil qilish natijasida O`zbekiston shaharlariga xos bo`lgan yanvar va iyul oylari uchun shamol qaytarilishi va tezligi bo`yicha shamol gullari tuzilgan [59, 61, 71].

O`zbekiston hududlarini fizikaviy - iqlim rayonlanishida shamol tezligi raliasion va termik rejimga ta`sir etuvchi omil sifatida hisobga olinadi. Biroq shamol atrof muhitga ham anchagina aerodinamik ta`sir kursatadi:

- chang bo`ronlari,

O`zbekiston hududi bo`yicha bu hodisalar Urganch va Qarshi shaharlarida keng tarqalgan.

Shamollar xarakteristikalarini kompleks tahlili chang bo`ronlari manbalari tarqalishi bilan shamol aktivligi darajasi savdo-maishiy xizmat ko`rsatish markazlarida alohida me`moriy-rejaviy yechimlarni talab etib, yaxshi mikroiqlim yaratish bilan farq qiladigan ikkita rayonga ajratish imkonini beradi.

Ulardan, birinchisi O`zbekistonning g`arbiy va markaziy qismi bo`lib, yozgi davrda chang buronlari va anchagina chang -shamol faoliyat bilan xarakterlanadi va unga Qarshi va Urganch shaharlarini kiritса bo`ladi. Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish markazlari mikroiqlimini yaxshilashdagi asosiy choralar optimal shamollatish uchun xa`smyi-tarxiy sharoit yaratish orqali bo`ladi [98].

Respublikamizda murakkab iqlim sharoiti landshaftning shakllanishida o`z ta`sirini ko`rsatadi. Bunda havo muhitining namlik holati hal qiluvchi o`ringa ega bo`lib, cho`l va yarim cho`l sharoitlarida yaqqol ko`rinadi, chunki bu hududlarda chang bo`ronlari vujudga kelish xavfi kuchli hamda yashil o`simliklarni o`stirish qiyin [3].

Bu bir vaqtida issiqlik harakteristikasi va joyning landshafti muhitiga moslashish chora-tadbirlarini ko`rish zarurligini ko`rsatadi. Respublika hududining suv bilan ta`minlanganligi shaharlar landshafti va sug`orishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ulardan okilona foydalanish natijasida aholining yashash komforti va butun shaharning mikroiqlimini yaxshilash mumkin.

Jazirama issik, faslda (vertikal, qiya va gorizontal nurlanuvchi yuzalar ko`payishi munosabati bilan) yirik shaharda quyosh raliasiyasi intensivligining yig`indi miqdori kichik shaharnikidan yuqori bo`lib, shahar ustidan qo`shimcha diskomfort va issiqlik orolchasini paydo qiladi [70, 71].

O`zbekistonda landshaft sharoitini baholash, tabiiy, fizik-geografik, landshaft iqlimi rayonlashtirishni shaharsozlik nuqtai-nazaridan qo`shish prinsiplariga asoslanadi. Bunda joy topografiyasi, o`simlik, tuproq va suv bilan ta`minlanganlik landshaft-iqlim rayon va kichik rayonlarga bo`lishda muhim omil hisoblanadi.

### I-bob xulosasi

1. Qashqadaryo, Xorazm, va Jizzax aglomeratsiyalari hozirda shakllanish bosqichini amalga oshirmoqda. Bu aglomeratsiyalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, transport tizimining rivojlanishi va madaniy-maishiy xizmatlarni tashkil qilinishi bo`yicha bir-biriga yaqin hisoblanadi.
2. Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish markazlari shakllanishiga ijtimoiy va iqtisodiy omillar tasiri aholining istaklarini qondirish uchun xarid qilish bilan dam olishni birgalikda olib borish samarali ekanligi isbotlangan.
3. Ushbu aglomeratsiyalar markazlari aholisi 200 mingga yaqinlashib, yaqin kelajakda yirik shaharlar qatoriga o`tishi kutilmoqda.
4. Shaharlarning statusi va aglomeratsiyada tutgan ahamiyati o`sib borishi bilan bir qatorda aholiga savdo-maishiy xizmat ko`rsatish qamrovi va sifati zamonaviy talab darajasiga yetkazilishi zarurdir.
Bundan tashqari, mualliflarning ta`kidlashicha, savdo markazidagi xaridorlarni diqqatiga sazovor joylarni "magnitlar" deb atashadi. Xaridorlar bir magnitdan ikkinchisiga yo`naltiriladi, o`tmishdagi kichik attraktionlar (piyodalar oqimi harakatini tashkil etuvchi vositalar) va bozor oqimidan foydalangan holda boshqa do`konlar faoliyati yo`lga qo`yiladi. Asosiy diqqatga sazovor joylar bu birinchi navbatda univermag, universal do`kon filiali, supermarket, yirik kiyim do`koni yoki yuqori sifatlari restoran.

Ikkinci darajali diqqatga sazovor joylar kiyim do`konlari guruhlari, banklar, pochta aloqasi bo`limlari, kiyimlarni ta`mirlash va tozalash ustaxonalari va boshqalar bo`lishi mumkin.

Amaliy tajribaga asoslanib, mualliflar savdo markazlarining mumkin bo`lgan mакетларини битта, иккита ва учта “magnitlar” билан тahlil qilib, markazdagi binolarning umumiy bosh rejasи muvaffaqiyatli bajarilishi har bir korxona samaradorligini oshirishga olib kelishini ta`kidlaydilar.

Bozor oqimlarini rejalashtirish va me`moriy rejalashtirish orqali piyodalar harakatini tartibga solish ham mualliflar tomonidan muvaffaqiyatlilochib berilgan muhim masalalardir. Savdo markazi har doim rivojlanib boradigan joyda joylashganida kengaytirishni rejalashtirish tavsiya etiladi. Bunday holatda, universal do`konlar egalari va boshqa asosiy do`kon egalari ko`pincha savdo hajmi ko`payganda do`konlarini kengaytirish istagini bildiradilar. Do`konni kengaytirganda, odatda iqtisodiy sabablarga ko`ra ixtisoslashgan do`konlar va boshqa korxonalar uchun qo`shimcha binolarni otib olish maqsadga muvofiqdir.

Markazni kengaytirishni rejalashtirish uchun juda ko`p zaruriy shartlar mavjud. Atrofdagi asosiy yo`llarning mumkin bo`lgan o`tkazuvchanlik quvvati qo`shimcha transport yuklariga mos keladigan darajada bo`lishi kerak. Hudud qo`shimcha binolar, avtoturargohlar va transport harakatti uchun zaxira maydonini saqlash uchun yetarlicha katta bo`lishi kerak, yoki qo`shimcha daromad markazni kengaytirish paytida ikki yoki ko`p qavatli avtoulovlar turargohini qurish uchun kapital qo`yilmalarni oqlashi kerak [21].

Savdo shoxobchalarining kengayishi natijasida avtoturargohlarga bo`lgan talabni qondirish uchun bo`sh joy ham zaxirada saqlanishi kerak. Ushbu maqsad uchun zarur bo`lgan zaxira maydonini belgilashda uning

avtoturargoh va piyodalar maydonlari o`rtasida haddan tashqari katta masofalar yaratilmasligi uchun uning savdo markazining yangi yoki mavjud binolariga nisbatan yaqin masofada joylashganligiga e`tibor qaratish lozim.

Dastlabki qurilish tugagandan so`ng, ushbu zaxira maydoni savdo markazining umumiy ko`rinishini buzmasligi uchun tegishli ravishda obodonlashtirilishi kerak. Yordamchi binolarni va tarqatish tizimlarini loyihalashtirish va qurishda ularni ortib borayotgan ehtiyojlarga mutanosib ravishda kengaytirish choralarini ko`rish kerak.

Xalqaro savdo markazlar kengashi bergan ta`rifga ko`ra, savdo markazlari avtomobillar to`xtash joyiga ega bo`lgan va maxsus loyihalangan arxitekturaviy birlashtirilgan, yagona kompaniya orqali boshqariladigan savdo muassasalar tushunildi.

Zamonaviy savdo-maishiy xizmat ko`rsatish markazlarining asosiga shahar aholisi va mehmonlari hamda turistlar vaqtlarini samarali va yoqimli o`tkazishga mo`ljallangan zamonaviy savdo markazlari majmualarini yaratish bugungi kunning dolzarb masalalari qatoridan o`rin oldi.

### **2.3. Savdo va maishiy xizmat ko`rsatish majmualari binolarining shakllanishida shaharsozlik va tabiiy-iqlimi sharoitlarning tahlili**

O`zbekiston hududida tabiiy-iqlimi sharoitlar, savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmua binolariga sezilarli darajada ta`sir ko`rsatadi. Shu sababli ularni loyihalash jarayonida iqlimi sharoti uchun yoritilganlik, harorat va namlik darajasini tartibga solish muammosi ancha jiddiy masala hisoblanib qolmoqda [98].

Respublikamizning mustaqillikka erishgani va yangi ijtimoiy-iktisodiy sharoitlarga o`tishi, mamlakatimizning o`ziga xos tabiiy-iqlimi va ekologik shart-sharoitlari viloyat markazlarini shaharsozlik talablari darajasida tashkil qilishni o`rtaga qo`yadi.

Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualarini loyihalashda tabiiy-iqlimi, zilzila va boshqa turdagи xududlashtirish xaritalaridan foydalanish lozim. Loyihachi arxitektor va quruvchining vazifasi loyihalanadigan binolar uchun barcha sharoitlarni har tomonlama o`rganish va ularning eng oqilona yechimlarini topishdir [26].

Mo`tadil iqlimli mintaqada joylashgan Qarshi, Jizzax va Urganch shahar markazlarida savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualarini loyihalashda, QMQ 2.01.01-94. Loyihalash uchun iqlimi va fizikaviy-geologik sharoitlar ma`lumotlarini etiborga olish kerak. Jamoat binolarni loyihalash O`zbekiston respublikasi hududining zonalarga bo`linishiga mos ravishda amalga oshiriladi.

Loyihalash uchun iqlimiylar va fizikaviy, geologik ma`lumotlar o`rganilib, loyihamiylar yechim ishlab chiqilishida, shuningdek mahalliy shamollarning asosiy yo`nalishlari hisobga olinadi [20].

Savdo majmualari bu jahon shaharsozligi amaliyotida keng tarqalgan yangi, maxsus turdag'i jamoat majmuasi hisoblanadi. Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularining bunday omnaviyligi va shiddat bilan rivojlanishi ularning savdo-sotiqni tashkil etishning an`anaviy shakllari bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy va shaharsozlik afzallikkari va, avvalambor, aholi uchun jozibadorligi (tovar va xizmatlarning katta tanlovi, umumiy qulay muhit va xizmat ko`rsatish qulayligi, vaqtini tejash, kirish va chiqish joylari va to`xtash joylari qulayligi va boshqalar) xisoblanadi [11, 20]. Bu o`z navbatida ularning yuqori ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini belgilaydi.

Ayniqsa, loyihalarni ishlab chiqishda savdo texnologiyalari va yangi formatlarining rivojlanishidan ortda qolganligi, masalan, yirik maydonli savdo obyektlaridan tashkil topgan savdo markazlari yoki ko`p funksiyali majmualar va gipermarketlarga qo`yiladigan maxsus talablar asosida loyihamiylar uchun me`yoriy hujjatlarni olib beruvchi “adabiyotlar”ni tayyorlash yo`lga qo`yilmaganligi bizga ma`lum.

Bu esa, qurilish hududiga oid tabiiy-iqlim, geografik va geologik o`ziga xos bo`lgan sharoitlarni e`tiborga olinmaganligi oqibatida markazlar samarali ishlamay qolmoqda [1, 20, 22, 30].

Hozirda, savdo-maishiy xizmat ko`rsatish markazlariga qarashli binolarini loyihalash jarayonida aglomeratsiya hududining tabiiy iqlim sharoiti va relefi asosida energiyani tejash, imkonli bo`lsa, energoaktiv qurilmalardan foydalanish, markazga tashrif buyuruvchilar va shu markazda ishlovchi xodimlar uchun qulay sharoitlar (bino atrofida bog`lar, bino ichkarisida mikroiqlimmi) yaratish bilan markaz va unga oid binolarning o`ziga xos ko`rinishini ta`minlash muammosi muhimdir [1, 22].

Ekotizim tashkil qiluvchi va zamonaviy jamoat binolari uchun eng muhim bo`lgan tabiiy-iqlimiylar omillar va uning strukturasini hosil qiluvchi elementlar quyidagilardir:

- binolar oriyentasiyasini va konfigurasiyasini aniqlash maqsadida loyihalanadigan hududning iqlimiylar sharoiti tahlili;
- xonalarni, shu hisobda, har bir ish joyini tabiiy yorug`lik bilan turli darajada ta`minlanishi;
- xonalarning tabiiy ventilyasiyasini shamol yo`nalishidan foydalangan holda ta`minlash;
- energiyani tejash, iqlimiylar sharoitiga bog`liq ravishda binoni isitish va sovutish nuqtai nazaridan samarali loyihalash ishlarini bajarish;

- savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmuasi hududida mikroiqlimi tashkillashtirishda o`simlik va ko`kalamzorlashtirishdan keng foydalanish;

- mikroiqlimi tashkillashtirish asosida qurilgan energoaktiv binolaridan keng foydalanish [24, 35].

Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini loyihalashda yana bir asosiy e`tibor beriladigan jihat bu tabiyi yoritilganlidir. Yorug`lik muhitini loyihalashda ishchi xonaning tabiiy yoritilganligi uchta o`zaro bog`langan komponentlarini ya`ni, tashqi to`siq konstruksiyalari orqali ishchi xona fazosiga kiruvchi yorug`lik oqimini, xona ichi tekisliklari va yuzalaridan qaytuvchi yorug`lik, hamda xonadagi yorug`lik darajasini hisobga olishni talab qiladi [1, 22, 29].

O`z-o`zidan moslashadigan savdo maydonlaridan farqli o`laroq, zamonaviy savdo markazlari funksional va fazoviy jihatdan o`zoro bog`liq bo`lgan savdo korxonalari, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat va boshqa turdagи muassasalardan maxsus ishlab chiqilgan yagona kompleksdir. Ularning tarkibi, salohiyati va shahar tarkibida joylashishi iqtisodiy va shaharsozlik shartlari bilan belgilanadi.

Mamlakatimizda savdo markazlari binolarning eng ilg`or turlari va shahar aholisi va aholi punktlarining guruh tizimlari uchun chakana va maishiy xizmat ko`rsatish tarmog`ining asosiy elementlari sifatida xizmat qiladi.

Savdo markazlarini loyihalashirishning barcha muhim jihatlarini ketma-ket o`rganilib, ularning har xil tabiiy-iqlimi sharoitlarda muvaffaqiyatlari ishlashini ta`minlash zarurdir, ya`ni saxro hududidagi savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularining yopiq turidan, tog` oldi vohalaridan esa yarim ochiq turidan foydalanish maqsadga muvofiqdir [99].

Ishda savdo markazlarini loyihalashni tashkil etish masalalari va ularni qurish uchun joy tanlash talablari ham ko`rib chiqilgan. Savdo markazini rejalahtirilgan va boshqariladigan majmua sifatida ko`rib chiqishga alohida e`tibor qaratilib, unda korxonalarning tarkibi, hajmi va joylashuvi, xizmat ko`rsatiladigan aholi ehtiyojlarini hisob-kitoblariga muvofiq ravishda muvozanatlashtirilishi kerakligi ko`rilgan.

Arxitekturaviy rejalahtirish yechimiga ko`ra:

1. Hududiy joylashuvi bo`yicha;

- shahar chetida, shahar ichida, shahar tashqarisida.

2. Tabiiy-iqlimi sharoitlar ta`siri;

- ochiq turda, yarim ochiq turda, yopiq turda.

3. Harorat va nimlik:

- yo`naltirish, yo`naltirish va erkin, erkin;

4. Atrofdagi tabiatni saqlash:

- to`liq saqlanishi;
- saqlanadi va o`zgartiriladi;
- to`liq o`zgartiriladi.

Viloyat shaharlarining markaziy qismlarida issiq iqlimli hududlarning iqlimi yususiyatlari nuqtai nazaridan, Qarshi, Jizzax, va Urganch shaharlarida iqlimi keskin kontinental issiq-quriq iqlim zonasida joylashgan bo`lib, shu munosabat bilan iqlim sharoiti va qurilish usullarining o`zoro bog`liqligi muommosi ayniqsa keskinlashadi.

Shaharlar markazining asosiy jamoat binolari ko`kalamzorlashtirish va suv havzalarining oqilona rejalashtirilgan hududlari orasida izolyatsiyalangan shamollatadigan joylashuvga ega. Suv sathlarining mavjudligi shahar markazida yuqori aks ettiruvchi katta sirtlarni hosil qiladi.

Bu atrof-muhitning mikroiqlim sharoitlarini yaxshilaydi, mahalliy ventiyatsiya va nisbatan salqin muhitni yaratishga yordam beradi (**2 bob 24-ilovada**).

Shu bilan birga, tarixiy shaharlarning tabiiy-iqlim sharoitiga mos keladigan savdo ko`chalari atmosferasini eslatib, ularda jozibali ijtimoiy boy muhitni yaratishga katta ahamiyat beriladi. Shuningdek, savdo majmualarining alohida obyektlari va binolarini loyihalash, ularning makonini rejalashtirish va tarkibiy yechimlari, texnik jihozlari va obodonlashtirish bo`yicha umumiy tavsiyalar berilishi ko`zda tutilgan [43, 92].

Qarshi, Jizzax va Urganch shaharlari uchun savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari bino va inshootlari to`liq karkasli emas arxitekturaviy-konstruktiv yechimda ishlangan bo`lishi bilan birga bunday binolarga qo`yiladigan funksional talablardan tashqari, O`zbekistonning quruq-issiq yozining jaziramasи, keskin kontinental iqlimi va zilzilaviy sharoiti-seysmiq bo`lgan qurilish maydonida mahalliy xom ashyo materiallaridan foydalanish, yoqilg`i va energiya resurslaridan oqilona va maqsadga muvofiq ravishda tosh-g`isht va yig`ma, yig`ma-yaxlit hamda yaxlit-quyma temirbetondan foydalanilgan holda loyihalanishi kerak [61, 62].

Xulosa qilib aytganda, viloyat markazlari shaharlarida keskin kontinental (yozi - jazirama issiq, qishi - sovuq) tabiiy-iqlimi sharoitlar mavjud. O`zbekiston hududida tabiiy-iqlimi sharoitlar savdo va maishiy xizmat majmualariga sezilarli ta`sir ko`rsatadi. Shu sababli ularni loyihalash jarayonida iqlimi sharoiti uchun yoritilganlik, harorat va namlik darajasini tartibga solish muammosi ancha jiddiy masala hisoblanadi [97, 98].

## **II-bob xulosasi**

1. Mamlakatimiz bosib o`tgan taraqqiyot yo`lining chuqur tahlili bugungi kunda globallashuv sharoitida raqobat tabora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqor va jadal sur`atlar bilan rivojlantirish uchun savdo va maishiy xizmat ko`rsatish majmularini tashkillashtirish yangicha yondoshuv hamda yo`nalishlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

2. Mustaqillikga erishgandan keyingi yillarda respublikamiz bo`yicha barcha bozorlar va savdo-maishiy xizmat ko`rsatish markazlarining shaharsozlikdagi yechimlari, tabiiy-iqlimi sharoitlarga moslashganligi va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatlari chuqur o`rganilib kelinmoqda. Ishda savdo-maishiy savdo-maishiy xizmat ko`rsatish markazlarining loyihalashga ta`sir qiladigan omillar tahlil qilingan.

3. Bugungi kunda O`zbekiston Respublikasi Qarshi, Jizzax, va Urganch shaharlaridagi savdo majmualar holatlari, shaharsozlikdagi yechimlari va arxitekturasi o`rganildi. Bunday obyektlarni chuqur o`rganish va ilmiy izlanishlar natijasida ko`plab ma`lumotlar yig`ildi va ularning bugungi kundagi holatlari tahlil qilindi.

4. Sobiq Ittifoq davri va Mustaqillik yillarda qurilgan savdo-maishiy xizmat ko`rsatish bino va inshootlarining funksional va rejaviy xususiyatlarini o`rganish, zamonaviy savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari kompozisiyaviy va badiiy yechimlarini tahlil qilish ularning rivojlanishidagi ba`zi bir yo`nalishlarni aniqlashga imkon berdi:

5. Asosiy yo`nalishlardan biri shaharlar markazidagi Aglomeratsiya ahamiyatga ega savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualarining shaharsozlik nuqtai nazaridan to`g`ri joylashtirilmaganligi va buning natijasida ularning samarali faoliyat ko`rsatishiga to`siqlar mavjudligi. Jumladan, ularga xizmat ko`rsatuvchi xizmat transporti va mijozlarning transport harakati uchun imkoniyatlar cheklanganligi.

6. Yana bir asosiy yo`nalish mavjud savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualarining zamonaviy texnologiyaga asoslangan holda arxitekturaviy-rejaviy tashkil etishda kamchiliklar mavjudligi. Jumladan, ularning strukturasi tabiiy-iqlimi sharoitlarga moslashtirilmaganligi.

7. Chet el davlatlarida qurilgan savdo-maishiy xizmat ko`rsatish bino va inshootlarining funksional va rejaviy xususiyatlari va zamonaviy xizmat ko`rsatish texnologiyalarini o`rganish natijasida ularni bizning sharoitimizda qo'llash imkonni mavjudligi.

8. Zamonaviy xorijiy tajribalaridan kelib chiqqan holda shaharlarni bog`lab turuvchi asosiy avtomagstrallarda, yirik Aglomeratsiya savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini rejalashtirish shaharsozlik nuqtai

nazaridan eng ishonchli va samarali yechimlardan biri deb hisoblash mumkin.


9. Olib borilayotgan o`zgarishlar tizimida Qarshi, Jizzax, Urganch shaharlarining viloyat tumanlari bilan bog`langan asosiy yo`llarida funksional talablar asosidagi yirik Aglomeratsiya savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini tashkil etish ehtiyoji oshib bormoqda.

10. Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari yo`lak bilan birlashtirilgan, bir yoki bir necha binolar majmuasida joylashgan va bir butun sifatida boshqariladigan savdo muassasalarining guruhidir. Xalqaro savdo markazlar kengashi bergan ta`rifga ko`ra, savdo markazlari avtomobillar to`xtash joyiga ega bo`lgan va maxsus loyihalangan arxitekturaviy birlashtirilgan, yagona kompaniya orqali boshqariladigan savdo muassasalarini tushuniladi.

11. Zamonaviy savdo-maishiy xizmat ko`rsatish markazlari asosida yirik shahar aholisi va markaz - shahar ta`sir zonasida joylashgan aholiga xizmat ko`rsatish, hamda bizning davlatimizga tashrif buyuruvchi turistlarga vaqtlarini samarali va yoqimli o`tkazishga mo`ljallangan majmularini yaratish bugungi kunning dolzarb masalalari qatoridan o`rin olgan.



**III-BOB.  
SAVDO VA MAISHIY  
XIZMAT KO`RSATISH  
MAJMULARINI  
TAKOMILLASHTIRIS  
H VA ULARNING  
ARXITEKTURA-  
LOYIHAVIY  
YECHIMLARI  
BO`YICHA TAVSIYA  
VA TAKLIFLAR**



### **3.1. Viloyat markazlarida savdo va maishiy xizmat ko`rsatish majmualari shakllanishining zamonaviy yo`nalishlari**

Viloyat shahrlar markazlari rivojlanishi va savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari shakllanishi keyingi yillarda ko`p mamlakatlarning shaharsozlik amaliyotida keng muhokama qilinmoqda. Bu hodisa zamonaviy sharoitlarda shahrlar markazlari strukturasi va me`moriy qiyofasiga o`z ta`sirini ko`rsatmoqda [42].

Shahrlarning savdo markazlari me`moriy shakllanish muammolari murakkab shaharsozlik jarayonlarini kompleks tarzda ko`rib chiqishni taqozo etadi. Shahar markazini ijtimoiy-madaniy va jamoat-savdo markaz sifatida rivojlantirish aglomeratsiya markazi funksiyalarini kuchaytirishni talab qiladi [97].

Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari ularning joylashuvi va katta qurilish maydoniga ega bo`lganligi tufayli shahar kompozisiyasida muhim rol o`ynaydi.

Ular shahar va tuman silueti, mashtabi va barcha arxitekturaviy panoramasini aniqlashda ustunlik qiladi, ayniqsa, yirik markazlar majmualarga umumlashtirilsa, uning shaharsozlik yo`nalishga ahamiyati keskin oshadi [21]. Shu paytning o`zida, bir tomonidan, bino qurilishi mo`ljallangan hudud shahar o`ziga xosligini, ikkinchi tomonidan, vujudga kelgan bugungi shaharsozlik yo`nalishlarini saqlab qolishi kerakligi ayon bo`lmoqda. Qarshi, Jizzax, Urganch shahrlarida Aglomeratsiya ahamiyatga ega zamonaviy savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualarni loyihalashni asosiy maqsadidir [101].

Shahrlarning bosh reja tuzilishidagi savdo va maishiy xizmat ko`rsatish majmualari turlari quyidagilardan iborat:

Shaharning umumiy markazi:

1. “Eski shahar” tizimlaridagi bozor va boshqa yirik jamoat korxonalarining asosida tuzilgan savdo markazlari;

2. “Yangi shahar” tizimlaridagi bozor va boshqa yirik jamoat korxonalarining asosida tuzulgan savdo markazlar;

O`rta hududda joylashgan savdo markazlari:

1. XX asr 60-70 yillarda paydo bo`lgan savdo markazlari;

2. Kam qavatli turar joy hududlardagi savdo markazlar.

Shahar chetki hududlardagi savdo markazlari:

1. XX asr 80-90 yillarda yangi turar joy hududlarda qurilgan savdo markazlari;

2. Yirik avto bekatlarida va temir yo`l vokzal tizimlariga kirgan hududlardagi savdo markazlar (**3 bob 31-ilovada**).

Viloyatlardagi savdo majmularini o`rganib chiqish natijasida, Qarshi, Jizzax, va Urganch shaharlarda savdo va maishiy xizmat ko`rsatish majmularining farqlashning asosiy mezoni tizim obyektlari o`rtasidagi aloqaning mavjudligidir.

Aglomeratsiya konsepsiya asosiy rolni transportda yetib olish chegaralari bilan bog`iq boshqa omillar o`ynaydi va aholi punktlarining zinch tarmog`i, birinchi navbatda shaharlar ham, muhim ahamiyatga ega. Agar shahar aglomeratsiyasini yirik shaharlarda savdo-maishiy xizmat ko`rsatish obyektlarini joylashtirish uchun potensial bozor nuqtai nazaridan ko`rib chiqsak, u holda bu tushunchani kengaytirish lozim. Natijada aglomeratsiya aholisi uchun faqat yirik shaharlardagi savdo markazlari aholining bir qismiga xizmat ko`rsatishi mumkin.

Shuning uchun, keng ko`lamli shahar aglomeratsiya obyektlarini joylashtirishni rejalashtirish kengaytirilgan tarzda hisoblanadi [36]. O`zbekiston viloyat markazlarining rivojlanish jarayonida ularda savdo va maishiy xizmat ko`rsatish markazlari shakllana borayapti. Shaharlar markazida savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini loyihalashda avtomobil xarakatini xisobga olib aholi zinch shaharlar markazi va ko`chalarida avto turargohlarni tashkil qilish ehtiyoji paydo bo`lishi, natijada shovqin va zaharli gazlar aholini fiziologik va psixologik holatiga tasir ko`rsata boshlaydi va shahar ekologiyasiga ham salbiy tasir qiladi.

Tarixan mavjud shaharlarda savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmulari, yani bozorlar motorlashgan transport paydo bo`lishidan oldin shakllangan edi. Hozirda esa yangi savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini loyihalashda piyoda va transport xarakatini hisobga olinishi kerak bo`ladi. Shaharlar markazlarida savdo va maishiy xizmat ko`rsatish majmularini shakllantirishning asosiy qiyinchiliklarini bosh sababi piyodalar va transport oqimlarini tashkil qilish bilan bog`liq.

Shuning uchun ham savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini loyihalash amaliyotida shaharsozlik jihatdan tashkillashtirishning o`rni beqiyosdir, ularning asosiy maqsadi piyodalar va transport oqimlarini me`moriy-rejaviy vositalar yordamida muvozanatlashtiriladi [2, 108].

Masalaning mohiyati shahar strukturasida savdo markazlarini joylashtirish uchun savdo-sotiqga ixtisoslashgan savdo va maishiy xizmat ko`rsatish majmular faoliyatiga bog`liq. Savdo markazlari (bozorlar) shaharlarning markaziy jamoaviy hayot arenasi, shuningdek, xalq yig`inlari va boshqa tadbirlarni olib borish joyi sanalgan.

Viloyatlar markazlari misolida shahar kattalashgan sari, aholining aglomeratsiya darajasidagi savdo-sotiq markazlariga bo`lgan talabi ham o`sib borishi kuzatiladi. Shu sababli savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularida turli xizmatlar kompleks ravishda yig`ilib boshlaydi.

Savdo majmularida ishlaydigan va tashrif buyuruvchilarni quyosh nurlaridan, yomg`irdan, qordan, chang va boshqa tabiiy ta`sirlardan himoyalash zarurati tug`iladi.

Aglomeratsiya darajasidagi katta sig`imli (500 savdo o`rnvi va undan ortiq) savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari viloyat markazida joylashgan bo`lib, o`rta va kichik sig`imli (savdo o`rinlari 500 tagacha) savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari esa tuman markazlari ahamiyatiga ega savdo markazlari hisoblanadi [15, 16].

Viloyat markazlarida savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini arxitektura-rejaviy loyihalash asoslarini Qarshi, Jizzah va Urganch shaharlari misolida ko`rib chiqishimiz mumkin.

Bizning kuzatuvlarimizga ko`ra tabiiy muhit, yorug`lik, akustika, mikroiqlim talablari, piyodalar va transport harakatini tashkillashtirish masalalarining loyihalashda tutgan o`rni muhimdir.

Qarshi, Jizzah va Urganch shaharlarda savdo-maishiy xizmat ko`rsatish binolari va inshootlarini arxitektura-rejaviy loyihalash quyidagilarni talab qiladi:

- qulay muhitni;
- tabiiy va sun`iy yorug`lik optimal nisbatini;
- yetarli darajada quyoshdan saqlagichlarni, binolarda mikroiqlimi tashkillashtirishni talab qiladi [81].

Bugungi kunda taklif va tavsiyalar asosida Qarshi, Jizzax va Urganch shaharlarda savdo va maishiy xizmat ko`rsatish majmularini tashkil etishda katta ishlar amalga oshirilmogda. Bugungi shahar qiyofasini bundan 5 yil avvalgi holati bilan taqqoslaydigan bo`lsak amalga oshirilgan o`zgarishlar ko`lami yaqqol namoyon bo`ladi. Birgina Jizzax shahridagi Alisher Navoiy va Mustaqillik ko`chalarida qurilib ishga tushirilgan turar-joylar, Sharof Rashidov shoh ko`chasidagi bir-birini takrorlamaydigan jamoat binolari, Urganch shahrida Islom Karimov ko`chasidagi madaniy-maishiy xizmat ko`rsatish inshootlari, yangidan barpo etilgan keng va ravon ko`chalar shaharga o`zgacha ko`rinish bag`ishladi [113].

Bularning barchasi O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev rahnamoligidagi xalqimiz baxt-saodati, farovonligini ta`minlash yo`lidagi ezgu harakatlarning amaldagi ifodasidir [3].

Qarshi, Jizzax va Urganch shahar bosh rejasiga ko`ra bir vaqtning o`zida, ularning atrofida joylashgan savdo majmualari ham, kompleks ravishda yaqin yillarda foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan.

Jizzax shahrida qisqa vaqt ichida juda katta hajmdagi binyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Shaharda bunyod etilgan «Orom» bozori va savdo majmualari shular jumlasidandir. Zamonaviy uy-joylarning birinchi qavatida savdo va maishiy xizmat ko`rsatish shohobchalariga mo`ljallanganligi aholiga ko`rsatilayotgan xizmat sifatini yanada oshirish imkoniyatini yaratadi.

Islom Karimov ko`chasida loyihalangan savdo-maishiy xizmat ko`rsatish korxonalarini va muassasalar majmuaviy yondoshuv asosida tashkillashtirilgan. Keng ko`chaning har ikki tomonida bir nechta savdo majmualari joylashgani xaridorlar uchun yaxshi sharoitlar yaratilganligini ko`rsatadi.

1. «Mediapark» majmuasi va unga tutash bo`lgan holda ko`cha kengligi bo`ylab, transport harakatlanadigan yo`ldan ma`lum masofada joylashgan savdo va maishiy xizmat ko`rsatish majmualari joylashgan va avtotransport xarakatlanishiga to`siq yaratmaydi.

Keng piyodalar yo`lklari va yashil hudud xaridorlar harakati va savdo-maishiy binolariga kirib chiqish uchun yaxshi imkoniyatlar yaratib bergen. Shuningdek savdo-maishiy xizmat ko`rsatish korxona va muassasalarga yaqin bo`lgan joylarda avto tuturargohlar tashkil qilinishi xaridorlar uchun qulayliklar yaratadi.

2. Jizzax shahri dehqon “Eski shahar” bozori yarim ochiq turdag'i savdo-maishiy majmua sifatida ko`rib chiqilishi mumkin. Bozor hududi o`rtacha va katta sig`imli bir necha pavilyon ko`rinishidagi inshootlardan tashkil topgan. Yarim ochiq bozorlar o`zining hajmiy-fazoviy kompozisiyalari, umumiyligi va absolyut o`lchamlari, shuningdek, alohida qismlarining o`lcham va proporsiyalari bilan boshqa ma`muriy-maishiy maqsadlardagi binolardan sezilarli darajada ajralib turadi [111, 113].

Jizzax shahri II zona mo`tadil tabiiy iqlimi sharoitida ochiq, yarim ochiq savdo-maishiy xizmat majmularini tashkillashtirish maqsadga muvofiq sanaladi. Shahar markazida avtomobillar harakatlanishi bir qator negativ jarayonlarni yaratib, ushbu hududda joylashgan savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari jozibadorligiga katta ta`sir ko`rsatadi. Rasional tarzda tashkil qilingan piyodalar va transport harakati savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari komfortligini oshiradi, zamonaviy talablar asosida mavjud shahar markazlarini obodonlashtirish imkonini yaratadi [85].

Jizzax shahri “Orom” bozori atrofida tashkil qilingan katta sig`imli avtoturargoh aglomeratsiya darajasidagi savdo-maishiy majmuasining

samarali faoliyati uchun muhim ahamiyatga egadir. Ammo bu turargohda jamoat va shaxsiy avtotransport vositalariga ajratilgan joylar aniq reja asosida tashkil qilinishni talab qiladi, chunki bu avtoturargohdan aglomeratsiya turli tumanlaridan jamoat va shaxsiy transportda keladigan xaridorlar foydalanishlari mumkin.

Shuningdek “Orom” bozoriga tutash ko`chaning ikki tomonida tashkil qilingan savdo va maishiy xizmat ko`rsatish korxona va muassasalari uchun piyodalar harakatini tashkillashtirish ham muhim ahamiyatga egadir.

Hozirda ko`rib chiqilgan viloyatlarimiz Qarshi, Jizzax, Urganch shaharlarida asosan piyodalar katta oqimlari ko`chaning bir tomonidan ikkinchi tomoniga o`tish jarayonida avtomobil transporti harakatiga halaqit berib, tirbandlik yaratmoqda. Masalani yechish uchun yer osti yoki ko`chaning ustidan piyodalar ko`prigini qurish maqsadga muvofiq bo`ladi.

O`rganilayotgan Qarshi, Jizzax, Urganch viloyat va shaharlarning me`moriy fazoviy strukturasi piyodalar va transport harakatini tashkil etish uchun asos bo`lib xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko`rsatadiki, Qarshi, Jizzax, Urganch shaharlaridagi savdo majmualari ochiq, yarim ochiq, yopiq xollarda qisman aksini topganligi bo`yicha ish faoliyat olib bormoqda.

Taklif etilayotgan aglomeratsiya yadroси tizimida savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini tashkil etish butun viloyat aholisini tortish kuchiga ega bo`ladi. Bunda qoida bo`yicha xizmat ko`rsatish muassasa va korxonalari mujassamlashgan, jamoat faolligi yuqori bo`lgan, aglomeratsiya darajasidagi shahar markazida jamoat funksiyalarini rivojlantiruvchi va aholi uchun jozibali muhit bo`ladi.

Shu bilan bir qatorda ko`p hollarda piyodalar zonalarini yaratish uchun yuzaki yondoshuv shahar markaziga kirish imkoniyatini chegaralab, aholi zich joylarda transport vositalarini harakatini taqiqlashga va chegaralangan doirada harakatga ruxsat etishga olib keladi [71, 85].

Bunday holat asosan piyodalarga mo`ljallangan savdo ko`chalarini jihozlash va obodonlashtirish, shahar ko`chalarini ko`p funksional kompleks sifatida qaralishi va shakllanishini ham o`z ichiga olgan holda tashkil qilinadi. Shuning uchun ham mavjud savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualarini loyihalayotgan me`morlar ko`rsatilgan xato va kamchiliklarini oldini olishlari kerak [84].

Qarshi, Jizzax va Urganch shaharlari aglomeratsiyasi uchun loyihalanadigan ochiq, yarim ochiq, yopiq savdo bozorlari o`z xususiyatlariga ega bo`lib, shaharsozlik masalalarini yechishda ularga tashrif

buyuruvchi ko`p sonli xaridchlarni va katta miqdordagi yuk oqimini e`tiborga olishni talab qiladi.

Birinchi omil:

- savdo majmulariga kirish va chiqishni tashkil etishni talab qilib,
- ikkinchisi tovarlar va mahsulotlarni yetkazib berish maqsadida avtotransport yo`llarini tashkil etishdir.

Shu sababli bu inshootlarning o`ziga xos talablarini inobatga olgan holda, ya`ni, yarim ochiq savdo bozorlarining aholini oziq-ovqatlar, birinchi navbatda tez buziladigan mahsulotlar bilan ta`minlashida istemolchiga eng yuqori darajada yaqin bo`lishi zaruriyatidan kelib chiqib, ularni xizmat ko`rsatish qulay bo`lgan shahar va tumanlarida joylashtirish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Bunda rejadagi xizmat ko`rsatish radiusini, ya`ni, yarim ochiq bozor va xaridor orasidagi eng ko`p uzoqlashuv oralig`ini nazarda tutish zarur. Savdo majmularida asosan transport vositasida kirish qulay bo`lishi va tashqi yuk oqimi hamda xaridchlarni harakatlanayotgan oqim alohida bo`lishi kerak.

Sanitariya talablariga ko`ra yarim ochiq savdo bozorlari ifloslanishi va chiqindilardan zararlanish joylaridan kamida 1,5 km, o`zidan chang hamda kuchli hid ajratuvchi omborxona va sanoat korxonalaridan kamida 500 m uzoqlikda bo`lishi zarur.

Yarim ochiq, va yopiq savdo bozorlar katta oraliqli binolar bilan bo`lganligi sababli, ularning loyihalash va joylashtirilishda, shahardagi boshqa binolar bilan uyg`unlashgan arxitekturaviy ansambl yaratilishga harakat qilish kerak [84].

Savdo majmualari uchun ajratilgan yer maydonini loyihalashda xaridchlarni qulaylik yaratish va ularning avtomobillar turish joylarini belgilash maqsadida bozor oldi maydonlarining tashkil etilishi, shuningdek, savdo majmualari binosi, yozgi va qishgi savdo maydonlari va xo`jalik avtotransporti turish joylaridan kirish qulay bo`lgan ochiq ombor maydonlari nazarda tutiladi [70, 71].

Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularining savdo o`rinlari pavilion tarzida qurilganda nisbatan yaxshiroq jihozlangan savdo o`rinlарini tashkil qilish imkoniyati yaratiladi. Ular mahsulotlar bilan qulay ta`minlanishi, shuningdek, omborxona, sanitariya-nazorat shaxobchalariga yaqin bog`lanishda ega bo`lishi va sotuvchining ishlashi uchun qulay hamda sotuvga qo`yilgan mahsulotlaring to`liq ko`rinishi shartlariga javob berishini ta`minlash imkonini yaratadi [82].

Stasionar savdo o`rinlari joylashtirish usullarini taqqoslash natijasida, uzunasiga devorlar bilan o`rash usuli, ko`p zalli bozorlarda esa

devorlar yordamida bir-biridan ajratilgan savdo zallari ijobi yihatlarga ega ekanligini ko`rsatmoqda. Savdo-sotiq o`rinlarini guruhlash talablari asosida, turli xil mahsulotlar savdosi mumkin bo`lgan «mahsulot qo`schnichiligi» quyidagicha ta`minlanadi [84]:

- devor yuzalari, orayopmalar, vitrajlar va zamin yuzalari silliq va uzoq vaqtga chidamli hamda tozalash qulay bo`lishi (suv bosimi ostida yuvishga mo`ljallangan), shuningdek, savdo jihozlari (rastalar, stendlar va boshqalar) suv va havo o`tkazmaydigan va qulay tozalanadigan silliq qoplamlarga ega bo`lishi kerak;

- savdo zalining intereridagi ranglar mahsulotlar rangini neytrallashtirmay, balki tabiiy ranglarni yaqqol ko`rsatish xususiyatiga ega bo`lishi - xaridorga taqdim etilayotgan mahsulotlarga baho berishga to`sinqilik qilmasligi zarur. Shu sababli bozor intererida asosan yorqin, oq, kolorit ranglardan foydalangan ma`qul.

Yuqorida ko`rib o`tilgan hajmiy-fazoviy tuzilmalarni ikki guruhga bo`lish mumkin:

- katta (bir butun) oraliqli notarqoq muhitli bozorlar (bir zalli) va ko`p oraliqli bozorlar o`zora almashinuvchi katta hamda kichik o`lchamli bo`ladi (ikki va uch zalli). Katta oraliqli yopiq bozorlarning hajmiy-rejaviy tuzilishi ko`p hollarda yopmalar konstruksiyasiga bog`liq. Katta oraliqli binolarda konstruksiyaning tayanch qismlarini aniqlash, ya`ni tektonik vositani aniqlash dolzarb ahamiyatga ega.

Zamonaviy aglomeratsiya sharoitlarida aholiga savdo-maishiy xizmat ko`rsatish va umumiy ovqatlanish savdo korxonalar, shuningdek, uyushmagan, alohida yoki qo`shimcha qurilgan obyektlarga nisbatan barcha xizmatlar bir joyda mujassamlashtirgan binolar komplekslari - savdo majmualari katta rol o`ynamoqda.

Bu, o`z navbatida, aholiga qator qulayliklarni sezilarli darajada tug`diribgina qolmay, balki savdo va madaniy-maishiy korxonalar ishlarini tashkiliy jihatdan yaxshilashga imkon beradi. Boshqa savdo va xizmat ko`rsatuvchi korxonalariga nisbatan savdo markazlari qator afzallikkalarga ega bo`lib, bunda transport va yo`llarni kesib o`tish muammolari hal etiladi hamda tumanlardagi uy-joy hududlari zonalashtiriladi [8].

Savdo va maishiy xizmat ko`rsatish korxonalarini mujassamlashtirgan holda joylashtirish, xaridorlar talablarini keng qamrovda qondirib, zaruriy qulayliklar yaratiladi. Konstruksiyalarni unifikasiyalash va bir rejaviy sistemani qo`llash asosida qurilish muddatlari qisqaradi. Bu murakkab va xilma-xil binolar majmuasini loyihalashda keng kompozision imkoniyatlar ochiladi [32].

Aglomeratsiyada savdo majmularining klassifikasiyasi va xizmat ko`rsatish tizimining tashkiliy prinsiplari katta ahamiyatga egadir. Chakana savdo korxonalar, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmat ko`rsatish tarmoqlarini tashkil etish aglomeratsiyadagi shaharlar va tumanlarning tarkibiy rejalshtirilgan o`lchamlariga va aholi soniga bog`liq holda yechiladi [8, 9].

Shu sababli xizmat ko`rsatish tarmog`i, zonalar, hududlar va ayni vaqtida xizmat ko`rsatishning turi hamda xarakteri bo`yicha tabaqaqlashtiriladi.

Shunday qilib, Aglomeratsiya darajadagi savdo majmualari sig`imi va turini belgilanish maqsadiga ko`ra aglomeratsiya asosiy shahrining zinch joylashgan katta turar joy massiviga yoki butun aglomeratsiyaga xizmat ko`rsatuvchi savdo markazlari turlariga bo`linadi.

Aglomeratsiya darajasidagi savdo majmualari aholiga xizmat ko`rsatish shakli bo`yicha yana bir afzallikka ega ekanligini ko`rsatab o`tish joiz, bunda markazlashgan taminlashdagi real imkoniyatlar yaratiladi, sezilarli darajada do`konlarning mahsulot bilan ta`minlanishi hamda xo`jalik omborlari joylashishi soddalashadi.

Mahsulotlar ba`zi omborlardan tuman savdo markazlari omborlariga keltirilib, savdo qilish ko`rinishida tayyorlanadi va shahar omborlariga jo`natiladi. Bu, o`z navbatida, shaharlardagi xo`jalik omborlarining qisqarishiga olib keladi. [81].

Hulosa qilib aytganda aglomeratsiya darajasidagi savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari loyihasini ishlab chiqishda tashqi tabiiy-iqlimiyl sharoitlar va ichki murakkab funksional-teknologik jarayonlarning ta`siri ostida vujudga keladigan arxitekturaviy-rejaviy yechimlarini shakllantirish xususiyatlari katta ahamiyatga ega.

Arxitekturaviy yechimlarda piyodalar va transport harakatini rasional tarzda tashkil qilinishi ham katta ahamiyatga ega bo`ladi. Kelgusida O`zbekiston viloyatlari uchun aglomeratsiya darajasidagi savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini zamонавиy talablar darajasida loyihalash amaliyoti va qurishni yanada takomillashtirish masalasini hal etishda arxitektorlar va qurilish sohasidagi kadrlar zamонавиy ilmiy-teknika taraqqiyoti yutuqlariga asoslangan bo`lishi kerak [90, 96].

Bu esa o`z navbatida binolar tipini tashkil etilishi bilan birga, ularni sistematik tarzda o`rganishni taqozo etadi. Ularni shaharsozlikdagi vazifasini, konstruktiv yechimini, ijtimoiy-iqtisodiy tomonlarini, badiiy-arxitekturaviy yechimlarini, bino tiplari nomenklaturasini, tasnifini, normalarini va xonalar turkumlarini aniqlab berishga imkon yaratadi.

Bulardan tashqari, binolar tipologiyasida klimatologiya masalalari, arxitekturadagi yong`indan himoyalashni ta`minoti, akustikani va evakuasiyani tashkil qilishni tashkillashtirishni taqozo etadi.

### **3.2. Viloyatlar markazlarida Aglomeratsiya savdo va maishiy xizmat ko`rsatish obyektlarini shakllantirishda mahalliy omillarning ta`siri**

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasi” IV bo`limi “*Ijtimoiy sohani rivojlantirishni ustuvor yo`nalishlari*”ga qaratilgan bo`lib, uning 4.1. bandida “Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish”ga e`tibor berilib, jumladan obyektlarni loyihalash va qurishda tegishli tartib o`rnatish, shaharlar va aholi punktlarini kompleks rivojlantirish bo`yicha qabul qilinadigan loyiha yechimlari sifatini oshirish, shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi talablari asosida tasdiqlangan shaharsozlik me`yorlari va qoidalariga rioya etilishini ta`minlashga qaratilishi-bugungi shaharlarimizni zamon talablariga mos ravishda rivojlantirish zarur” deb ta`kidlangan [1].

Biz kundalik hayotni jamoaviy tashkil etish va odamlarning har tomonlama rivojlangan jamoat va shaxsiy hayotiga intilamiz. Bu, qoida tariqasida, qanday yangi turdagи binolar va majmular bo`lishi kerakligini aniqlaydi:

- binolarni tarkibi va maydoni;
- turar-joy va jamoat binolarining rejalashtirish tuzilmasi;
- ularning eng maqbul qavatlar soni;
- ularni o`zaro joylashtirish tizimi;
- ularning bir-biriga munosabati.

Bu butun majmular va alohida binolar uchun kompozision yechimlar uchun moddiy shartlarni yaratadi. Shu bilan birga, binolarning tashqi qiyofasida, xonodonlar va jamoat binolarining ichki ko`rinishi ularning maqsadi, ularda sodir bo`layotgan jarayonlarning mohiyatini to`g`ri aks ettirish, zamonaviy teknik vositalar yordamida aks ettirish vazifasi qo`yilmoqda.

Aynan, hozirgi kunda, respublikamizdagi ko`pgina shaharlar ayniqsa, Qarshi, Jizzax, Urganch kabi yirik shaharlar Aglomeratsiya markazlariga aylanib bormoqda. Bu esa, davlatimizning olib borayotgan to`g`ri siyosatining natijasi bo`lib, O`zbekistonda Aglomeratsiya darajadagi savdo

majmualari modelini shakllantirishni yangi bosqichga ko`tarish zarurligini ko`rsatmoqda [11, 12].

Zamonaviy savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari - bu turli ko`rinishdagi ko`p strukturali, shaharsozlik vaziyati, sig`imi va hajmi jihatidan, savdo maydonlariga qo`yiladigan talablarni jamlash natijasida kelib chiqadi. Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmua binolarini loyihalashda ularni rasional joylashtirish natijasida obyektga sarflangan harajatlarni qoplay olish muddati qisqaradi va savdo maydonining umumiy foydali ish koeffisiyenti butun majmuuaning rentabelligini ko`p martagacha oshiradi [19, 21].

Dunyo tajribasiga ko`ra, savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmuasi umumiy maydonning 50-60% gacha bo`lishi kerak. Bu qiymat ortib ketsa, markazning tavar va maxsulotlar bilan to`lmasligi va ijara haqqi yuqori bo`lganligi sababli uning joylashuvi foyda keltirmasligi mumkin [50, 64].

O`tmishda keng tarqalgan aholiga pog`onali xizmat ko`rsatish sistemasida savdo muassasalarini joylashtirish usuli, bugungi kunda qo`llab bo`lmaydi, chunki o`sha davrda savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari davlat tomonidan qattiq nazorat ostida bo`lgan. Bugungi kunda savdo-maishiy xizmat ko`rsatish muassasalarini rivoji xususiy tadbirkorlik asosida rivojlanmoqda.

Shahar aholi punktlarini rejalashtirishda respublikada aglomeratsiyalarning markazlari hisoblanadigan shaharlarda aholini joylashtirishni va savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualarini tashkillashtirishning o`ziga xos xususiyatlarini o`rganish o`ta muhim ahamiyatga ega bo`lib, davlat darajasidagi masalaga aylangan. O`zbekistonda viloyat markazlari-aglomeratsiya yadrolari rivojlanishi ustuvor ekanligini hisobga oladigan bo`lsak, bu masalaga shunchalik katta e`tibor qaratilishini ochiq-oydin e`tirof etish mumkin [36, 45].

Qashqadaryo, Xorazim, va Jizzax viloyat va shahar hududida savdo majmualarini aglomeratsiya guruhli aholi joylashuvi sxemasi:

- 1-hududiy aholi joylashuvi va viloyat ma`muriy chigarasi;
- 2-viloyat markazi asosidagi aholining guruhli joylashuvi;
- 3-tumanlararo mahalliy aholi joylashuvining chegarasi;
- 4-tuman mahalliy aholi joylashuvining chegarasi;
- 5-tumanlararo mahalliy aholi joylashuvining markazi;
- 6-tuman mahalliy aholi joylashuvining markazi.

Respublikamizda jahon tajribasini qo`llagan holda nazariy va amaliy bilimlarga tayanib aglomeratsiyalarda shahar aholi punktlarini rivojlantirish loyihalari amalga oshirilmoqda. Shaharlarni rejalash-tirishda mintaqani tabiiy va iqlim sharoitlarini o`rganib, aholining turmush tarzini hisobga olgan

holda barcha sharoitlarga ega bo`lgan savdo-maishiy xizmat ko`rsatish binolarini kompleks tarzda loyixalash va qurish talab qilinadi.

Shaharsozlik omili bu:

Shaharsozlik omillari jamoat binolarini shaharning rejali tuzilmasidagi joylashuvini belgilab beradilar.

Viloyat va shahar aholi punktlaridagi istiqomat hududlarining rejali tuzulmasini jamoat markazlari, turar-joy imoratlari, ko`cha-yul tarmog`i, umumiy foydalanishdagi ko`kalamzorlashtirilgan hududlarning o`zaro bog`lanishini va, shu bilan birga, umuman, aholi punktining maydoni va hududining tabiiy-iqlimi sharoitlariga bog`liq bo`lgan rejali tuzilmasini inobatga olgan holda joyhalashtirish lozim.

Shaharlarda o`z tarkibida umumshahar markazi, rejalarshirilgan hududlar (zonalar) markazlari, jamoat, turar-joy zonalari, dam olish zonalari, kundalik ehtiyojlar uchun savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari, shuningdek shahar yaqinida joylashtirilishi mumkin bo`lgan mavjud bo`lgan jamoat markazlari tizimini shakllantirish lozim [22, 87] (*3 bob 35-ilovada*).

Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualarini shaharning rejalarshirish strukturasida joylashishini hal qiladi. Shahar hududi asosan, funksional foydalanishni e'tiborga olgan holda seliteb, ishlab chiqarish va landshaft-rekreasion qismlarga ajratiladi. Seliteb hududda turar-joy fondi, jamoat bino va inshootlari joylashtiriladi.

Jamoat binolarining soni, tarkibi va joylashtirilishi shahar kattaligiga, hudud funksional-rejaviy tashkillashtirilishiga va uning

aholini joylashtirish sistemasidagi roliga qarab qabul qilish maqsadga muvofiqdir [107]. Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari uchun tanlangan maydon, unga kirish va chiqish joylarning qulayligi hamda jamoat va individual transport uchun to`xtash joyi bilan ta`minlashi nuqtai nazaridan tanlanadi [28, 72].

Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualarini tashkilashtirilishi va rejalarshirilishi bog`liq ravishda o`zining o`lchamlari bilan umumshahar markazining yadrosini tashkil etuvchi o`zaro bog`langan jamoat fazoning (shoh ko`chalar, maydonlar, piyoda yurishiga mo`ljallangan zonalar) tarkibiy rivojlashiga bog`liq bo`lib qoladi. Bu esa, qurilish zonasini chegarasida mavjud tarixiy muhitning butunligini ta`minlash sharti bilan umumshahar markazining yadrosini to`liq yoki qisman tashkillashtirishni tartibga keltiradi.

Shahar aholi punktlarining loyihibaviy strukturasini shakllantirish, shahar hududining kompleks rivojlanishi ta`minlash, aholi yashash sharoitini va unga savdo-maishiy xizmat ko`rsatish darajasini yaxshilash, shahardagi ishlab chiqarishni rivojlantirish, atrof-muxit muhofazasi, tabiiy va inson

resurslaridan unumli foydalanish va rekreation xizmatlarni tashkillashtirish hozirda katta ahamiyatga ega [72, 74].

Aglomeratsiya markazi hisoblanadigan shahar bosh rejasi aholi punktini rivojlantirishni uzoq muddatli istiqbollari, uning rejalashtirish tuzilmasi, turar joy, ishlab chiqarish, kommunal-ombor va boshqa funksional zonalarni joylashtirishni, aholiga ijtimoiy xizmat ko`rsatish tarmoqlari, transport va muhandislik tizimlari, shuningdek, atrof muhitni muhofaza qilish yo`nalishlarini belgilovchi asosiy shaharsozlik hujjati hisoblanadi.

Bosh rejada ko`chalar va maydonlar tizimi, shaharning jamoat va savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini bosh markazi, mahalla markazlari, turar-joylar, jamoat binolari, ishlab chiqarish, ombor, kommunal obyektlarining joylashuvi, umumiyl foydalanishdagi yashil ko`kalamzorlar, atrof muhitni, tabiat va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish bo`yicha chora-tadbirlar, shuningdek, ishlab chiqarish va turar joylarni rivojlantirish uchun zahiradagi hududlar ko`rsatiladi [72, 76].

Bizning ishimizda Qashqadaryo, Xorazm va Jizzax aglomeratsiyasi markazi hisoblangan Qurshi, Urganch va Jizzax shaharlarida mavjud savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularining joylashtirish bo`yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan:

- Aglomeratsiya savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularining shahar strukturasida joylashuvi, funksional tarkibi va tabiiy-iqlim sharoitlariga moslashtirish yo`llari ishlab chiqilgan;

Qurshi, Urganch va Jizzax shaharlarida savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmulari mikroiqlimini mahalliy tabiyi-iqlimi sharoitlarga moslashtirish va bog`lash yo`llari tavsija qilingan;

O`zbekistonda qulay iqlim sharoiti (issiq davr davomiyligi) savdo majmuasi maydonlarini tuzishga olib keldi:

**I.** Ochiq turdagı savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmuasi qo`yidagicha bo`lib chiqildi:

1. Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularining ochiq turda tashkil qilish uchun asosiy savdo ko`chalari ochiq bo`lib uning atrofidan turli savdo va maishiy xizmat ko`rsatish korxonalarini joylashtiriladi.

Ochiq turdagı savdo va maishiy xizmat ko`rsatish majmulari iqtisodiy jixatda samarali hisoblanadi. Savdo va maishiy xizmat ko`rsatish majmular iqlimi mutadil shaharlaridan masalan Jizzax viloyatida tashkil qilinadi.

**II.** Yarim ochiq turdagı savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmuasi qo`yidagicha bo`lib chiqildi:

1. Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularining ochiq turda tashkil qilish uchun asosiy savdo ko`chalari ochiq bo`lib uning atrofidan turli savdo va maishiy xizmat ko`rsatish korxonalari joylashtiriladi.

Yarim ochiq turdag'i savdo va maishiy xizmat ko`rsatish majmulari asosiy savdo ko`chalari ochiq va yopiq turda tashkil qilinadi. Savdo va maishiy xizmat ko`rsatish korxonalari ko`chalar bo`ylab joylashtiriladi. Bunday savdo va maishiy xizmat ko`rsatish majmularini dashli tekis hududlarda tashkil qilinadi. Masalan Qashqadaryo viloyatida tashkil qilinadi.

**III.** Yopiq turdag'i savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmuasi qo`yidagicha tashkillashtiriladi:

1. Yopiq turdag'i savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularining asosiy yopiq savdo ko`chalari atrofida kompakt shakllantirishda tashkil qilinadi. Bunda savdo va maishiy xizmat ko`rsatish majmulari xaridorlarning salbiy iqlimi sharoitlarda to`liq himoyalash mumkin. Bunday savdo va maishiy xizmat ko`rsatish majmularini asosiy cho'l ta'sirida bo'lgan shaharlarda tashkil qilinadi. Masalan Xorazm viloyatida tashkil qilinadi.

Qarshi, Urganch va Jizzax shaharlarida savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini rivojlantirishda rejaviy xilma-xillik va kompozision birlikka erishish yo'llari tavsija qilingan: (*3 bob 37-ilovada*).

Yuqorida fikrlar asosida xulosa qilsak, qurilish uchun tanlangan joy har tomonlama qulay bo`lib, shahrimizda turizmni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarning bir yo`nalishi deb qarash mumkin.

Majmua markazlarining muvafaqqiyatlari faoliyat ko`rsatishi uchun mavjud odamlar oqimi yunalishiga to`sinqlik qilmaydigan bir necha kirish joylari tashkil kilingan bo`lib, bu odamlar oqimini tartibga keltirishga hamda savdo markazining ta`sir zonasini kengayishiga olib keladi. Bu o`z navbatida, shahar aholisi va shaharga kelayotgan har bir mexmon yoki turist bu markazda savdo qilishi va ko`ngil ochib dam olib ketishiga imkon ochiladi.

Tahlil natijasida Qarshi, Urganch va Jizzax shaharlarida hozirda mavjud ko`pchilg savdo va maishiy xizmat ko`rsatish korxonalari yagona majmular sifatida birlashtirilmagan, alohida olingan kichik-kichik savdo muassasalari sifatida ish yuritib kelgan. Oxirgi yillar davomida juda katta hajmdagi Qarshi shahridagi “Yerqurg'on” bozori “Eski shahar savdo majmuasi” Urganch shahar markazida mavjud Urganch markaziy savdo bozori, Jizzax shahridagi markaziy dehqon bozorlari kabi savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmulari barpo qilingan. Ushbu savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmulari aglomeratsiya darajasidagi xizmatlarni tashkil qilishga yo`naltirilgan.

Viloyatning barcha tumanlaridan keladigan sotuvchilar va xaridorlar Qarshi, Jizzax, va Urganch shaharlari markazidagi ushbu savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmuasidan foydalanishadi. Ko`rib chiqilgan savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularida transport va piyodalar hamda imkoniyati cheklanganlar uchun o`tish yo`laglari tashkil topmaganli mavjud.

Ko`chaning o`ng tarafida esa arendaga beriladigan savdo majmualari va oziq-ovqat dehqon bozorlari mavjud. Ushbu joyda transport va piyodalar harakatini tashkillashtirish muhim ahamiyatga ega. Bizning kuzatuvlarimiz va tahlil shuni ko`rsatadiki, umuman olganda bu hududlarda piyodalar va jamoat transporti qatnovi uchun qulayliklar kerakli darajada yaratilmaganligini ko`rshimiz mumkin.

Qarshi shahridagi “Yerqurg`on” bozoriga tutash bo`lgan joyda mavjud “Sevinch” majmuasi ko`cha kengligi bo`ylab joylashgan va transport harakatlanadigan yo`ldan ma`lum masofada joylashmaganligi sababli avtotransport xarakatlanishiga noqulaylik to`g`diradi. Qarshi, Jizzax Urganch shahar markazlarida bo`lgan mavjud savdo majmualari atrofidada avtotransport vositalariga ajratilgan joylar aniq reja asosida tashkil qilinishi talab qilinadi, chunki bu avtoturargohga katta ko`cha bo`ylab xarakatlanish tashkil qilingan.

Ushbu holatlar bir qator negativ jarayonlarni yaratib, ushbu hududda joylashgan savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari faoliyatiga to`sinqinliklar yaratadi.

Buning uchun majmua atrofida me`moriy rejalashtirish asosida tashkil qilingan piyodalar va transport harakati savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari komfortligini oshiradi, zamонавиј таъбларга мувофиқ ravishda mavjud shahar markazida aglomeratsiya darajasidagi xizmat ko`rsatish majmuasini tashkil etishga imkon yaratadi [81, 85, 86].

Shuningdek o`rganilayotgan viloyatlarda savdo majmuasiga tutash ko`chaning ikki tomonida mavjud savdo va maishiy xizmat ko`rsatish korxonalari va muassasalari uchun piyodalar harakatini tashkil qilish ham muhim ahamiyatga ega bo`ladi. Hozirda piyodalar katta oqimlari ko`chaning bir tomonidan ikkinchi tomoniga o`tish uchun transport harakatiga to`siqlar yaratmoqda. Tirbandlik masalasini yechish uchun piyodalar va imkoniyati cheklanganlar uchun yer osti yoki yer ustki o`tish yo`lagi tashkil qilinishi maqsadga muvofiq bo`ladi [100].

Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari uchun tanlangan maydon unga kirish va chiqish joylari, jamoat transporti bilan bog`lanishlar va individual transport uchun avto turargohlar bilan ta`minlanganligi nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi va loyiha takliflar asosida tashkil qilindi.

Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularining ommabopligi va mashhurligi ham shunda. Shu sabab, bozorning bu segmenti aglomeratsiyalar darajasidagi markazlarda tez rivojlanmoqda [36, 62, 86].

O`zbekiston viloyatlari markazlari-aglomeratsiyalar yadrolarida zamonaviy savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularining rivojlanishi qisqa tarixiy davr bilan o`lchanadi. Ma`lumotlarni yetishmasligi yangi turdagи savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari, ya`ni aglomeratsiya darajasidagi markazlarni rivojlanishiga jiddiy to`sinqinlik qilib kelmoqda [108, 110].

Amalda mavjud bo`lgan me`yoriy hujjatlar loyihalash ishlari uchun yetarli bo`lmay qolmoqda. Zamonaviy ommabop savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini loyihalash mavjud ehtiyojlarini qondira olmasdan qolmoqda. Chunki ularda transport va piyodalar uchun yetarlicha sharoit yaratilмаган.

Mavjud savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari zamonaviy savdo va xizmat ko`rsatish texnologiyalari va yangi formatlari rivojlanishidan ortda qolmoqda. Masalan, yirik maydonli savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualaridan tashkil topgan savdo markazlari yoki ko`p funksiyali majmualarga qo`yiladigan maxsus talablar asosida loyihachilar uchun zaruriy bo`lgan me`yoriy hujjat va adabiyotlarni tayyorlash yo`lga qo`yilmagan va loyihalash uchun ma`lumotlar yetishmasligi tufayli yurtimizda barpo bo`layotgan ko`pgina savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari chet el savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualaridan to`g`ridan to`g`ri nusxa olish bilan cheklanmoqda. Bu esa mavjud qurilish hududiga oid tabiiy-iqlimiylar va an`anaviy bozorlarga xos bo`lgan qiziqishlarni e`tiborga olinmasligini ko`rsatmoqda [82].

O`zbekiston viloyat markazlari - aglomeratsiya yadrolarida savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmuarining muvaffaqiyatli ishlashi va bunday binolarni loyihalash uchun arxitektorlar va dizaynerlar, injenerlar va texnologlar, quruvchilar va marketologlar, jihozlar bilan ta`minlovchilar va savdo bo`yicha mutaxassislar to`planishib, ularni birgalikda ishlashini tashkil etish maqsadga muvofiq bo`lib qolmoqda [15, 17, 108].

Bo`lajak loyiha yechimlarida savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualarini zamonaviy rivojlanish tendensiylari ochib berilishi kerak. Shu sababli aglomeratsiya markazlarida har xil darajadagi savdo va xizmat ko`rsatish turlarini tashkil qilishning yangi tamoyillari o`rganish muxim ahamiyatga ega. Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualarini loyihalash va qurish nuqtai nazaridan aholi uchun qulay sharoitlar yaratish va hududning o`ziga xos xususiyatlarini hisobga olish dolzarb masala sanaladi [100, 101].

Hulosa qilib aytganda, Aglomeratsiya savdo-maishiy xizmat majmualari arxitekturaviy yechimlarida piyodalar va transport harakatini rasional tarzda tashkil qilish ham katta ahamiyatga ega bo`ladi. Kelgusida Aglomeratsiya darajasidagi savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualarini zamonaviy shaharsozlik talablar darajasida loyihalash amaliyoti va qurishni yanada takomillashtirish masalasini hal etishda arxitektorlar va qurilish sohasidagi kadrlar zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslangan bo`lishi kerak [97].

Ana shu nuqsonlarni bartaraf etish, fan-texnika yutuqlaridan oqilona foydalanish, zamonaviy me`morchilikning eng yaxshi qirralarini o`zaro uyg`unlashtirish shu kunning dolzarb masalalaridan biridir [74, 75].

### **3.3. Viloyatlar markazlarida Aglomeratsiya savdo va maishiy xizmat ko`rsatish majmualarini arxitektura - loyihamiy tashkil etish bo`yicha taklif va tavsiyalar**

O`zbekiston hukumati ilmiy-texnika taraqqiyotining rivojlanishini jadallashtirish va turar-joy, jamoat va sanoat binolarini barpo etish, yangi qurilish materiallari va konstruksiyalarini ishlab chiqarishning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashni ustuvor yo`nalishlar qatoriga kiritgan [5].

Mamlakatimizda o`tkazilgan ko`p sonli tadqiqotchilarning izlanishlariga qaramay, respublikamizning barcha shaharlarida, jumladan, Jizzax, Qarshi va Urganch shaharlarida barpo etilgan ko`pgina savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari va yirik savdo markazlari, hamda ularni loyiha takliflarida ko`p hollarda quruq-issiq iqlim sharoitiga moslashtirilmasdan joylashtirilganligi va xaridor uchun qulay sharoit yaratilmaganligi hamda avtoturargoh zonalari uchun yetarli joy ajratilmaganligi kuzatiladi.

Xaridorlar o`z istaklarini amalga oshirish va xizmatlardan foydalanish uchun ko`p vaqt yo`qotishlari hamda yosh bolalar va qariyalar hamda imkoniyati cheklanganlar uchun dam olish zonalari tashkil qilinmaganligi, mahalliy va chet el turistlariga mos shart-sharoitlar yaratilmaganligi oqibatida savdo majmualarning foydali ish koeffisiyenti va samarasи past bo`lib kelmoqda [1, 23].

Yuqorida aytib o`tilgan kamchiliklarni e`tiborga olgan holda, O`zbekiston viloyat markazlari uchun yangi turdagи arxitekturaviy-loyihaviy yechimga ega bo`lgan zamonaviy Aglomeratsiya darajadagi savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualar loyihalarini shaharsozlik tamoyillari va modeli asosida ishlab chiqish, takomillashtirish va yaratish dolzarb va amaliy jihatdan muhim masala hisoblanadi [97].

Viloyat markazlarida Aglomeratsiya savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularining zamonaviy modellari D.Begimova ishlab chiqqan madel taklif va tavsiyalar uchun ko`rshimiz mumkin:

Aglomeratsiyalarning makondagi rivojlanishining bir qator modellarini ajratib ko`rsatish mumkin:

- bir markazli;
- ko`p markazli;
- tarqoq;
- chiziqli.

Bir markazli modelning afzalligi shundaki, aglomeratsiya doirasi resurslarning mujassamlashuvini ta`minlash va ularni mahalliy hududlar rivojiga yo`naltirish mumkin. Bunda kichik turar-joy jamoat binolari va sanoat zonalari, transport va infratuzilmaning samarali tarmoqlari barpo etilishini kuzatish mumkin. Modelning kamchiligi shundaki, dolzarbligini yo`qotgan yo`ldosh shaharlar resurslarini boshqa hududlarga “oqib” chiqib ketishi natijasida rivojlanmay qoladi.

Bu model aholi manzilgohlarining notekis rivojlanishi natijasida mahalliy mehnat migrasiyasini kuchaytiradi. Model ko`proq rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan O`zbekistonga ham xosdir (Qarshi, Jizzax, Urganch va boshqa shaharlar aglomeratsiyalari uchun).

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, aglomeratsiyalar tarkibiy tuzilishining ikki modeli mavjud:

- bir markazli va ko`p markazli, tarqoq va chiziqli submodellar alohida model hisoblanmay, yuqoridagi modellar tarkibida uchraydi. Aglomeratsiyaning qaysi model asosida rivojlanishi uning tarkibidagi shahar va tuman aholi manzilgohlarining joylashuvi, hududiy mehnat taqsimotidagi o`rni va ixtisoslashuvi hamda o`zaro aloqalarning mazmunidan kelib chiqadi [99, 101].

Aglomeratsiyalarning rivojlanishida ham ijobiy, ham salbiy natijalarni kuzatish mumkin. Hududning aglomeratsiya shaklida rivojlanishning ijobiy jihatlariga yuqori malakali kadrlarni jalb qilish uchun qulay sharoit yaratilishi, aholi turmish darajasining o`sishi kabilarni kiritish mumkin, salbiy jihatlari sifatida aholi migrasiysi natijasida ba`zi aholi manzilgohlarining bo`shab, rivojlanmay qolishi va mahalliy boshqaruvning susayishini e`tirof etish mumkin.

Shu o`rinda modelning bir kamchiligini ham ta`kidlab o`tish lozim: ko`p markazli aglomeratsiyalarning faoliyatining tashkil etishda infratuzilmani barpo etish xarajatlari ancha yuqori bo`ladi. Shunga qaramay, ushbu model hududida ishlab chiqarish korxonalari va infratuzilma

obyektlarini oqilona va qulay joylashtirish, insonlarning mehnat qilish, yashashi va dam olishi munosib sharoit yaratish yo`li bilan aholi turmish darajasi o`sishini ta`minlash imkoniyatiga ega.

Loyihalanayotgan hududda Aglomeratsiya savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularida turli xil funksional va texnologik jarayonlarning amalga oshirilishini e`tiborga olib, markazning qat`iy bir loyiha asosida (maydoni 5000 m<sup>2</sup> dan ortiq bo`lganda) rejalahshtirish talab qilinadi.

Chunki, markaz maydoni katta bo`lgani sababli uzun monoton ko`rinishli galereya perspektivasi bugungi kunda zerikish tuyg`usini uyg`otib, tashrif buyuruvchilarning diqqatini torta olmasligi tabiiy holga aylangan.

Tafsiyalar asosida savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini loyihalash quyidagi mezonlar asosida bajarilishi kerak [63, 64].

1. Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularining janubga qaratilgan tomonlari ortiqcha isib ketishi mumkin. Shu sababli, derazalar o`lchamlari kichik, sharq va g`arbga qaragan devorlarda qoraytirilgan deraza oynalari loyihalanishi kerak.

2. Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmua "narxlar" konsepsiyasiga asoslanmaganligi sababli, bino ichki tuzilishida egrisi-siniq chiziqlar va murakkab ko`rinishdagi qurilmali elementlar bilan tuzilganligini hisobga olib, savdo zalining orqa devorlari yaxshi ko`rinadigan va yoritilganlikka alohida e`tibor qaratilishi kerak.

3. Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmulari uchun juda keng yo`laklar hosil qilinmaydi. Chunki, odamlar o`zlarini bunda "erkin" harakatlanishda yo`qotib qo`yishlari va sarosimaga tushishlaridan tashqari, yo`laklarning tarmoqlanishi xaridorlar oriyentasiyasini murakkablashtirib, oqim yo`nalishini buzilishiga olib kelishi mumkin.

4. Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmua zallari barchaga qulay va sodda bo`lishi uchun atrium va galereya sxemalari tavsiya qilinadi [11, 92] (**3bob 43-ilovada**).

Mijozlarning diqqatini jalb qilish uchun har 100 metrda turli xil rejalahshtirish jozibali savdo nuqtalari joylashtiriladi. Imkoniyati chegaralangan kishilar hamda yosh bolasi bo`lgan onalar uchun markaz binosining har bir burchagiga borish qulay bo`lishi kerakligini e`tiborga olgan holda, binoda ularga mo`ljallangan alohida liftlar ko`zda tutiladi hamda yuz berishi mumkin bo`lgan turli xil holatlarda-yong`in, avariya, zilzila kabi ofatlarga qarshi xavfsizlikni ta`minlash maqsadida evakuasiya yo`llaridagi chiqish eshigigacha bo`lgan eng qisqa masofa asosida loyihalanishi tavsiya qilinadi [22, 24].

O`rganishlardan kelib chiqib, biz Qarshi, Jizzax va Urganch shaharlari uchun savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini loyihalash – respublikamizda amalda bo`lgan asosiy me`yoriy va sohaga oid hujjatlar (Qurilish me`yorlari va qoidalari, idoralararo qurilish me`yorlari asosida) va dunyo amaliyotidan olingan tajriba va ilmiy-amaliy tadqiqot natijalariga tayangan holda, zamonaviy savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini loyihasini ishlab chiqishga tavsiyalar berildi [36, 99].

Infratuzilma obyektlarini Qashqadaryo viloyati arxitektorlari bilan olib borilgan loyiha taklifimiz asosida, Qarshi shahri Nasaf ko`chasi hududidagi savdo va maishiy xizmat ko`rsatish obyektlarini rekonstruksiya qilish va yangi obyektlarni joylashtirish bo`yicha 130 metr bo`lgan loyiha taklifi ishlab chiqildi va foydalanishga topshirildi [102].

Samarqand shahridagi Ko`ksaroy savdo majmuasi loyiha ishlarida qatnashish orqali Aglomeratsiya savdo majmua loyihasi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy qilindi. Ilmiy natijalarning qo`llanilishi hozirgi davirning yangi yo`nalishlarini rivojlanтирish, mazkur sohalarda yangi sahifalarni ochib berish va ulardan unumli foydalanish imkonini ochib berdi.

Taklif va tavsiyalar asosida Samarqand shahridagi xalqa yo`lida Ko`ksaroy savdo majmuasi loyihasi qurilish ishlari amalga oshmoqda. (S. Toshev va muallif bo`yicha)

1. Hudud maydoni: Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmua markazi Samarqand viloyatlararo yo`llar asosida juda qulay va kompakt joylashtirildi.

2. Tuman turi: Hudud maydoni shahar chegarasida, turar-joy, jamoat va sanoat tumanida joylashgan bo`lib, butun shaharga xizmat qilishidan tashqari, mexmonlar va turistlar magistral yo`l orqali kelib, Samarqand, Toshkent, Qashqadaryo, Buxoro, Xiva va boshqa shaharlarga bo`linadi.

3. Hududning transport oqimi: shaharning asosiy transport oqimining katta qismi, ushbu hudud ichidan o`tadi va barcha asosiy magistrallar bilan bog`langan. Shahar yo`llari va magistrallar ahvoli “yaxshi”, yaqinda ta`mirlashdanchiqqan. Yo`llarning yuklanish darajasi o`rtacha.

4. Tumanda jamoat transportining harakati: shaharning barcha yo`nalishlari bo`yicha harkatlanuvchi jamoat marshutlari mavjud, tanlangan qurilish maydoninig yaqinida jamoat transporti uchun to`xtash joyi va bekatlari mavjud.

5. Viloyatlarda savdo-majmualarning rivojlanishi: shaharda yirik savdo markazlari boshqa tumanlarda va shahar chetida joylashgan, ushbu viloyatlarda yirik savdo markazi yo`q. Kichik savdo do`konlari va bozori mavjud.

6. Hududga tovar (mahsulot)larni yetkazish: yirikmagistral yo`lida joylashganligi sababli, muammo tug`dirmaydi.

1. Taklif etilgan savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmular me`moriy jihatdan juda ixcham joylashgan. Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmuasida kino-konsert zali, restoranlar, kafelar, barlar, klublar, magazinlar, o`yin zallari va banket zallari, shu jumladan, bank va nomozgohlar ham mavjud. Bu esa ularning butun aglomeratsiya aholisiga xizmat ko`rsatishi uchun yaxshi sharoit yaratadi (**3 bob 48-ilovada**).

2. "Magnitlar" yoki "yagona tortishish"ni - universal do`konlar va oziq-ovqat supermarketlari hosil qilib, strategik nuqtalarda joylashgan do`konlarni va ular orasida joylashtirilgan kichik ixtisoslashtirilgan do`konlar bilan birligida kiritishni nazarda tutish lozim.

Markaz qulay avtoturgotha ega bo`lishi kerak (lekin transport vositalari hududga kirishiga ruxsat berilmaydi), jozibali landshaft rejasи, yuqori darajadagi qulayliklarga ega restoran, sport markazi, kino-zallar, badiiy ko`rgazmalar va boshqa qo`shimcha diqqatga sazovor joylar taklif qilingan [94].

Bularning barchasi uchun, shuningdek, kengaytirilgan savdo kuni savdosi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Bu "qamrov doirasi", ya`ni aglomeratsiyada muvaffaqiyatli ishlashga bog`liq bo`lgan odatiy savdo markazi bo`ladi. "Tabiiy" atrof-muhit muhandisligi, ya`ni kondisioner, progressiv sun`iy yoritish rivojlanishi bilan yopiq savdo markazi yoki "yopiq moll" paydo bo`ladi [11].

3. Ayni paytda, bir tomonidan, shaharlarni betartib rivojlanishi va boshqa tomondan, o`sib borayotgan shahar aholisiga xizmat ko`rsatishga e`tibor qaratilishi talab qilinadi. Shunday qilib, rejalashtirilgan Aglomeratsiya savdo maishiy xizmat ko`rsatish majmularining zamonaviy to`plamlari paydo bo`ladi.

4. O`zbekiston shahar markazlarini qayta qurish bo`yicha dastlabki urinishlar yetarli darajada muvaffaqiyatli bo`lmadi. Qarshi, Jizzax va Urganch shaharlari qayta qurilmoqda, do`konlar va savdo nuqtalarining ahamiyatini hisobga olmagan holda keng transport yo'llarining har ikki tomonida joylashganligi sababli mavjud uchastkalarning foydalanish samaradorligi va transport aloqasi hisobga olinmagan.

5. XX-asrda dunyoning ko`pgina shaharlari markaziy tumanlarini qayta qurish loyihalari amalga oshirildi, ularning aksariyati an`anaviy shahar elementlariga shafqatsiz tarzda munosabatga uchradi va buzildi, turar-joy binolarini va birinchi qavatlardagi standart do`konlar bilan iqtisodiy jihatdan qulay yechimga almashtirildi.

6. Savdo markazi uchastkalari va umumiyojlashishida piyodalar yaxshi kirish imkoniga ega bo`lmaganligi sababli an`anaviy bozorga xos bo`lgan qiziqarli va qulay muhit yo`qolgan [41].

Savdo markazini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun o`ta muhim uning joyleshgan hududi hisoblanadi. Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmuasini joylashtirish uchun viloyat markazining aglomeratsiyadagi boshqa aholi punktlari bilan transport aloqalari hisobga olinishi kerak. Qurilish uchastkasi uchun mos geografik joyleshish hududni tavsiflovchi iqtisodiy jihatlar bilan belgilanadi. Iqtisodiy jihatlar aglomeratsiya yadrosining savdo va maishiy xizmat ko`rsatish majmualariga moslashganligi bilan bog`liq. Boshqa barcha jihatlarda bir xil bo`lishi mumkin bo`lgan ikkita yer uchastkalarini ko`rib chiqishda ularning joyleshuvni va tegishli iqtisodiy ma`lumotlarni diqqat bilan ko`rib chiqish kerak [97].

Savdo majmuasini ko`r-ko`rona tashkil etish xavfini oldini olish uchun, har doim tanlab olingen yer mavjudmi yoki hali ham tegishli joy topilmaganidan qat`iy nazar, savdo markazi joyleshgan hududning mohiyatini hisobga olish kerak [24].

Agar hudud allaqachon tanlab olingen bo`lsa, unda iqtisodchining ishi qurilish maydonining aglomeratsiya doirasida iqtisodiy xususiyatlarini o`rganishga qaratilgan bo`lishi kerak. Uning tadqiqotlari natijalari, u yoki bu tarzda, tanlangan joy savdo markazini qurish va rivojlantirish uchun mos yoki yo`qligini hal qilish uchun asos bo`lib xizmat qilishi kerak. Agar masala ijobjiy hal etilsa, olingen ma`lumotlar asosida savdo markazining hajmi va tuzilishi aniqlanishi kerak [24].

Ushbu tadqiqot metodologiyasi puxta va to`g`ri tahlil qilinganida, odatda aglomeratsiya ahamiyatiga ega savdo majmuasi qurish uchun eng maqbul joyini aniqlashga yordam beradi. Biroq, mavjud hududni tavsiflash uchun yoki savdo markazining yangi joyini yaratish uchun so`rov ham o`tkazilishi muhimdir va asosiy tadqiqot usullari juda o`xhash bo`ladi [48].

Agar aglomeratsiya barcha aholisi savdo markazidan foydalansa, unda iqtisodiy samaradorlik yuqori bo`ladi [63]. Savdo markazining muvaffaqiyatli ishlashini ta`minlash uchun uning joyleshuvni aglomeratsiya tarkibiy qismlari bilan muvofiqlashtirilgan bo`lishi kerak.

Shuning uchun, agar kelajakda markazning kengayishini nazarda tutsak, unda bu dastlabki rejalashtirishda ta`minlanishi kerak. Agar boshida bunday choralar ko`rilmagan bo`lsa, unda ba`zi bir istisno holatlarida, yerni qo`shimcha ravishda olish sharti bilan, markazni kengaytirish hali ham mumkin [21].

Bunday kengayish uchun zaxira joy ko`zda tutilmaganligi sababli, avval avtoturargohlar uchun foydalanilgan joyda yangi binolar qurilishi kerak va bu chora samaradorligini pasaytiradi. Bu esa qandaydir tarzda markazning dastlabki muvaffaqiyatini belgilaydi [11, 21].

Shu munosabat bilan nafaqat yangi do`konlarning, balki butun markazning aylanmasi ko`pincha zarar bo`ladi. Markazning o'sishini rejalashtirishda bu yerda ikkita asosiy masala ko`rib chiqiladi:

- markazni kengaytirishni
- rejalashtirish va bosqichma-bosqich markazni rivojlanterish [21].

1) Ko`pgina hollarda, butun markaz bitta navbatda birgalikda quriladi. Bu shuni anglatadiki, savdo markazining to`liq organizmini tashkil etadigan barcha asosiy elementlar quriladi.

Shu bilan birga, individual do`konlarni kengaytirish, yangi do`konlarni qurish yoki markazni kengaytirishning ikkala usulini ham amalga oshirish imkoniyati ushbu imkoniyat yaqin yoki uzoq kelajakda ishlatalishidan qat`iy nazar, dastlabki reja tuzilayotganda yaratiladi.

2) Markazning rivojlanish bosqichlarini rejalashtirish bunday holda, birinchi bosqichda yakuniy rejaning faqat bir qismi bajariladi. Yakuniy rejaning faqat ba`zi asosiy elementlari quriladi. Savdo markazi har doim o`sib boradigan joyda joylashganida kengaytirishni rejalashtirish tavsiya etiladi [21, 82, 84].

Markazni kengaytirishni rejalashtirish uchun juda ko`p zaruriy shartlar mavjud.

Asosiy shartlardan biri Aglomeratsiya aloqalar rivojlanganligi va savdo markazini transport tugunlari bilan yaqinligi. Transport tugunlari jamoat transporti bekatlari bilan yaxshi bog`lanishlarga ega bo`lishi muhimdir.

Aynan, hozirgi kunda, respublikamizdagi ko`pgina shaharlar ayniqsa, Qarshi, Jizzax, Urganch kabi yirik shaharlar markazlariga savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmulariga talablar ortib bormoqda. Bu esa, davlatimizning olib borayotgan to`g`ri siyosatining natijasi bo`lib, O`zbekistonda rivojlanish strategiyasini shakllantirishni yangi bosqichga ko`tarish zarurligini ko`rsatmoqda [97, 98, 102].

Shu munosabat bilan biz qo`yidagilarni taklif va tavsiyalar asosida:

- aholini zaruriy oziq ovqat va sanoat mollari bilan ta`minlash (logistika) jarayonlarini va uni boshqaruvini tashkillashtirishni takomillashtirish;

- transport texnik vositalaridan foydalanish darajasini ishondchli ta`minlash;

Shaharlar va posyolkalar ishlab chiqarish zonalarini rasional kompleks tashkillashtirishni nazarda tutmog`i lozim, jamoat va madaniy muassasalar tarmoqi, savdo-maishiy korxonalar, transport muxandisligi jixozlari va energetika, mehnat, yashash va odamlarni dam olish uchun eng qulay yaxshi sharoitlarni ta`minlashi kerak.

Shahar aholisining o'sishi bilan uning xududi kengayadi va aholi migrasiyasi jarayonlari kattalashadi. Joylashuv radiusining kattalashuvi bilan piyodalar harakati kamayadi, transportda yurish zichligi oshadi.

Shu maqsadda hozirda fan va texnikaning taraqqiyotini hisobga olgan holda, zamonaviy savdo obyektlarini joylashtirish bo'yicha quyidagi loyihibiy takliflari hamda usullari ishlab chiqildi.

I. 30-80 km lik shahar ichidagi "Aglomeratsiya" savdo majmualari:

- shahar ichidagi savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari ba`zan yashil maydon savdo majmualari deb ataladi. Ular jozibadorlikni ta`minlash uchun ijara chilarning tarkibida o`ta kuchli bo`lishi va ularga kelgan mehmon behuda kelmaganligini his qilishi uchun muhim maydonga ega bo`lishi, katta hajmdagi dam olish punktlari sanitari gigiyenik uzellari bilan birgalikda yangi yo`l bo`yi turizm majmualari, chekish uchun maxsus joylar, tibbiy avariya chaquruv uzellari, savdo majmualari, oshxona yoki choyxona, bankomatlar, kemping, rotellar (tog`li xushmanzara hududlar uchun) binolari majmua tarzida loyihalanishi maqsadga muvofiq.

II. 80-100 km lik "Aglomeratsiya" katta hajmdagi davlat ahamiyatidagi yo`llarda savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari:

- Aglomeratsiya savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularining qamrov radiusi asosida savdo majmualari viloyat (shahar), viloyatlararo va tuman, ahamiyatga ega bo`lgan obyektlarga bo`linadi.

Kattaroq obyektlar mintaqaviy ahamiyatga ega savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari uchun tashrif buyuruvchilarni kamida 20 km radiusda o`ziga jalb qiladi, ammo ular savdo majmuaga sayohat uchun 60-90 daqiqadan ko`proq vaqt talab qilmagan taqdirda muvaffaqiyatli jalb qiladi.

1. Markaz shaharda Aglomeratsiya darajasidagi savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari quyidagicha ishlab chiqildi:

- a) hajmi – 50.000-100.000 m<sup>2</sup>
- b) xizmat ko`rsatish R = 80 – 100 km
- s) aholi soni – 500.000 – 1500.000 kishi,
- d) vaqt sarfi 60 – 90 minut

2. Tumanlararo savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari quyidagicha ishlab chiqildi:

- a) hajmi – 20.000 -50.000 m<sup>2</sup>

- b) xizmat ko`rsatish  $R = 30 - 80$  km
- s) aholi soni – 100.000 – 500.000 kishi,
- d) vaqt sarfi 30 – 60 minut

3. Tuman darajasidagi savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari quyidagicha ishlab chiqildi:

- a) hajmi – 10.000 -20.000  $m^2$
- b) xizmat ko`rsatish  $R = 5 - 30$  km
- s) aholi soni – 10.000 – 100.000 kishi,
- d) vaqt sarfi 5 – 30 minut

Qarshi, Jizzax va Urganch shaharlari uchun savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini loyihalash - respublikamizda amalda bo`lgan asosiy me`yoriy sohaga oid hujjatlar (Qurilish me`yorlari va qoidalari, idoralararo asosida) dunyo amaliyotidan olingan tajriba va ilmiy-amaliy tadqiqot natijalariga tayangan holda, zamonaviy savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari loyiha taklif va tavsiyalari ishlab chiqildi.

Kichik shaharlarni piyodalar harakatlari katta shaharlardigidek mutloq farq qiladi. Katta shaharning bosh rejasida yo`lovchilar transportini qulay tashkillashtirish nazarda tutiladi.

Transportning har bir turi ko`cha tarmoqlarining rejalshtirishda o`zining talablarini qo`yadi [21, 107].

Atrofdagi asosiy yo`llarning mumkin bo`lgan o`tkazuvchanlik quvvati qo`shimcha transport yuklariga mos keladigan darajada bo`lishi kerak. Hududda qo`shimcha binolar, avtoturargohlar va transport harakati uchun zaxira maydonini saqlash uchun yetarlicha katta bo`lishi kerak yoki qo`shimcha daromad markazni kengaytirish paytida ikki yoki ko`p qavatlari avtoulovlardan parkini qurish uchun kapital qo`yilmalarni oqlashi kerak [11, 21, 85].

Markazni kelgusida kengaytirish bo`yicha chora-tadbirlar dastlabki qurilish vaqtida amalga oshirilishi kerak bo`lgan kapital qo`yilmalarni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, markazni kengaytirishni rejalshtirish yaqin kelajakda bunday kengaytirish imkoniyatlari mavjud bo`lganda ma`qul hisoblanadi [21, 85].

Shunga qaramay, markazni kengaytirish imkoniyati katta ahamiyatga ega bo`lishi mumkin, agar xarid qilish zonasida markazning ustun mavqyeini saqlashni ta`minlash zarur bo`lsa.

Kerakli piyodalar yo`laklari va bo`sh maydonlarga ega bo`lgan qo`shimcha do`konlarning guruhi uchun maydon dastlabki hudud rejasining bir qismi bo`lishi kerak va shunday qilib saqlanishi kerakki, savdo markazining birinchi bosqichida sezilarli bo`shliq paydo bo`lmasin. Bunday

holda, rejalashtirish ushbu yangi binolarni ilgari qurilgan markaz bilan to`liq tartibga solishni ta`minlaydigan tarzda amalga oshirilishi kerak [41, 50].

Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini kengayishi natijasida avtoturargohlarga bo`lgan talabni qondirish uchun bo`sh joy ham zaxirada saqlanishi kerak. Ushbu maqsad uchun zarur bo`lgan zaxira maydonini belgilashda uning avtoturargoh va piyodalar maydonlari o`rtasida haddan tashqari katta masofalar yaratilmasligi uchun uning savdo markazining yangi yoki mavjud binolariga nisbatan joylashganligiga e`tibor qaratish lozim.

Dastlabki qurilish tugagandan so`ng, ushbu zaxira maydoni savdo markazining umumiy ko`rinishini buzmasligi uchun tegishli ravishda obodonlashtirilishi kerak. Yordamchi xonalarni, omborlar va tarqatish tizimlarini loyihalashtirish va qurishda ularni ortib borayotgan ehtiyojlarga mutanosib ravishda kengaytirish choralarini ko`rish hisobga olinishi zarur [11, 21, 43, 97].

O`rganishlar shuni isbotlaydiki savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularining me`moriy-rejaviy yechimlariga va shakllantirishga ta`sir qiluvchi ko`plab omillarga va uning aglomeratsiya tarkibida joylashtirishga oid talablar va tavsiya etiluvchi me`yorlar hamda amaliy ishlanmalarga tayanish maqsadli bo`ladi [28, 97, 99, 101, 112].

### **III bob xulosasi**

Monografiya ishida olib borilgan ilmiy tadkikotlar va kuzatuvlari Qarshi, Jizzax va Urganch shaharlarida Aglomeratsiya savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularining arxitektura - rejaviy yechimlari, xajmiy-fazoviy shakllanishi, ularning loyihalanishida optimal funksional va kompozision sifatlarni namoyon qilishga qaratilgan.

1. Qarshi, Jizzax va Urganch shaharlari sharoitida yirik savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini shakllantirish maqsadida viloyatdagagi asosiy magistral yo`llar va ularning kesishgan joylarida Aglomeratsiya savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini loyihalash tavsiya etilgan.

2. Qarshi, Jizzax va Urganch hududlarining murakkab tabiiy-iqlim sharoitida savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini binolarida, optimal funksional, gigiyenik, fiziologik va psixologik parametrlarni ta`minlash arxitektura va shaxarsozlik vositalari yordamida ishlab chiqilgan tavsiyalar orqali erishiladi.

3. Viloyatlar markazlari hisoblangan Qarshi, Jizzax va Urganch shaharlari uchun savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmular bo`yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan:

4. Viloyatlarning turli mintaqalarida joylashganligi, tabiiy-geografik jihatidan bir-biridan farq qilishi, quruq va jazirama issiq iqlimini hamma mintaqalarga xos ekanlini e`tiborga olgan holda Qarshi, Jizzax va Urganch shaharlarida savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini loyihalashda ochiq, yarim ochiq, va yopiq turdagagi arxitektura-fazoviy yechimlardan foydalanish tavsiya qilingan.

- ochiq turdagagi savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari tabiiy - iqlimi sharoitlari mo`tadil bo`lgan tog` oldi vodiylarida joylashgan shaharlar masalan Jizzax shahri uchun;

- yarim ochiq turdagagi savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari ochiq sahroda joylashgan va tabiiy - iqlimi sharoitlari bo`yicha cho`l ta`siridan ma`lum darajada himoyalangan shaxarlar uchun, masalan Qarshi shahri uchun;

- yopiq turdagagi savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari cho`l hududi bilan o`rab olingen va tabiiy - iqlimi sharoitlari ma`lum darajada ekstremal bo`lgan shaharlar uchun, masalan Urganch shahri uchun;

5. Qarshi, Jizzax va Urganch shaharlarida taklif qilinayotgan har bir savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari hududlarning zamonaviy shaharsozlik talablariga, tabiiy-iqlimi sharoitlarga moslashganlig ko`rsatgichiga, maxsus va optimal funksional-rejaviy tuzilishi bilan birlgilikda hudud an`analariga mos keladigan hajmiy-fazoviy kompozisiyalarga ega bo`lishi kerakligi aniqlangan.

6. Shu munosabat bilan monografiyada savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari binolari atrof-muhitini obodonlashtirish va ko`kalamzorlashtirish ishlari va loyihibarlarini bajarishda O`zbekistonning issiq-quruq iqlim sharoiti va har bir mintaqning landshaft tuzilishini e`tiborga olish kerakligi ta`kidlangan.

## UMUMIY XULOSALAR

“O`zbekiston viloyatlari markazlarida savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini arxitektura-loyihaviy shakllantirish xususiyatlari” mavzusidagi Dissertatsiya ishi bo`yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O`zbekistonda qadimdan mayjud karvon yo`llari va chorrahalarida shakllangan qadimgi karvon-saroylar, rabotlar va sardobalarini ta`mirlab yoki qayta tiklab, savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari bilan mujassamlashtirgan holda, zamonaviy maqsadlarda foydalanish imkoniyatlari mayjudligi aniqlandi.

2. Qarshi, Jizzax, Urganch shaharlaridagi savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari fazoviy va funksional tarzda tashkil qilingan.

3. Taklif va tavsiyalar asosida Qarshi, Jizzax, va Urganch shaharları kirish chiqish qismida joylashgan savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularining xizmat ko`rsatish radiusi belgilab berilgan.

4. Hozirgi zamon talablariga mos holda savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularining viloyat va shahar darajasida xizmat ko`rsatish radiusi va to`xtash manzillari belgilab berildi.

5. Viloyatlarda Aglomeratsiya savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini shakllantirishda yo`lovchilar va transport oqimlarini hisobga olgan holda aholi ehtiyojlarini qondirish darajasi mayjud talablar asosida aniqlanib, piyodalar va transport ehtiyojlari uchun obyektlar sig`imi va xizmat ko`rsatish radiusi aniqlandi va potensial loyihalash vositasi sifatida takliflar ishlab chiqish zarur.

6. Viloyatlardagi mayjud magistral yo`llarida savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularining rivojlanishi sababli bo` yo`lda mukammal zamonaviy infrastruktura majmularini tashkil etish taklif qilindi.

7. Viloyatlar magistral yo`llarida zamonaviy Aglomeratsiya savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini shakllantirishda yo`lovchilar va transport oqimlari, ularning ehtiyojlarini qondirish darajasi hamda shaharsozlik parametrlari, piyodalar va transport ehtiyojlari uchun obyektlar sig`imi, xizmat ko`rsatish radiusi hamda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan savdo majmularini tashkil qilish omillari aniqlandi va eksperiment loyihalash vositasida takliflar ishlab chiqildi;

8. Viloyatlarda tabiiy-iqlimi hududlarni hisobga olib, savdo majmularining yangi loyihaviy takliflari ishlab chiqildi:

- qulay voha zonasini mo`ta`dil (Jizzax viloyati);
- iqlimi keskin bo`lgan zona (Qashqadaryo viloyati);

- ekstremal sharoitdagи sahro zonasi (Xorazm viloyati);
  - ochiq turdagи savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari tabiiy - iqlimiш sharoitlari mo`tadil bo`lgan tog` oldi vodiyalarida joylashgan shaharlar masalan Jizzax shahri uchun;
  - yarim ochiq turdagи savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari ochiq sahroda joylashgan va tabiiy - iqlimiш sharoitlari bo`yicha cho`l ta`siridan ma`lum darajada himoyalangan shaxarlar uchun, masalan Qarshi shahri uchun;
  - yopiq turdagи savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari cho`l hududi bilan o`rab olingan va tabiiy - iqlimiш sharoitlari ma`lum darajada ekstremal bo`lgan shaharlar uchun, masalan Urganch shahri uchun;
9. O`tkazilgan tadqiqotlar O`zbekiston viloyat va shaharlar ahamiyatidagi yo`llarda Aglomeratsiya savdo majmularining shakllanishi, shahar hududlariga nisbatan ustun bo`lishini taxmin qilish imkonini berdi.
10. O`zbekiston viloyatlarida Aglomeratsiya savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularining shakllantirilishi va rivojlanishi ijobjiy hodisa hisoblanadi. Ularni loyihalash va joylashtirishga tizimli yondashgan holda savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmualari viloyatlararo va shaharlararo yo`llarda joylashtirilishi ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni rivojlanishga ta`sir ko`rsatuvchi muhim aloqalarni ta`minlashi isbotlangan.
11. Savdo-maishiy xizmat ko`rsatish majmularini viloyatlarga kirish qismida tashkil qilish takliflari qo`shni davlatlarda ham qo`llanilishi mumkin.

## IZOHЛИ LUG'AT

**Aglomeratsiya** - ishlab chiqarish kuchlarning rivojlanishi va joylanishi, xususan mujassamlashuv natijasida turli funksional tip va yiriklikdagi shaharlarning bir joyda to`planishi.

**Aholi** - malum hududda yashaydigan kishilar yig`indisi, majmui.

**Megapolis** - aglomeratsiyalarning o`zaro qo`shilib ketishi natijasida vujudga kelishi.

**Migrasiya** - aholining yashash joyini doimiy yoki vaqtincha o`zgartirish maqsadida, bir joydan ikkinchi joyga ko`chishi.

**Monosentrik** - bir markazli degan ma`noni anglatadi, masalan, Samarqand aglomeratsiyasi bitta yirik shahar atrofida vujudga kelgan, bu aglomeratsiya monosentrik hisoblanadi.

**Urbanizatsiya** - shaharlashuv, shahar aholi salmog`ining oshishi, shaharchasiga yashash, shaharcha hayot tarzining rivojlanishi.

**Gipermarket** - universal assortimentdagi oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarini, asosan, o`z-o`ziga xizmat ko`rsatish shaklida sotadigan savdo korxonasi. Gipermarketning savdo maydoni - 4 mingdan 20 ming m<sup>2</sup> gacha;

**Supermarket** - supermarket - oziq-ovqat va ichimliklar, shuningdek, uy-ro`zg`or buyumlari, uy hayvonlari uchun mahsulotlar, avtomobil mahsulotlari, tabrik kartalari, kosmetika, idish-tovoq, dori-darmonlar, maishiy texnika va boshqalar to`liq assortimentini sotuvchi yirik supermarket.

**Market** - o`z-o`ziga xizmat ko`rsatish do`koni (odatda yirik, vakolatli, tovarlarning katta tanlovi bilan)

**Minimarket** – minimarket yoki mini – market (lot. Mini - “kichik” va ingl. Market - “bozor”) kichik do`kon bo`lib, unda oziq-ovqat mahsulotlari, yengil taom, qandolat, shaxsiy gigiyena mahsulotlari, ichimlik, tamaki kabi kundalik mollar sotiladi. Odatda minimarketlarda pul o`tkazish (masalan, paynet) xizmati ham ko`rsatiladi.

**Savdo markazi** - bu yagona tashkilot sifatida boshqariladigan va bir xil bino yoki binolar majmuasida joylashgan savdo korxonalari guruhi.

**Univermag** - bu har bir alohida mahsulot toifasiga ixtisoslashgan turli do`kon bo`limlarida keng turdag'i iste`mol tovarlarini taklif qiluvchi chakana savdo do`koni.

**Magazin** - tovarlarni sotish va xizmatlar ko`rsatish uchun jihozlangan statsionar binoda joylashgan chakana savdo korxonasi. Zamonaviy do`kon joylashgan bino yoki binoning bir qismi odatda savdo maydonchasining

o`zini ham, yordamchi, ma`muriy va maishiy binolar va omborlarni ham o`z ichiga oladi.

**Butik** - cheklangan mijozlar doirasiga ega bo`lgan kichik yuqori ixtisoslashtirilgan do`kon. Butiklar odatda zamonaviy qimmatbaho kiyimlar yoki zargarlik buyumlarini sotadilar.

**Do`kon** - tovarlarni sotish va xizmatlar ko`rsatish uchun jihozlangan statcionar binoda joylashgan chakana savdo korxonasi.

**Bozor** - ko`pincha minimal yoki jihozlanmagan savdo markazlari yoki hatto ochiq havoda joylashgan, ko`plab sotuvchilar va xaridorlar bo`lgan, oziq-ovqat va boshqa tovarlarning chakana savdosi amalga oshiriladigan savdo markazining umumiy nomi.

**Yadro** - Biror narsaning ichki, markaziy qismi.

**Markaz** - markaz - biror narsaning o`rtasi, asosiy qismi yoki nuqtasi, shuningdek, asosiy joy, mamlakatning eng muhim resurslari, hududiy birlik, ijtimoiy guruh, infratuzilma va boshqalarining to`planishi.

**Piyoda** - piyoda - piyoda, ya`ni oyoqlar yordamida, yurish usullari bilan harakatlanadigan odam. "piyoda" - yo`lda yoki piyoda yoki velosiped yo`lida transport vositasidan tashqarida bo`lgan va ular ustida ishlamaydigan shaxs.

**Transport turlari** - transport - turli maqsadlar uchun odamlar va yuklarni bir joydan ikkinchi joyga ko`chirish jarayonini ta`minlaydigan aloqa yo`llaridagi barcha turdag'i aloqa yo`llari, transport vositalari, texnik qurilmalar va inshootlar majmui. Barcha transportlarni ma`lum mezonzlarga ko`ra bir qancha guruhlarga bo`lish mumkin.

**Landshaft** – landshaft arxitekturasi-bu uchta yo`nalishning tutashgan joyida joylashgan san`at: bir tomondan, arxitektura, qurilish va dizayn, boshqa tomondan, botanika va o`simlikshunoslik, uchinchi tomondan, tarix va falsafa ma`lumotlari landshaft dizaynida qo`llaniladi.

**Savdo va maishiy xizmat ko`rsatish majmualari** - tijorat va notijorat xizmatlarning barcha turlarini o`z ichiga olgan iqtisodiyotning bir qismi; korxonalar, tashkilotlar, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan ko`rsatiladigan turli xil xizmatlarning takror ishlab chiqarilishini o`z ichiga olgan konsolidasiyalangan umumlashtiruvchi toifa. Iqtisodiyotning qolgan qismi ishlab chiqarish - sanoat va qishloq xo`jaligi hisoblanadi.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

### I. Normativ-huquqiy xujjatlar va metodologik hamiyatga ega nashrlar

1.1. «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi». O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. – Toshkent, 2017.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 apreldagi “Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5392-sonli farmoni (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.04.2018 y., 06/18/5392/0982-son; 23.05.2018 y., 06/18/5445/1245-son).

1.3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 2 апреддаги “Ўзбекистон Республикаси Курилиш вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги ПҚ-3646-сонли карори (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллый базаси, 02.04.2018 й., 07/18/3646/0981-сон).

1.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 noyabrdagi “Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5577-sonli farmoni (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.11.2018 y., 06/18/5577/2187-son).

1.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 fevraldag'i “Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4198sonli qarori (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.02.2019 y., 07/19/4198/2640-son).

1.6. Указ Президента Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёева «О мерах по коренному совершенствованию процессов урбанизации». № УП-5623 от 10 января 2019 года.

1.7. Mirziyoyev Sh.M. 2017 - 2019 yillar davrida dehqon bozorlarini rekonstruksiya qilish va ularning hududida zamonaviy savdo majmualari qurish dasturini tasdiqlash to'g'risida. - Toshkent shahri. 2017 yil 27 mart, PQ-2853-son.

1.8. O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksini tasdiqlash xaqida. - Toshkent shahri., 2021 yil 22 fevral № URK-676.

### II. Монография, дарслар, илмий мақолалар тўплами

2.9. Адамович В.В. и др. «Архитектурное проектирование общественных зданий и сооружений» / М., Стройиздат, 1984 - 543 с.

- 2.10. Аскаров Ш.Д. Регион – пространство – город. – М.: Стройиздат, 1988. – 201 с.
- 2.11. Аронин Д. Климат и архитектура М., Госстройиздат, 1959.
- 2.12. Анарбаев А. Благоустройство средне векового города Средней Азии (V- начало XIII в.). - Т: 1981. Стр. 26.
- 2.13. Архитектурное проектирования жилых зданий. М., 2005
- 2.14. Архитектурное наследие Узбекистана издательство Ан УзССР. Тошкент 1960
- 2.15. Архитектурное проектирование общественных зданий и сооружений. Учебник. Под общ. ред. И.Н. Соболева и А.И. Урбах. М., Стройиздат, 1970
- 2.16. Ата-Мирзаев О.Б. Региональное прогнозирование расселения и управление процессом урбанизации. – Ташкент: Фан, 1979. – 92 с.
- 2.17. Ашрафи Ф.М., Зимакова Т.П. Общественные центры микрорайонов в застройке городов Средней Азии. // Строительство и архитектура Узбекистана. - 1972, N 7, с. 26 -3.
- 2.18. Ахмедов М.К. Преемственность исторически сложившихся ансамблей и новой застройки в градостроительной практике Узбекистана// Исследования по истории и теории архитектуры Узбекистана. Вып. N 301, - Ташкент, 1980. с. 3-8.
- 2.19. Беддингтон Н. Строительство торговых центров, Москва Стройиздат 1986
- 2.20. Бархин Б.Г. Методика Архитектурного проектирования - М. Стройиздат, 2003.
- 2.21. Бочаров Ю.П., Демин Н.М. Социально-экономическое развитие крупного города как объект имитационного моделирования. Киев, 1982. - 84 с.
- 2.22. Большаков О.Г. Город в конце VIII в. – В кн.: Средневековой город Средней Азии. – Л: 1973. Стр. 229.
- 2.23. Бакирханов Ф.Ф., Турсунов Х.К. Градостроительный потенциал регионального расселения. – Ташкент: АКАТМ, 2001. – 112 с.
- 2.24. Бобобеков Б.К., Хидиров М.М. Жилищно-торговые (производственные комплексы) для Узбекистана. // Архитектура регионального жилища. Киев ЗНИИЭП. Киев, 1991. с. 99-108.
- 2.25. Болгаев А.Б. Организация межселенного культурно-бытового обслуживания при формировании групповых систем расселения в условиях оазиса (на примере Самаркандинской области УзССР).: Авторев. дисс... канд. архит. - М. 1981. - 18 с.

- 2.26. Демидкова А.П., Гольдштейн Г.К. Озеленение и обводнение в планировочной структуре города (обзор). -М. 1977. - 46 с.
- 2.27. Джаббар О.С. Новый тип жилища для Бухары. Строительство и архитектура Узбекистана, 1980, №7, с. 24-28.
- 2.28. Фирсанов В.М. Архитектура гражданских зданий в условиях жаркого климата. Учебник для студентов архитектурных и строительных вузов, 2-е изд., перераб. и доп., М: «Высшая школа», 1982-242 с.ил.
- 2.29. Грюн В., Смит Л. Торговые центры США. М., Стройиздат. 1966. 3-8 бет
- 2.30. Гельфонд А.Л. Архитектурное проектирование общественных зданий и сооружений: Учеб.пособие. – М.: Архитектура-С. 2006 – 208 с.
- 2.31. Гайдученя А.А. и др. Проектирование торговых предприятий. - Киев: Будивельник, 1986. – 135 с.
- 2.32. Гослинг Д., Мэйтленд Б. Проектирование торговых комплексов. Пер. с англ. Д. Копедянского, вод. ред. И. Федосеевой М., Стройиздат, 1979.
- 2.33. Гайдученя А.А., Ежов В.И. Размещение торговых центров с учетом потоков движения населения. // Строительство и архитектура. 1973, N 13.
- 2.34. Гарамов Ю.М. Архитектурно-планировочные решения крытых рынков для районов с жарким климатом (применительно к условиям Узбекистана).: Автореф. дисс... канд. архит. М. - 1975. - 19 с.
- 2.35. Градостроителний кодекс Узбекистана-Тошкент: 2021.
- 2.36. Иноғомов Б.И. Замонавий бино ва иншоотларни лойихалаш. - Тошкент - 2010
- 2.37. Канаян К., Канаян Р., Канаян А. Проектирование магазинов и торговых центров. – М.: Юнион-Стандарт-Консалтинг, 2005 - 424 с.
- 2.38. Карташова К.К. Формирование архитектурно-планировочной структуригородского жилища на социально-демографической основе. М. 1986.
- 2.39. Кандилик Ж. Стать архитектором. М. Стройиздат. 1979.
- 2.40. Кочетко А.В. Развитие инфраструктуры в условиях систем группового расселения. Москва, 1974.
- 2.41. КМК 2.01.04 - 94. «Лойихалаш учун ижтимоий ва физикавий геологик маълумотлар». Тошкент, 1994 й.
- 2.42. КМК 2.08.01 - 05. «Туар жой бинолари» Тошкент, 2005 й.
- 2.43. Лавров В.А. Градостроительная культура Средней Азии.

М. Госиздат архитектури градостроительства. 1950.

2.44. Лаппо Г.М., Полян П.М., Селиванова Т.И. Городские агломерации России // Демоскоп. № 407-408.

2.45. Маклакова Т.Г. Архитектура гражданских и промышленных зданий. / М.: Стройиздат, 1987. - 287 с.

2.46. Маклакова Т.Т. Функция, конструкция, композиция в архитектуре. Учебник. М.: АСВ, 2002. - 256 с.

2.47. Маньковская Л.Ю. Типологические основы зодчества Средней Азии (IX начало XX) в.). - Т: 1980. Стр.51.

2.48. Максименко Н.В. Объединенные общественно-транспортные комплексы. Москва, 1968.

2.49. Мейтленд, Б. Пешеходные торгово-общественные пространства. Мейтленд Б.пер. сангл. – М.: Стройиздат, 1989. - 206 с.

2.50. Марков Е.М. Бугузова В.П. Таратынов В.А. Малые города в системах расселения. М. Стройиздат. 1980

2.51. Мирзаев М.К. Проблемы регионального расселения в Узбекистане, связанные с развитием аридных территорий // Архитектура и строительство Узбекистана 1986, № 12. – с. 9,10

2.52. Мирзаев М.К. Принципы формирования систем расселения в аридных районах // Архитектура и строительство Узбекистана, 1988, № 1.

2.53. Мирзаев М.К. Пути совершенствования планировочной структуры систем расселения Узбекистана // Архитектура и строительство Узбекистана, 1991, № 1. – с. 25-27

2.54. Makhmatkulov I.T., Giyasov B.D., Eshatov I.Q. The Role and Place of the Khanqahs in spreading the Mysticism and spiritual purification to the Peoples of Central Asia. // International journal of scientific & technology research (IJSTR) ISSN: 2277-8616 Vol 9, issue 03, march 2020, Impact Factor: 7.466 (Online) 561- 563 www. ijstr.org India.

2.55. Makhmatkulov I.T., Eshatov I.Q. Landshaft arxitekturasida suv havzalari, hovuzlar, prudlar, dekorativ basseynlar, favvoralar va sharsharalarning roli. // “Arxitektura va qurilish sohalarida innovatsion texnologiyalarni qo’llash istiqbollarji” mavzusida Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutining 50-yilligiga bag’ishlangan konferensiya materiallari. 2016 yil

2.56. Орлов М.А., Федосеева И.Р. и др. Проектирование сети предприятий торгово-бытового обслуживания в городах. М., Стройиздат, 1975

2.57. Орловский Б.Я., Сербинович П.П. Архитектура гражданских и промышленных зданий: Общественные здания. / 2-е

- изд., перераб. и доп., М: «Высшая школа», 1991. – 334 с.;
- 2.58. Оболенский Н. В. Архитектура и солнце. - М.: Стройиздат, 1988.
- 2.59. Пулатов Х.Ш. Базары старого Ташкента. // В сб.: Пути развития архитектуры Узбекистана. – Ташкент: 1983, с. 33-42.
- 2.60. Po'latov X. Shaharsozlik tarixi. Toshkent. 2008 у.
- 2.61. Пугаченкова Г.А. Зодчество Центральной Азии. XV в. - Ташкент: 1976. 116 с.
- 2.62. Панков А.В. К истории торговли Средней Азии с Россией XVI-XVIIвв. В кн.: В.В. Бартольд.-Ташкент: 1927. 20-47 стр.
- 2.63. Полян П.М. Урбанистическая структура и урбанистическая концентрация // Экономическая география: Респуб. межвузовский научный сб. Вып.36. Киев, 1984. С. 61-68.
- 2.64. Ибрагимов Н. Ибн Батрута и его путешествия по Средней Азии. – М., 1988. – Стр. 58.
- 2.65. ҚМҚ 2.08.02-96. Жамоат бинолари ва иншоотлари. (Общественные здания и сооружения). / Ўз. Рес. Дав. Арх.ва Курилиш қўмитаси, Т., 1995. – 232 бет.
- 2.66. ҚМҚ 2.07.01-94. Шахарсозлик. Шахар ва қишлоқ манзилгоҳларини режалаштириш ва куриш. / Ўз. Рес. Давлат Арх. ва Курилиш қўмитаси.Т.,1994. – 129 бет.
- 2.67. Распопова В.И. Один из базаров Пенджикента VII-VIII вв. – В кн.: Страны и народы Востока, вып. X. – М: 1971. Стр. 67
- 2.68. Розенблум С.А. При квартирные домики в многоэтажном жилище. Строительство и архитектура Узбекистана. 1973. №1. 20-25 с.
- 2.69. Римша А.Н. Градостроительство в условиях жаркого климата. Москва, 1979.
- 2.70. Римша А.Н. "Город и жаркий климат" Краткий обзор урбанизации территорий жаркого климата (Азия, Африка, Латинская Америка и 4-й строительно-климатический пояс СССР)" Москва стройиздат 1975
- 2.71. Суровенков А.В. Архитектура торговых центров крупнейшего города: На примере Санкт-Петербурга: Автореф. дис. канд. наук. - Санкт-Петербург, 2005. - 20 с.
- 2.72. Смирнова О.В., Хромов В.Я. Учреждения обслуживания и общественные центры городов. М., Стройиздат, 1973.
- 2.73. Суханов И.С. Лучистая энергия солница и архитектура. ФАН, Ташкент. 1973.
- 2.74. СНиП, 23-01-99 Строительная климатология. М. 2000.

- 2.75. Шевцов К.К. Проектирование зданий для районов особыми природно – климатическими условиями. - М. Высшая школа. 1986.
- 2.76. ШНК 2.07.01 - 94 «Шахарсозлик, шахарва кишлоқ ахоли пунктларини режалаштириш ва куриш» Тошкент, 1994 й.
- 2.77. Черепанов В.А. Транспорт в планировке городов М., Стройиздат, 1981
- 2.78. Тоштемиров Р.Т. Сохранить народное зодчество Узбекистана. - Декоративное искусство СССР, 1976, № 7, с. 43-45.
- 2.79. Тоштемиров Р.Т. Исследование объемно – планировочной структура многоэтажных жилых домов условиях Узбекистана. канд. дисс. Киев – 1984.
- 2.80. Турсунов Х.К., Латипов Д.В. Градостроительная деятельность в новых условиях развития Узбекистан // Проблемы архитектуры и строительства (научно-технический журнал), 2004, № 4. - с. 44-46
- 2.81. Турсунов Х.К. и др. Реконструкции по организации центров общественного обслуживания населения в городах и системах населенных мест Узбекистана. Ташкент, 1991.
- 2.82. Турсунов Х.К. Прогнозирование развития систем населенных мест Узбекистана. – Тошкент: УЗНИИП градостроительства, 1978. – 133 с.
- 2.83. Турсунов Х.К. Региональные проблемы развития городских и сельских населений Узбекистана. Ташкент: УЗНИИП градостроительства, 1976. - 114 с.
- 2.84. Турсунов Х.К. Пространственно-планировочная организация расселения на территории Узбекистана, 2012.
- 2.85. Uralov A., Yusupov R. O'rta Osiyoning o'tmishdagi jamoat binolari arxitekturasi. – Samarcand, 2007.
- 2.86. Uralov A.S. Qodirova T.F. O'rta Osiyo me`moriy yodgorliklarining tipologik asoslari. - Т., 2012.
- 2.87. Уралов А.С. Гражданское зодчество средневековой центральной Азии (общественные здания и сооружения), -Т, 2021,
- 2.88. Uralov A.S., Xidirov M.M., Eshatov I.Q. O`zbekiston viloyat markazlarida savdo va maishiy xizmat majmularining shakllanishi // Arxitektura, qurilish, dizayn jurnalı. -Toshkent: TAQI, 2020 yil, №2. - 69-75 betlar.
